Annotation. The article presents a method for extracting α – cellulose from cotton lint and cyclone fluff. Paper masses were prepared in different ratios of α – cellulose from cotton lint and cyclone fluff. The structural characteristics of cellulose fibers in paper pulp were studied using an automatic device Phyber Test. Paper castings were made and the physico-chemical and physico-mechanical properties of fibers and paper castings were determined**.**

Keywords: Cotton lint, cyclone down, Fiber Test, fibers, swelling, α – cellulose, dust, cyclone, dusty air, fiber.


Аннотация. В статье приведены способ извлечении α – целлюлоза из хлопкового линта и циклонного пуха. Приготовлены бумажные массы в разных соотношениях α – целлюлозы из хлопкового линта и циклонного пуха. Изучены структурные характкристики целлюлозных волокон в бумажной массе, с помощью автоматического прибора Файбер Тест. Изготовлены бумажные отливки и определены физико-химические и физико-механические свойст волокон и бумажных отливок.

Ключевые слова: Линт хлопковый, пух циклоный, Файбер Тест, волокна, набухание, α – целлюлоза, пыль, циклон, воздух пыльный, волокно.

Кириш.

ISSN 3030-3907

Бугунги кунда Ўзбекистонда қоғоз ва қоғоз махсулотларини ишлаб чиқришга катта эътибюор берилмокда. Ўтган асрнинг 80-чи йилларида “Узбум” номли корхонада қоғоз ишлаб чиқарилар эди, картон қоғоз эса фақат Ангрен шаҳрида (1988 йилдан бошлаб) ишлаб чиқрилар эди. Ҳозирда целлюлоза асосида қоғоз ва қоғоз маҳсулотларин иишлаб чиқарувчи корхоналар сони юздан ортиқ. Улар пахта момиғидан целлюлоза, маҳсус қоғоз, ёғоч целлюлозасидан ва макулатурадан санитар-гигиенетик қоғоз; макулатура асосида эса картон, гофрирланган картон, бир марта ишлатиладиган идишлар, тўқимачилик саноатида ип ўрайдиган цилиндир ва конуслар, тошқоғоз ва бошқа маҳсулотлар ишлаб чиқарилмокда. Истиқболда бу ишларни янада ривожлантириш кўзда тутилган. Қуйида қоғоз ва қоғоз маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича асосий прогноз параметрлари келтирилган [1].



1-қоғоз маҳсулотларига бзлган талаб;
2 - ишлаб чиқариш ҳажми;
3 – импорт;
4 – экспорт.

Мамлакатимизда ёзув ва матбаа қоғозларини ишлаб чиқаришда муаммолар бор. Бу турдаги сифатли қоғоз ишлаб чиқаришда хомашё-целлюлоза толаларини янчиб - қирқилгани, ундан тайёланадиган 3% ли қоғоз массасини сифати муҳим аҳамиятга эга. Қуйида пахта момиғи ва пахта момиғини бегона қўшимчалардан тозалаш жараёнида ҳосил бўлган чанг-тупроқ аралаш майда толалар (техник номи - “циклон пух”)ажралади. Қоғоз масса тайёрлаш, целлюлоза толаларини характкристикасини ўрганиш устида тадқиқотлар олиб борилган [2-5], Пахта тозалаш корхоналарида чигит пахтага дастлабки ишлов бериш жараёнларида пахтадан маълум миқдорда чанг ажралиб чиқади. Соғликни сақлаш мъёрларига биноан, ҳар бир кубометр ҳавода толали чанг миқдори 10 мг/м^3 ва корхоналардан атмосферага чиқарилаётган ҳавонинг чанги 150мг/м^3 дан ортиқ бўлмаслиги керак. Чигитли пахтадан чиқадиган чанг органик ва минерал фракциялардан иборат. Органик фракция ғўза шохлари, барглари, кўсакларнинг майдаланган

ISSN 3030-3907

заррачалари ва майдаланган тола бўлакчалари ҳамда минерал фракциялар – тупроқ, қум асосий заррачаларидан ташкил топган “циклон пух”и.

Танланган объект, тажриба усуллари ва натижалар муҳокамаси

Танланган объект – пахта момиғи[2] ва уни бегона аралашмалардан тозалаш жараёнларида ҳосил бўлган чанг-толалар аралаш циклон пухи.

Тажриба усуллари – тозаланган пахта момиғи ва циклон пухидан ажратиб олинган α-целлюлозадан ниборат. Пахта момиғидан альфа целлюлоза қисмини ажратиб олиш, корхона шароитида қозонда пиширish орқали олинди. Пиширish параметрлари: 4% ли NaOH эритмасида 135-140^{o}C да 45 минут{3}.

Циклон пухи таркибидаги пахтадан α-целлюлоза қисмини ажратиб олиш учун намуна дастлаб илиқ сувда ювилиб, минерал ва органик қўшимчалардан тозалангач, қуритиш шкафида 105-110^{o}Сда 45 мин [3] давомида қуритилиб, дезинтегаторда титилди.

Иккала намуналардан олинган α- целлюлозадан 3% ли қоғоз масса, Ролл-22,5 аппаратида янчиб-майдалаб тайёрланди. Майдалик даражаси 55-60 ^{o}ШР. Қоғоз массадаги толаларнинг ўлчам характеристикаси параметрлари Fiber Tester автомат анализатори ёрдамида бажарилди.

Олинган натижаларнинг муҳокамаси. Пахта момиғидан қоғоз олишда ва уни тола тозалагич жиҳозларидан чиқаётган ҳаводаги чанг 10-15% толали заррачалардан иборат бўлган – циклон пухи [4]. Циклон пухидаги чанг заррачалари – 5-6 мм дан 0,5-0,25 мм гача бўлган толалардан иборат[5].

Аниқланган α-целлюлоза миқдори, %:

- пахта момиғида – 87,9;
- циклон пухида - 85,3.


Циклон пухи таркибидаги α-целлюлоза миқдори пахта момиғидан олинган α-целлюлоза миқдоридан 2,5% га кам. Бунинг сабаби циклон пухи таркибидаги пахта толаларини пишиб етилишини пастлигидир. [4,5].

Қоғоз масса таркибидаги толаларнинг структура ўлчов параметрлари Fiber Tester автомат анализаторида **толаларни қуйидаги асосий ўртача параметрлари ўлчанди[6]:**


- ўртача фракцион таркиби;
- узунлиги бўйича интеграл (1) ва дифференциал (2) бўлиниши;
- эни бўйича интеграл (1) ва дифференциал (2) бўлиниши.

Пахта момиғидан олинган α-целлюлоза толаларнинг узунлиги ва эни бўйича ўзгаришлар 1-3-расмларда келтирилган.


ISSN 3030-3907



1-расм. Пахта момиғи α-целлюлозадан тайёрланган қоғоз масса таркибидаги толаларнинг узунлиги бўйич фракцион таркиби.
Толаларнинг узунлиги ҳар хи
Пахта момиғи целлюлоза массасида 0,2 дан 1,4 мм 3/9 1,8 дан 7,5 мм қисм 6/9 ни ташкил этади.




2-расм. Пахта момиғи α-целлюлозадан тайёрланган қоғоз масса таркибидаги толаларнинг узунлиги бўйич ўртача тақсимланиш интеграл (1) ва дифференциал (2) эгри чизиғ
Узун толалар, яъни мкм гача қисми ~ 100% эташкил этад



3-расм. Пахта момиғи α-целлюлозадан тайёрланган қоғоз масса таркибидаги толаларнинг эни бўйича ўрта тақсимланиш интеграл (1) ва дифференциал (2) эгри чизиғ
Толарнинг эни 10 дан 70 мкм атрофида.


Циклон пухидан олинган α-целлюлоза толаларнинг узунлиги ва эни бўйича ўзгаришлар 4-6-расмларда келтирилган

ISSN 3030-3907




4-расм. Циклон пухи α-целлюлозасидан тайёрланган қоғоз массадаги толаларнинг узунлиги бўйича ўртача фракц таркиби.

Циклон пухидан тайёрланган к массасида 0,2 дан 1,4 мм 3/9 , 1,8 дан 7,5 мм қисм 6/9 ни ташкил этади.



5-расм. Циклон пухи α-целлюлозасидан тайёрланган қоғоз массадаги толаларнинг узунлиги бўйича ўртача интеграл (1) ва дифференциал эгри чизиғи.



6-расм. Циклон пухи α-целлюлозасидан тайёрланган қоғоз массадаги толаларнинг бўйича ўртача интеграл (1) ва дифференциал (2) эгри чизиғи.

Олинган натижаларга кўра қоғоз масса таркибидаги толалар таркиби ва миқдори турлича. Уларнинг ўртача ўлчамлар 1-жадвалда келтирилган.

ISSN 3030-3907

1-жадвал

α-целлюлозадан тайёрланган қоғоз масса таркибидаги толаларнинг ўртача узунлиги ва эни

Номи	Узунлиги мм, Прибор кўрсаткичи	Эни, мкм, Прибор кўрсаткичи	Пахта толаларининг пишиб етилганлик даражаси,%	Манба
Пахта момиғи	1,156	36,5	65-69	ГОСТ 381.8
Циклон пухи	0,692	28,3	35-39	ГОСТ 6015

Намуналардан ажрптиб олинган α-целлюлозани физик-кимёвий кўрсаткичлари 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

α-целлюлозадан тайёрланган қоғоз масса таркибидаги толаларнинг физик-кимёвий хоссалари

Намуна	Сувда бзкиши, % [7]	Кудлиги, % [8]	Полимерданиш даражаси [9]	Оқлиги,% [10]
Пахта момиғи целлюлозаси	256,5	0,27	1960	85,2
Циклон пухи целлюлозаси	269,8	0,32	1233	80,3

Циклон пухидан ажратиб олинган α-целлюлозани сорбцияси 10-12% га кўп. Кул миқдори 0,1% кам. Полимерланиш даражаси 700 га паст. Буларнинг сабаблари циклон пухи толаларининг пишиб етилмаганлиги ҳисобланади[11].

Танланган α-целлюлоза намуналаридан, лаборатория шароитида ЛА-3 қоғоз қуюш аппаратида намуналар олинди. Пахта момиғидан олинган целлюлозага 5,10, 15, 20% дан циклон пухдан олинган целлюлозадан қўшиб, қоғоз намуналар олинди. Асосий қоғоз массага 10-15% циклон пухидан қўшиб олинган қоғознинг физик-механик кўрсаткичлари пахта момиғидан олинган қоғозни физик- механик кўрсаткичларига яқин келди. (3-жадвал).

3-жадвал

Циклон пухи α-целлюлозадан асосий қоғоз масса 10% қўшиб олинган қоғоз намунасини физик-механик кўрсаткичлари

ISSN 3030-3907

Қоғоз намуналарининг кўрсаткичлари	α-целлюлоза		Аниқлаш усули
	Пахта момиғидан	Циклон пухидан	
1 м^2, массаси, г	82	81	O`zSt 1112-2006
Қалинлиги, мм	140	136	O`zSt 1112-2006
Узилиш узунлиги, м	1915	1912	O`zSt 1113-2006
Силлиқлиги, мл/мин	1150	1210	O`zSt 1123-2013
Оқлиги, %	84,83	82,46	ГОСТ30115-94
Намлиги, %	5,6	6,1	O`zSt 1122-2013

Иккала намуналардан олинган қоғознинг физик – механик кўрсаткичлари бир бирига жуда яқин. Шунинг учун пахта момиғидан олинган альфа целлюлоза массасига 10-12% гача қўшиб қоғоз олиш мумкин.

Хулоса. Пахта момиғи ва цикдон пухидан α-целлюлоза қисми ажратиб олинди. Уларнинг физик-кимёвий хоссалари, морфодогияси ва қоғоз масса таркибидаги толаларнинг узундиги ва эни бўйича таркибий қисмлари ва ўлчамлари аниқланди. Циклон пухидан 10% гача қоғоз массасига қўшиб қоғоз олш мумкинлиги кўрсатилди.

Фойдаданилган адабиётлар

1.Интернет ресурс. htt:Kun. Uz. 59163841.
2. O`St 645-2010. Пахта момиғи. Техникавий шартлари.
3.Умарова В.К., Ҳабибуллаев Р.А., Примқулов М.Т. Шоли поясидан целлюлоза олиш жараёнини ПФЭ-2^3 тўлтқ омилли эксперемент режалари асосида ўрганиш ва унинг сифат кўрсаткичларининг математик моделини тузиш // Журнал “Композиционнқе матепиалқ” Ташкент, 2020, №3, с. 76-81.
4. ГОСТ 3818.0-72. Линт хлопковый. Техническая характеристика.
5. ГОСТ 6015-72. Отходы волокнистые хлопкозаводов.
6. Гораздова В.В. Технологическое регулирование трещина-стойкости целлюлозно-бумажных материалов, Диссертatsiя на соискание учёной степени Кандидата технических наук. 142 стр. С. 43-45, «Определение структурно-морфологических характеристик волокна», Архангельск, 2019 г.
7.Серкоа А.Т., Серкова Л.А. Определение набухания волокна в воде. – Хим. Волокна, 1974, № 5, с.70-71.
8. ГОСТ 7629-93. Бумага и картон. Метод определения золы.
9. ГОСТ 9105-74. Целлюлоза. Метод определения средней степени полимеризatsiи.
10. ГОСТ 30113-94. Бумага и картон. Метод определения белизны

ISSN 3030-3907

11. Сборник инструкций по техническому контролю и методик испытаний хлопка-сырца, волокна, линта, семян и волокнистых отходов хлопкозаводов / М-во легкой пром-сти СССР, Гл. упр. хлопкоочистит. пром-сти, Центр. науч.-исслед. ин-т хлопкоочистит. пром-сти, ЦНИИХПром. — Москва: Легкая индустрия, 1972. — 532 с., С. 292, 302.

ISSN 3030-3907

O‘SMIRLAR KIYIMLARINING SINFLANISHI

Abulova Parvina Ulug‘bek qizi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlar kiyimlarining turli jihatlari, ularning sinflanishi va tahlili, o‘smirlar kiyimlarining moda, ijtimoiy guruhlar, psixologik holatlar va funksional talablarga asoslangan turlari ko‘rib chiqiladi, kiyimlar o‘smirlar shaxsiyatining shakllanishi va ijtimoiy muloqotda o‘z o‘rnini topishdagi muhim vosita sifatida tahlil qilinadi, shuningdek, o‘smirlarning kiyim tanlovi, ularning shaxsiy ifodasi, ijtimoiy holati va madaniyatga oid nuqtai nazarlarni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlar kiyimlari, sinflanish, moda, ijtimoiy guruhlar, psixologik yondashuv, shaxsiy ifoda, funktsional kiyimlar.

Annotation: This article examines various aspects of adolescent clothing, its classification, and analysis, focusing on clothing types based on fashion, social groups, psychological states, and functional needs. Clothing is analyzed as an essential tool in shaping adolescents' personalities and finding their place in social interactions. Furthermore, adolescents' clothing choices reflect their personal expression, social status, and cultural perspectives.

Keywords: adolescent clothing, classification, fashion, social groups, psychological approach, personal expression, functional clothing.

Аннотация. В этой статье рассматриваются различные аспекты подростковой одежды, их классификatsiя и анализ, типы подростковой одежды, основанные на моде, социальных группах, психологических состояниях и функциональных требованиях, анализируется одежда как важный инструмент в формировании личности подростков и поиске своего места в социальном общении, а также рассматривается выбор подростковой одежды, их личное выражение, социальный статус и культура. отражает точки зрения.

Ключевые слова: подростковая одежда, класс, мода, социальные группы, психологический подход, личное выражение, функциональная одежда.

Kirish.

Tikuvchilik sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini, iqtisodini ko‘taradigan, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan xaridorgir engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, engil sanoatni fan va texnika taraqqiyotiga asoslanib eng muhim, eng dolzarb sohaga aylantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. So‘nggi yillar mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, xalq xo‘jaligini, sanoatning barcha sohalarini rivojlantirish borasida sezilarli ishlar

ISSN 3030-3907

amalga oshirilayapti. Jumladan, engil sanoatda bir qancha tikuvchilik, poyabzal ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy uskunalar bilan jihozlanmoqda, qo‘shma korxonalar tashkil etilyapti.

Zamonaviy moda o‘smirlarga individual imtiyozlarni hisobga olgan holda o‘z kamonlarini yaratish imkoniyatini beradi. Lekin har doim moda ko‘rinishi uchun qanday uslublar borligini va asosiy shkafni qanday qilib to‘g‘ri yaratishni hamma ham bilmaydi. Jahon brendlari tomonidan yaratilgan o‘smirlar kollektsiyalarida dizaynerlar yoshlar tomoshabinlarini qiziqtiradigan ko‘rinishlarni taqdim etishga harakat qilishadi. Ammo o‘smirlik davrida odamning o‘ziga xosligini abadiy izlash bor, shuning uchun ko‘pchilik uchun moda tendentsiyalariga mos kelish uchun nima kiyish kerakligini hal qilish va shu bilan birga o‘zlarining isyonkor ruhini namoyish etish juda qiyin bo‘lishi mumkin.

Bu yil yoshlar modasidagi moda tendentsiyalari o‘zimizning g‘ayrioddiy echimlarimizni topish zarurligini taqozo qilmoqda. Dizaynerlar tomonidan taklif etilgan modellar lakonik uslublarni oddiy kesilgan va nostandart formatdagi yorqin aksessuarlar bilan organik tarzda birlashtirib, o‘smirlarga tengdoshlari orasida o‘zlarini qulay his qilish va zamonaviy ko‘rinishga imkon beradi [3].

O‘smirlar qiyofasida alohida e’tibor qatlamlarga qaratiladi, bu kontseptsiyaga mos keladigan uslublar yordamida tasvirni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Metodlar. O‘smirlik davri har bir inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda yoshlar nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham katta o‘zgarishlarga uchraydilar. Bu jarayonda ularning shaxs sifatida shakllanishi va faol ijtimoiy muomalaga kirishishlari yoshga mos kiyim tanlashda ham o‘z ifodasini topadi. O‘smirlar kiyimi ularning shaxsiy izlanishlari, ijtimoiy statusi, modaga bo‘lgan munosabati va turli omillarga ta’sir etadi. Shuningdek, o‘smirlar kiyimini klassifikatsiyalashda bir nechta muhim jihatlarni inobatga olish zarur.

1. Kiyimning ijtimoiy hayotdagi ta’siri muhim hisoblanadi. O‘smirlik yoshidagi insonlar uchun kiyim tanlashda ijtimoiy omillar katta ahamiyat kasb etadi. O‘smirlar o‘zlarini jamiyatda tanishtirish, boshqalar bilan muloqot qilish, modaning oxirgi tendensiyalari va sotsiokultur muhit bilan bog‘liq holda kiyimlarni tanlashadi. Ular ko‘pincha yoshlarga mo‘ljallangan, shuningdek, faol turmush tarziga mos keladigan kiyimlarga qiziqishadi.

2. O‘smirlar kiyimini bir necha turga bo‘lish mumkin, ularning har biri ayrim ijtimoiy va madaniy omillarga asoslanadi (1-rasm):

a) klassik uslubdagi kiyimlar asosan o‘simlik yoshidagi yoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu kiyimlar zamonaviy modaning klassik yo‘nalishlari asosida tashkil topadi. Klassik kostyumlar, yubka va boshqa universal elementlar yoshlarga rasmiy va jiddiy ko‘rinish beradi.

ISSN 3030-3907

b) sport kiyimlari o‘smirlar orasida keng tarqalgan va ommalashgan. Bu turdagi kiyimlar nafaqat faol hayot tarzini o‘tkazishga, balki qulaylik va erkinlikka erishishga yordam beradi. Sport kiyimlari futbolka, trenchiklar, krossovkalar kabi elementlardan tashkil topadi.

v) kejual kiyimlar o‘smirlar orasida eng ommaviy tanlovlardan biridir. Bu uslubdagi kiyimlar kundalik hayot uchun qulay va erkin, shuningdek, modalarga moslashgan bo‘ladi. Ular, ko‘pincha, yoshlarga mo‘ljallangan futbolkalar, jins va shortlardan iborat bo‘ladi.

g) rok va pank stillari – bu rok va pank madaniyatlaridan ilhomlangan kiyimlar, ayniqsa, o‘yin va ijtimoiy ifodalash uchun tanlangan. Bu kiyimlar ko‘pincha qora kiyimlar, yirik to‘qilishlar, temir taqilmalar va boshqalar bilan bezatiladi.

d) kosmopolit kiyimlar – yoshlar o‘rtasida globalizatsiyaning ta’siri bilan kosmopolit kiyimlar ham ommalashib bormoqda. Bunday kiyimlar xalqaro modaning ilg‘or tendensiyalariga mos keladi, turli mamlakatlardagi modalar va madaniyatlarning ifodasidir.



a) b) c) d) g)

1-rasm. O‘smirlar kiyimlarining ijtimoiy va madaniy omillarga ko‘ra turlari

3. O‘smirlar kiyimlarining psixologik ta’siri ham mavjud. Kiyimlar nafaqat tashqi ko‘rinishni tashkil etgani kabi, balki psixologiyaga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlar kiyim orqali o‘zlarini hayotda qanday ko‘rishlarini, qanday xatt-harakatlarda bo‘lishlarini belgilashadi. Masalan, xos kiyimlar yoshning psixologiyasini, o‘z-o‘zini anglashini va a’zolik hissini shakllantiradi. Modalarga moslashish, hamda o‘z shaxsiy uslubni topish — o‘smirning ijtimoiy shaxsiyatiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

4. Modalarning o‘smirlar kiyimlariga ta’siri mavjud. Jumladan, moda, o‘z navbatida, o‘smirlar kiyimiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu yosh kategoriyasi uchun modalar tez o‘zgaradi va trendlar qisqa vaqtda o‘zgarishi mumkin. Modalarga qo‘shilish va ularga moslashish – yoshlar uchun ijtimoiy maqbullik va tan olish usullaridan biridir. Shuning uchun, kiyimning modaligi o‘smirlar uchun muhimdir.

5. Texnologik taraqqiyot kiyim ishlab chiqarishga ham ta’sir ko‘rsatdi. Hozirgi kunda modalar faqat tashqi ko‘rinish bilan emas, balki texnika va materiallarning yaxshilanishi bilan ham bog‘liq. Yoshlar ko‘pincha yangi, innovatsion materiallardan tayyorlangan kiyimlarni tanlashadi, bu esa ularning nafaqat ko‘rinishini, balki erkin harakat qilish imkoniyatini ham ta’minlaydi.

Kiyimlarning uslubiy yechimlari bo‘yicha sinflanishini ko‘rib chiqamiz.

1. **Klassik uslubning aniq belgilari mavjud bo‘lib, k**lassik uslub – zamonaviy modaning asl elementlaridan biri bo‘lib, uning o‘ziga xos belgilarini aytish mumkin:

- o‘ziga xos shakl va kesim: klassik kiyimlar, odatda, kamtar va yoshlarga mos bo‘lgan qiymatlar bilan ishlangan bo‘ladi. Ular ko‘pincha oddiy, ammo shikastsiz uslubda bo‘lib, jismga mos kelishiga urg‘u beriladi.
- yuqori sifatli materiallar: klassik kiyimlar yuqori sifatli mato va materiallardan tayyorlanadi. Bu, odatda, tugatilgan yoki keng tarqalgan kiyimdir.
- nozik va oson ranglar: klassik kiyimlarda, odatda, qora, oq, xaki va nurli sariq ranglar istifoda etiladi. Bu ranglar yoshlarning oddiy va toza ko‘rinishini ta’kidlaydi.

Klassik uslubdagi kiyimlar: usullar va elementlarga xos kiyimlar, ko‘pincha, rasmiy va dam olish uchun mos bo‘lgan qo‘llanmalardan iborat. Ushbu kiyimlar yoshlar uchun ham mos bo‘lgan maxsus elementlar bilan ajralib turadi [1].

Klassik kostyumlar, o‘smirlar uchun ajoyib tanlov bo‘lishi mumkin. Bu kostyumlar, odatda, yubka yoki jins bilan, shubhasiz, kamtar va jiddiy ko‘rinish beradi. Ko‘pincha, ular oddiy, lekin hozirgi kunda oshirilgan dizaynerlik elementlari bilan baholanadi.

Klassik uslubdagi futbolkalar har kunlik kiyuvchi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular shikastsiz va engil ranglardan ishlangan bo‘ladi. Ular odatda, kamtar va boshqa yo‘nalishlardan xoli, yoshlarga juda yaxshi ko‘rinish beradi.

Klassik yubkalar o‘smirlar uchun ham ko‘pincha mo‘ljallangan. Bu kiyimlar, qarama-qarshi ranglar bilan ta’minlangan, ommalashgan va shu bilan birga shakl va to‘liq rangli tarzda boshqariladi.

ISSN 3030-3907

O‘smirlar garderobida **klassik uslubdagi kiyimlar va shaxsiy uslub mavjud bo‘lib, k**lassik uslub yoshlar orasida shaxsiy e’tiborni shakllantirishga yordam beradi. Kiyimlar faqat tashqi ko‘rinishni ta’minlamasdan, balki o‘z shaxsiyatlarini ifodalashda yoshlarga yordam beradi. Klassik kiyimlar yoshlarning ozod va hissiy darajada yondashishini ta’minlaydi, shuningdek, ularning ijtimoiy maqom va ahamiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Klassik uslubdagi kiyimlar yoshlarning hayotidagi har kungi intilishlariga e’tibor qaratgan holda, ularga tinchlik va shikastsiz ko‘rinishni beradi. Shunday qilib, o‘smirlar klassik kiyimlarni tanlashda, ularning shaxsiy g‘oyalari va turli jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishlari muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ham klassik usuldagi kiyimlar yoshlar orasida keng tarqalgan. Modalarning o‘zgarishi bilan, klassik kiyimlar yoshlar uchun haqiqiy uslubni ifodalayotgan tanlov bo‘lib, ularning jamiyatdagi imijiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori sifatli va oddiy shikastsiz kiyimlar, o‘zbek yoshlari uchun ayni vaqtda muhimdir [2].

Klassik usuldagi kiyimlar o‘smirlar uchun nafaqat modali, balki yuqori sifat va kamtarlikni ham ta’minlaydi. Bu kiyimlar yoshlarning shaxsiyatlarini shakllantirishga yordam beradi, ularga jiddiy va tinch ko‘rinish beradi, shuningdek, ijtimoiy muhitga mos bo‘lishga imkon yaratadi. Klassik uslubdagi kiyimlar, modaning eng uzoq muddatli va yuqori mavjud elementlaridan biri hisoblanadi.

2. Sport uslubidagi kiyimlar o‘smirlar orasida endi kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bu kiyimlar faol hayot tarzi, erkinlik va qulaylikka ega bo‘lib, ularning jismoniy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini va ijtimoiy statusini ham ifodalaydi. Sport kiyimlari nafaqat sport zallarida, balki kundalik hayotda, hatto rasmiy va harbiy tanlovlarda ham ommalashgan. Bunday kiyimlar umumiy modaning katta qismiga aylandi.

Sport kiyimlarining eng asosiy jihati – ularning qulayligi va funksionallikka e’tibor qaratishidir. Sport usuldagi kiyimlar odatda jismoniy faoliyatga mos kelishi uchun ishlanadi, lekin ularning modasi ham zamonaviy tendensiyalar bilan moslashgan. Bu kiyimlar erkin harakat qilishga, terning yaxshi chiqishi, tananing nafas olishiga va qulay bo‘lishga imkon beradi [4].

Sport uslubidagi kiyimlar bir nechta elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ular turli faoliyat turlariga moslashgan (2-rasm), jumladan:

a) sport futbolkalari – o‘smirlar orasida keng tarqalgan kiyim turlaridan biridir. Ular ko‘pincha yoshlarga mo‘ljallangan o‘ziga xos ranglarda va logotiplarda bo‘ladi. Sport futbolkalari ko‘pincha shortlar yoki jinslar bilan birga kiyoriladi. Ular juda qulay va sport bilan shug‘ullanishda erkin harakat qilishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

b) trenchiklar yoki sport kurtkalari – sport kiyimlari orasida eng ommaviy tanlovlardan biridir. Bu kiyimlar terning qattiq chiqishini va erkin harakat qilishni ta’minlaydi. Trenchiklar, odatda, yoshlar uchun qulay va shikastsiz bo‘lib, har doim eng zamonaviy modalari bilan ishlangan bo‘ladi.

v) sport shortlari va jinslar ko‘pincha oddiy va shikastsiz dizaynga ega. Sport shorti erkin harakat qilish uchun maxsus ishlangan bo‘lib, insonga qulaylik va havo olish imkoniyatini beradi. Shortlar ko‘pincha futbolka yoki trenchik bilan birga kiyoriladi.

g) krossovkalar – sport kiyimlari oramasida maxsus mavjud bo‘lgan ahamiyatga ega. Ular yoshlarga harakatda bo‘lish va sport bilan shug‘ullanishda qulaylikni ta’minlaydi. Krossovkalarning dizayni keng turlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning shakli va texnikasi turli faoliyat turlariga moslashgan.

d) sport bosh kiyimlari, masalan, beysbol qalpoqlari, sport modasining muhim elementlaridan biridir. Bular nafaqat qulaylik uchun, balki yoshlarning shaxsiy uslubini ham shakllantiradi. Bularda ko‘pincha tanlovga bo‘lgan har bir insonning istaklari va modalarga bo‘lgan munosabati ko‘rinadi.

e) haroratli mavsumlarda yoki sport zallaridagi qiziqishlar uchun sport paltolari va jiletlar mo‘ljallangan. Bu kiyimlar yoshlarga nafaqat jismoniy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham qulay bo‘ladi. Sport paltosining ishlanishi erkin harakat va terning chiqishi uchun mo‘ljallangan.



2-rasm. Sport uslubidagi kiyimlarning turlari

Sport kiyimlari o‘smirlar uchun faqat qulaylik va funksionallikni ta’minlamasdan, ularning shaxsiy stillari, modalari va kundalik hayotini ham ifodalaydi. Bu kiyimlar yoshlar uchun tashqi ko‘rinishda shakl va izlanishlarning to‘la aniq bir ko‘rinishiga yordam beradi. Sport kiyimlari nafaqat sport bilan shug‘ullanishda, balki ijtimoiy muhitda ham o‘z shaxsiyatlarini ifodalash imkonini beradi [5].

ISSN 3030-3907

Natija. Misol uchun, sport futbolkalarining dizaynerlik va ranglaridan foydalanish yoshlarga modalikni ham sezdirishi mumkin. Krossovkalar esa yoshlar uchun erkin harakat qilish bilan birga, modalarga moslashgan va ularga yangi tendensiyalarni o‘z shevada qabul qilishga yordam beradi.

Sport usuldagi kiyimlar soni va modasi kundan-kunga o‘sib bormoqda. Sportni ko‘p yoshlar hayotlariga olib kirib, kiyimlarning unga moslashgan turlari bilan birga, ko‘pincha “sport-lyuks” uslubga ham e’tibor qaratishmoqda. Bu tendensiyada sport kiyimlari nafaqat jismoniy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham modali ko‘rinishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ham sport kiyimlari o‘smirlar orasida ommalashgan. Xususan, futbol, basketbol va yug‘uruvchilar uchun mo‘ljallangan kiyimlar keng tarqalgan. Jamoalarning uniformalari yoki brendlar bilan ishlangan sport kiyimlari yoshlar orasida modalik va status belgisi sifatida qabul qilinadi.

Sport usuldagi kiyimlar o‘smirlar uchun nafaqat faol hayot tarziga mos keladi, balki ularning shaxsiyatlarini, ijtimoiy maqomini va modaga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi. Bular yoshlarga qulaylik, erkinlik va jismoniy faoliyat uchun qulay sharoit yaratadi, shuningdek, har bir insonning shaxsiy stillari va modalariga moslashishga yordam beradi. Sport kiyimlari kundalik hayotda va sport bilan shug‘ullanishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [6].

3. Romantik uslub – modaning bir yo‘nalishi bo‘lib, u hayajon, his-tuyg‘ular va estetikani ilgari surishga qaratilgan. Bu uslubning asosida ishlab chiqarilgan kiyimlar yoshlarga yoritish, animalizm va elegantlikni birlashtiradi. Romantik kiyimlar jarayonga oshiqlik va sevgining mukammal ko‘rinishini shakllantiradi. Romantik uslubning asosiy belgisi – yorqin, nafis va taqdim etishda ham tuyg‘ularni shakllantiradi.

Romantik kiyimlar – nafislik, joziba va elegantlikning ramzi bo‘lib, ularning asosiy xususiyatlari yorqin va jenseni ko‘rsatishga intilgan modalarda bo‘ladi. Bu kiyimlar, odatda, mayda detallar, flot va animalistik elementlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ushbu uslubdagi kiyimlar yoshlarga na tolko modalik, balki jozibadorlik va hayajonni ham torttiradi.

Romantik kiyimlar janridagi asosiy elementlar kiyimga o‘zgacha joziba taqdim etish, yashirin va qisqa belgilar, gul va chiroyli detallardan iborat bo‘lgan hamma bezak elementlari va detallari bo‘lishi mumkin.

Xulosa. O‘smirlik yoshi har bir inson hayotidagi muhim va shakllanish davrlaridan biridir. Bu davrda yoshlar nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham katta o‘zgarishlarga uchraydilar. Kiyim tanlashda ularning shaxsiy va ijtimoiy munosabatlari, modaga bo‘lgan qiziqishlari va turli omillar mavjud. Kuzatishlar va tahlillar asosida aytish mumkinki, aksariyat yoshlar sport va klassik

ISSN 3030-3907

uslubdagi kiyimlarni ko‘proq xarid qilishadi va ularda qulaylik, ishonchlilikni his qilishadi. Klassik uslubdagi kiyimlar – o‘smirlar orasida ba’zi birlariga oddiy va benazir ko‘rinadi, lekin ularning shaxsiyatlari va ijtimoiy statuslarini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Demak, o‘smirlar kiyimi har bir yoshning shaxsiy taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Kiyim tanlashda ularning shaxsiy istaklari, modaga bo‘lgan munosabati, ijtimoiy vaziyat va globalizatsiyaning ta’siri muhim ahamiyatga ega. O‘smirlar kiyimining turli klassifikatsiyalari ularning psixologiyasi, modalari va hayot yo‘llariga bo‘lgan qiziqishlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ismoilova G. O‘smirlar kiyimlari va ularning ijtimoiy roli. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2019. – 152 b.

2. Aminova Z. Moda va yoshlar: Psixologik yondashuvlar. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti, 2018. – 87-89 b.

3. Akbarov S. O‘smirlar shaxsiyatini shakllantirishda kiyimlarning roli. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020. 152-154 b.

4. Johnson, M. Adolescent fashion and identity: A psychological perspective. New York: Routledge, 2017. – P. 67-68.

5. Brown, P. & Smith, L. Youth clothing and social groups: A sociological approach. London: Sage Publications, 2016. – P. 48.

6. Ковалев А. Мода и одевание предпочтения подростков. Москва: Академия. 2015. – С. 128-129.

7. Kozlova, I. (2021). The impact of fashion trends on adolescent self-expression. Journal of Youth Studies, 14(2), 58-74.

8. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.

9. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.

10. Тошева, Н. М., Тухтаева, З. Ш., & Атамурадова, Г. О. (2014). Значение самостоятельного образования при формировании творческой деятельности. Молодой ученый, (8), 878-879.

11. Sharifovna, T. Z. (2019). Organizational-methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

ISSN 3030-3907

12. Тухтаева, З. Ш., Хакимова, Г. Х., & Курбанова, И. И. (2017). Особенности детской одежды и выбор материалов. Молодой ученый, (14), 144-145.

ISSN 3030-3907

ПРИМЕР ПРИМЕНЕНИЯ 3Д МОДЕЛИРОВАНИЯ В СРЕДЕ AVTOCAD ПРИ ИЗУЧЕНИЯ КУРСА “ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА”

Азимов А.Т.

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Арипова К.А.

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Аннотация. В данной статье представлены возможности примения 3Д технологий моделирования привыполнении графических работ по курсу. Инженерная и компьютерная графических работ по курсу. Инженерная компьютерная графика. “Представлена примеры заданий выполниемых с использованием проектирование в среде AvtoCAD”.

Ключевые слова: Инженерная графика, компьютерная графика, автоматизированное проектирования, проектирование изделий, двухмерное пространства, трехмерное простанство, трехмерное модель, сборочный чертеж, изображение сборочной единицы, чертеж общего вида, AvtoCAD, 3Д моделирование, графический пакет.

Аннотация. Ушбу мақола “Мухандислик ва компютер графикаси” курсида график ишларни бажаришда 3Д моделлаш технологияларидан фойдаланиш имкониятлари келтирилган. AvtoCAD мухитида лойихалаш ёрдамида бажариладиган вазифаларга мисоллар келтирилган.

Калитли сўзлар. Мухандислик графикаси,компютер графикаси, автоматлаштириш лойихалаш, махсулотларни лойихалаш, икки ўлчовли фазо, уч ўлчовли фазо, уч ўлчовли модел, йиғиш чизмаси, AvtoCAD, 3Д-моделлаш, график тўплам.

Abstract: This article presents the possibilities of using 3D modeling technologies when performing graphic work in the course “Engineering and Computer Graphics”. Examples of tasks performed using design in the AutoCAD environment are given.

Keywords: Engineering graphics, computer graphics, automation design, product design, two-dimensional space, three-dimensional space, three-dimensional model, assembly drawing, AutoCAD, 3D modeling, graphics collection.

Введение

Среде множества известник в мире систем автоматизированного проектирвания на территории наиболее развитах стран наибольшее распространение продукты Avtodesk (AutoCAD), Siemens(MX), SolidWorks, Ackon(Компас).

ISSN 3030-3907

С появлением современных систем автоматизированного проектирования (САПР) изменился и подход к проектированию изделий.

Традиционно инженер работал в двухмерном простанстве (3Д) и вынужден был воплащатьевом идем в плоских чертежь сейчас у него повявилось возможность создать в реальном трехмерном пространсмве(3Д). Конструирование изделий идет не от 2Д-чертежа к 3Д модели изделия в обратном направления-от пространственной модели к автоматически сгенерированным чертежам.

Напрашивается вывод, следует особое внимание уделить вопросу обучения студентов 3Д моделированию, так как трехмерная модель стоновится главным носителем информatsiи о геометрии изделия. Переход на проектировпние и использованием 3Д моделирования позволяет качественно улучщить уровена поготовки специалиста.

В качестве примера использования 3Д моделирования в среде AutoCAD приводится графическая работа “Сборочный чертеж”.

Сборочный чертежам (Сб) в соответчик с ГОСТ 2.102-96 называется документ, содержащий изображение. Сборочной единицы и другие данные, необходимые для ее сборки и контроля.

Графическая работа «Сборочный чертеж» выполняется студентами при изучение цикла “Инженерная графика”. Традиционно, в качестве, исходного задания служит чертеж общего вида (ОВ) изделия на основа которого разрабатываем сборочный чертеж (СВ) и составляется спецификatsiя. При таком подходе студенты, зачастую механически перечерчивают задание, особо не вникая в конструкцию изделия.

В курсе “компьютерная графика” графическую работу “сборный чертежи” было предложено выполнить, используя инструменты 3Д-моделирования. К моменту выполнения этого задания студенты уже имеют навыки работы с графическом пакетом AutoCAD.

Задания для графический работы подобраны индивидуально и так. Что в каждом варианте предлагается применить какое-то команды, освоенные самостоятельно.

Сборка состоит из четырех-пяти оригинальных деталей-корпуса, опор, втулка, вала и т.д.

Работа делится на два этапа:

Первом этапе создается ЭБ модели деталей, входящих в изделие.

Втором этапе создаётся ЭБ модели сборочной единицы.

В первом этапе работы студенту приходится использовать не только базовые приемы компьютерной графики, создавать ЭБ-модели детали, но и

ISSN 3030-3907

обращаться к справочным материалом. Например, оригинальная деталь может состоять из таких элементов, как фаска поз, проточка и т.д., формы и размеры, которых стандартизованы. Создал ЭБ модели, студенты глубже вникают в конструкцию детали.

На втором этапе используя команды “Копирование”, “Перемещение”, “Вставка” производитель вставка отдельные деталей на ту деталь (корпус), и которой наиболее patsionально присоединять другие детали аналогично процессу реальной сборки.

При работе над заданием студентом рекомендуется воспользоваться панелью инструментов “Слой” детали выполняются в отдельных слоях, чтобы в процессе работы или можно было удобнее оперировать. Каждому слою присваивается имя, например “Корпус”.

Панель инструментов “Слой”, имеет возможность замораживания (выклюнения) когда, ряд второстепенных в данный момент объектив (в нешейслучае деталей) можно, не удаляя, сделать невидимыми, что позволяет успешнее работать с основными объектами.

Следует отметить важность использования компьютерное графики с позиции мотиватsii с студентов. Они с удовольствием выполняют мотиватsii студентов. Они с удовольствием выполняют упражнения, и решать задачи с помощью графических пакетов и с легкостью обретают навыки работы в этих системах.

Выводы. Полученные знания и приобретенные практические навыки работы с пакетом AutoCAD, предоставят возможность студентом в дальнейшем вырасти в технически громадных специалистов, которые будет способы применять современные CAD технологии на всех этапах проектирования, изготовления и контроля качество изделий современной промышленности.

Литература

1. В.Л. Большаков 3Д моделирование в AutoCAD, КОМПОС-3Д, Solid Works. Учебный курс. Летер.2011-336с.

2. D. Sabirova, M. Inoyatov, Kamola Aripova, and Dildora Alimova . Algorithms and 3D visualization tools to bring geometric data to life, facilitating immersive experiences and interactive storytelling. E3S Web of Conferences 548, 03011 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202454803011 AGRITECH-X 2024.

3. Smart technologies is revolutionizing agriculture and paving the way for a more sustainable food system. N. Tairova, K. Aripova, D. Rahimboeva, K. Umarov. Agriculture and Food I-CRAFT. Agricultural and Food Technologies

ISSN 3030-3907

Collection. 2024 September 11 & 13 Tashkent, UZBEKISTAN http://www.icraft-conference.com/

ISSN 3030-3907

KATIONIT KB-4 YORDAMIDA ARALASHMALARDAN LIZINNI AJRATISH

Tursunova G.X.
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD
Xudoyberdiyeva L.
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistri
Ibragimova N.H.
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Kuchsiz kislotali kationit KB-4 ning aralash H^+- Na^+ shaklida ion almashinish xromatografiyasining qarshi oqimli usuli yordamida “kultural suyuqlik”lar tarkibidan lizinni ajratib olish texnologiyasi keltirilgan. Lizinni ajratib olishning maqbul sharoiti aniqlangan. Shuningdek, taklif etilgan usul ekologik muammolarni hal qilish imkonini berishi va ishlatilgan kationitni qayta tiklash uchun reagentlar sarfini kamaytirishi ko‘rsatilgan.

Kalit so'zlar: Ion almashinish xromatografiyasi, kationit, lizin, kultural suyuqlik, sorbsiya, ekstraksiya.

Аннотация. Представлена технология выделения лизина из «культуральных жидкостей» с использованием противоточного метода ионообменной хроматографии в смешанной H^+-Na^+ форме слабокислотного катионита КБ-4. Определены оптимальные условия извлечения лизина. Также показано, что предлагаемый метод позволяет решить экологические проблемы и сократить расход реагентов на восстановление отработанных катионитов.

Ключевые слова: ионообменная хроматография, катионообменная смола, лизин, культуральная жидкость, сорбция, экстракция.

Abstract. The technology of lysine extraction from the composition of “culture fluids” using the countercurrent method of ion exchange chromatography of weakly acidic cationite KB-4 in the mixed H^+- Na^+ form is presented. The optimal conditions for lysine extraction are determined. It is also shown that the proposed method allows solving environmental problems and reducing the consumption of reagents for the recovery of the used cationite.

Keywords: Ion exchange chromatography, cationite, lysine, culture fluid, sorption, extraction.

Kirish.

Bugungi kunda tibbiyotda [1-3], shuningdek, oziq-ovqat sanoatida aminokislotalar [4,5] keng qo‘llanilmoqda. Sanoatda ko'pchilik aminokislotalar mikrobiologik sintez jarayoni orqali olinadi. Ushbu usul bilan olinadigan aminokislotalar erigan holatda bo'lib, bunday eritma sanoatda “kultural suyuqlik” deb ataladi [6]. Bunday eritmalarda sezilarli miqdorda noorganik va organik

ISSN 3030-3907

aralashmalar (aminokislotalar) mavjud. Shunday aminokislotalardan biri lizindir (2,6-diaminogeksan kislota). Lizinda 2 ta amino va 1 ta karboksil guruhining mavjudligi uing eritmada to‘rt xil holatda bo‘lishini bildiradi [7].

Sanoatda mikrobiologik sintez jarayonida eritmaning pH qiymatini bir xil holatda saqlash qiyinligi sababli, lizinning ancha qismi texnologik eritma sifatida yo‘qoladi, Bu esa texnologlar oldidagi muammo hisoblanadi, shuning uchun lizin chiqindilardan ion almashinish xromatografiyasi yordamida ajratiladi. Bu usulda lizinni olish uchta bosqichdan iborat: lizinni kultural suyuqlik tarkibidan kationit yordamida sorbsiyalash, ionitni kultural suyuqlikdan yuvish va mahsulot eritmasidan lizinni desorbsiyalash. Ko‘pchilik izlanishlarda [8] neytral muhitda (pH=7) NH_4^+ shaklida bo‘lgan kationit KU-2joylashgan kolonkadan muvozanat hosil bo'lguncha kultural suyuqlik o'tkaziladi. Jarayon davomida har 1 kg ionitga 60-80 g lizin sorbsiyalanadi. Jarayonning 2-bosqichida kationit suv bilan yuviladi, 3-bosqichda lizin 0,5-5,0% NH_4OH eritmasi bilan desorbsiyalanadi. Natijada 80-90% gacha lizin desorbsiyalanadi. . Mualliflar [9] kultural suyuqlikdan lizinni ajratib olish usulini taklif qildilar, uning mohiyati suyuqlikni sulfat kislota bilan pH 1,6-1,9 gacha kislotalashdan iborat bo‘lib, so‘ngra sovutilgan suyuqlik ammoniy ko‘rinishidagi KU-2-8 kationit bilan ion almashinish kolonkasidan o‘tkaziladi va kationit 4,5% NH_4OH eritmasi bilan desorbsiyalanadi. Bu usullarning asosiy kamchiliklari: birinchidan, kationitlarni kultural suyuqlikdan yuvish uchun ko‘p miqdorda suvning sarflanishidir, ikkinchidan, lizinning desorbsiyasi ammiakning kuchli suvli eritmasi yordamida amalga oshiriladi, bu binolarning gaz bilan ifloslanishi, shuningdek, mahsulot eritmasidan ortiqcha ammiakni olib tashlash va suvni yuvish kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun mazkur ishda kultural suyuqliklar tarkibidan lizinni ajratib olishning yangi uslubi ishlab chiqilgan.

Tajribaviy qism. Barcha tajribalar kuchsiz kislotali kationit KB-4 da olib borildi. Kationit KB-4 gel shaklida bo’lib, granulalari o’lchami 0,45-1,35 mm.ni tashkil etdi Tajribalar konussimon tuzilishli kolonkada olib borildi. Aralashma tarkibidagi lizin miqdori spektrofotometrik usulda, vodorod va gidroksil ionlari kontsentratsiyalari potentsiometrik titrlash, natriy ionlari alanga fotometriya usullarda aniqlandi. Tajribalarning boshlang’ich qismida kationitning Na^+ va H^+ ko’rinishlari uchun dinamik usulda almashinish sig’imlari aniqlandi va uning solishtirma kattaliklari hisoblandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Kationit KB-4 ning solishtirma kattaliklari


Ion ko’rinishi	$E/m_{AR,}$ mg-ekv/g	$E/V_{AR,}$ mg-ekv/g	P_i, g/ml

ISSN 3030-3907


H^+	9,141	12,640	1,383
Na^+	7,611	16,667	2,190

Bu erda: V_{AR} –A qarshi ionga ega bo'lgan ionit matritsasi hajmi, ml; m_{AR} – A qarshi ionga ega bo'lgan ionit matritsasi massasi g; ρi, - quritilgan ionit zichligi, g/ml.

Kationit KB-4 elementar zvenosining tuzilishi quyidagicha:



Olingan natijalar tahlili. Kationit KB-4 ning solishtirma kattaliklari aniqlangandan so'ng ion almashinish kolonkasi aralash Na^+- H^+ ko'rinishidagi kationit KB-4 bilan to'ldirildi va kolonka orqali V=5ml/min tezlik bilan lizinning 40g/l kontsentratsiyali eritmasi o'tkazildi. Eritmaning pH ko'rsatkichi 3,5 ga keltirildi. Kolonka balandligi bo'yicha joylashgan jo'mraklardan namunalar olinib, Na^+, H^+, OH^- va Lys ionlari bo'yicha analiz qilindi. Kolonkada muvozanat qaror topgandan so'ng, sorbtsiyalangan lizin 20% li NaOH eritmasi bilan desorbsiyalandi. Kolonkadan ajralib chiqayotgan filtrat ionlar bo'yicha analiz qilindi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



Rasm-1. NaOH eritmasi bilan lizinni desorbtsiya jarayonida ajralib chiqayotgan eritmada ionlar kontsentratsiyasining taqsimlanishi.

Oqib tushayotgan filtrat tarkibida kolonkaning erkin hajmiga teng hajmda suv, keyin toza holdagi lizin ajralib chiqdi. Ajralib chiqayotgan lizin svitter-ion shaklida bo'lib, izoelektrik nuqta holatida va uning kontsentratsiyasi 35 % ga,

ISSN 3030-3907

eritmaning pH ko’rsatkichi esa 9,8 ga teng bo’ldi. Bunda lizin to’la desorbsiyalandi. Olingan lizinning eritmasi tarkibidagi aralashmalar miqdori 0,05g/l ni tashkil etdi.

Ma’lumki, kationit KB-4 matritsasi organik birikmalarni deyarli sorbtsiyalamaydi, bu esa kationitni yuvish jarayonida suvni kam sarflanishiga olib keladi. Shuning uchun mazkur usulda lizinni desorbsiyasi jarayonida ajralib chiqayotgan suv kationitni aralashmadan yuvish jarayoniga etarli bo’ldi. Bu esa lizinni anorganik aralashmalardan ajratib olish texnologiyasini osonlashtirdi, suvni sarflashni va chiqindilarni hosil bo’lishini kamaytirdi. Jarayon davomida kolonkaga lizin eritmasi yuborilgandan so’ng, kationit orqali natriy gidroksidning kontsentrlangan eritmasi o’tkazilib, lizin desorbsiyalanadi. Bunday ishlov berilgandan so’ng kationit natriy-lizin-vodorod ko’rinishidagi aralash holatga keladi. Natriy gidroksid eritmasi bilan ta’sirlashganda kolonka ichida quyidagi reaktsiyalar sodir bo’ladi:

$$R^-Lys^+ + NaOH = RNa + Lys \quad (1)$$


$$R^-H^+ + NaOH = RNa + H_2O \quad (2)$$

$$R^-H^+ + Lys = R^-Lys^+ \quad (3)$$

Bu erda R- polimer matritsasi.

Bu reaksiyalar natijasida natriy gidroksid eritmasining to’liq demineralizatsiyalanishi sodir bo’ladi. Reaktsiyalar natijasida hosil bo’layotgan suv kolonka bo’ylab desorbilanayotgan lizin sohasidan oldinda bo’ladi va o’z oqimida kationitni aralashmadan tozalab boradi. Bu jarayon esa kolonkada hosil bo’layotgan lizin soxasini barqaror bo’lishiga olib keladi, chunki reaksiya asosida kationitdan desorbsiyalanayotgan lizin qayta zaryadlanib, kationitning vodorod ko’rinishi orqali 3-reaksiya asosida yana sorbtsiyalanadi. Bu hodisa kolonka bo’ylab suvning va lizinning turli tezlikda harakatlanishiga olib keladi. Natijada kationitning yuvish bosqichining sifatli o’tishini va desorbsiyalanish sohasida lizin kontsentratsiyasining oshishiga imkon yaratadi. Bu esa lizinning to’yingan eritmasini mahsulot sifatida olishga keltiradi. Keltirilgan har uchala reaktsiyalarda muvozanat o’ng tomonga siljigan bo’ladi. Shuning uchun kolonka bo’ylab ion almashinish jarayonlarida statsionar sohalar hosil bo’ladi. Olingan natija 2-rasmda keltirilgan. Statsionar soha hosil qilish bilan boradigan ion almashinish jarayonlarini qarshi oqimli uskunalarda olib borish qo’zg’almas qatlamli usulga nisbatan afzalliklarga ega. Lizinni anorganik moddalar bo’lgan aralashmalardan ajratib olishda qarshi oqimli uskunalardan foydalanish oqava suvlarning hosil bo’lishini to’liq oldini oladi. Bunday jarayonda kolonkaning yuqori qismidan suv bilan bir necha marta suyultirilgan lizin aralashmasi ajratib olinadi va bu eritma yana lizinni sorbsiyalanish jarayoniga yuboriladi.

ISSN 3030-3907



Rasm-2. Kationit KB-4 ning aralash natriy-lizin-vodorod ko'rinishidan natriy gidroksid eritmasi bilan lizinni desorbtsiyalanish jarayonining chiqish egri chiziqlari.

Kolonkaning pastki qismidan natriy ko'rinishidagi kationit ajralib chiqadi va bu kationit yana sorbsiya bosqichiga yuboriladi. Kolonkaning o'rta qismidan tozalangan lizin eritmasi ajratib olinib, bug'latish uskunasiga yuboriladi. 3-rasmda qarshi oqimli uskunada lizinni ajratib olish jarayoni ko'rsatilgan. Olingan natijalardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin: aralash natriy-vodorod ko'rinishida eritmaning pH ko'rsatkichi 3.5 bo'lganda, kationit KB-4 yordamida anorganik moddalar tutgan aminokislotalar aralashmasi tarkibidan lizinni to'liq ajratish mumkinligi aniqlandi. Bunda olingan eritma tarkibidagi lizin kontsentratsiyasi 16-18 marta oshdi va kationit lizin bo'yicha maksimal solishtirma sig'imga ega bo'ldi. Shuningdek, kationit KB-4 matritsasiga organik birikmalar deyarli sorbtsiyalanmaydi, bu esa kationitni yuvish bosqichida suvni kam sarflanishiga olib keldi. Undan tashqari lizinni desorbsiyasi jarayonida ajralib chiqayotgan suv kationitni aralashmadan yuvish jarayoniga etarli bo'ldi. Bu esa lizinni aralashmadan ajratib olish texnologiyasini osonlashtirdi, suvni sarflashni va chiqindilarni hosil bo'lishini kamaytirdi.

Qarshi oqimli jarayondan foydalanib, kationit KB-4 ning aralash Na^+- H^+ ko'rinishida lizinni KS tarkibidan ajratib olishning maqbul sharoitini aniqlash uchun kolonkaga yuborilayotgan KS eritmasining pH-ko'rsatkichi, lizinni desorbilanish bosqichida ishqor eritmasining kontsentratsiyasi, ionitning aralash ion ko'rinishida Na^+ va H^+ ionlarining o'zaro nisbati kabi parametrlarga bog'liqligini o'rganishga doir tajribalar o'tkazildi [24]. Olingan natijalar 2-4-jadvallarda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

2-Jadval

Lizinni KS tarkibidan ajratib olish jarayoniga eritmaning rN ko'rsatkichining ta'siri

Tajriba	Ion ko'rinish	pH	NaOH kons.%	Desorb Lys, %	Lys, 100 g Ionitga nisbatan
1	Na^+ - H^+ (4:1 nisbat)	3.0	20	32	11
2	Na^+ - H^+ (4:1 nisbat)	4.0	20	33	12
3	Na^+ - H^+ (4:1nisbat)	3.5	20	35	13

3-jadval

Ionitning turli aralash ion ko'rinishining KS tarkibidan lizinni ajratib olish jarayoniga bog'liqligi

Tajriba	Ion ko'rinish	pH	NaOH kons. %	Desorb. Lys, %	Lys, 100 g ionitga nisbatan
1	Na^+-H^+ (1:1nisbat)	3.5	20	29	10
2	Na^+ - H^+ (2:1nisbat)	3.5	20	31	11
3	Na^+ - H^+ (4:1nisbat)	3.5	20	35	13

4-jadval

Lizinni KS tarkibidan ajratib olish jarayoniga NaOH eritmasi kontsentratsiyasining ta'siri

Tajriba	Ion ko'rinish	pH	NaOH kons. %	Desorb. Lys, %	Lys, 100 g ionitga nisbatan
1	Na^+-H^+ (1:1nisbat)	3.5	16	32	12
2	Na^+ - H^+ (2:1 nisbat)	3.5	14	30	11
3	Na^+ - H^+ (4:1 nisbat)	3.5	20	35	13

Xulosa. Olingan natijalardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin: aralash natriy-vodorod (4-1 nisbatda) ko'rinishida eritmaning pH ko'rsatkichi 3.5 bo'lganda va NaOH kontsentratsiyasi 20 % bo'lganda, kationit KB-4 yordamida KS tarkibidan lizinni to'liq ajratish uchun maqbul sharoitlar mavjud ekanligi aniqlangan. Bunda, olingan eritma tarkibida lizin kontsentratsiyasi 18-20 marta oshgan va kationit lizin bo'yicha maksimal solishtirma sig'imga ega bo'lgan. Shuningdek, kationit KB-4 matritsasi organik birikmalarni deyarli sorbilamaydi,

ISSN 3030-3907

bu esa ionitni yuvish jarayonida suv sarfini kamaytiradi. Lizinni desorbsiyasi jarayonida ajralib chiqayotgan suv, ionitni kultural suyuqlikdan yuvish uchun etarli bo'lgan. Bu esa lizinni KSdan ajratib olish texnologiyasini soddalashtirib, suv sarfini va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, kerakli uskunalar sonini ikki baravarga, oqava suv miqdorini esa 7-9 baravarga kamaytirish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Жеребцов Н.А., Попова Т.Н., Артюхов В.Г. Биохимия. – Воронеж: Изд-во Воронежского госуниверситета, 2002.– 96 с.

2. Poboży E., Czarkowska W., Trojanowicz M. Determination of amino acids in saliva using capillary electrophoresis with fluorimetric detection // J. Biochem. And Biophys. Meth. – 2006. – V. 67. – P. 37-47.

3. Introduction to HPLC, Shimadzu LC World Talk Special Issue Volume1, Japane, 2008. – P. 2-27.

4. Нечаев А.П., Кочеткова А.А., Зайцев А.Н. Пищевые добавки. – М.:Колос, 2002. – 132 с.

5. Фаустов А.С. и др. Лизин-одна из самых незаменимых аминокислот в обеспечении полноценного питания. – Воронеж: ВГУ, 2003. – 88 с.

- bazalt tolalari shisha tolalardan mustaxkam bo‘lgan va uglerod tolalariga teng bo‘lgan ko‘plab xususiyatlarga ega;
- bazalt tolalarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo bazasi mavjud va amalda cheklanmagan;
- so‘nggi yillarda texnologik yutuqlar uzluksiz bazalt tolasi ishlab chiqarish tannarxini shisha tolalar ishlab chiqarish darajasiga sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Bazalt tolali iplarni paxta tolali iplar bilan qo‘shib yigirish imkoniyati ham mavjud. Ushbu holatda yuqori va past modulli farqli tolalarning gibrid ip olishda halqali yigiruv muammosini hal qilish uchun kompozit yigirish usuli joriy etiladi. Bu deformatsiyalangan konsentrik bo‘lmagan spiral strukturasini olish uchun

ISSN 3030-3907

tolalar tartibini ikki marta eshish orqali qayta tartibga solish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, bazalt tolasining fizik-mexanik xususiyatlari bazaltning kimyoviy tarkibi bilan bog‘liq shuning uchun alohida sinovlar o‘tkaziladi.

Bu iplar asosida to‘qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish xozirgi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Bazalt iplari uzluksiz bazalt filamentlardan tashkil topgan, bu filamentlarni o‘zaro yopishtirish, ip holatiga keltirish uchun turli xil kimyoviy elimlar qo‘llaniladi. Vaqt o‘tishi bilan va iplarni to‘quvchilikka tayyorlashdagi texnologik jarayonlardagi turli mexanik o‘timlar natijasida ipdagi elim moddalari o‘z xususiyatini yo‘qotadi. Natijada iplarning filamentlari bir-biridan ajralishiga olib keladi. Bunday iplardan to‘qima olish jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Bazalt tolali iplardan to‘qima ishlab chiqarishda foydalanish uchun uning fizik-mexanik xususiyatlarni aniqlaymiz. Uzluksiz tolaning mustahkamligi po‘latnikidan 2 baravar ko‘proq [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bazalt tolali iplar g‘altakda g‘altakka slindr shaklida o‘raladi. G‘altakdagi to‘plam (monofilament) diametri 15 mikron bo‘lgan chiziqli zichligiga qarab 250 tadan 4000 tagacha bo‘lgan tolalardan iborat (1-rasm).



1-rasm. Uzluksiz bazalt iplari.

Bazalt iplari turli kimyoviy moddalarning birikmalaridan iborat bo‘lib, uning kimyoviy tarkibi: SiO_2-52,8%; TiO_2-0,5%; Al_2O_3-17,2%; Fe_2O_3-8,9%; MgO-6,3%; CaO-7,1%; Na_2O-2,2%; K_2O-1,6%.

Tadqiqotlarimiz davomida olovbardosh to‘qimalarni mahalliy bazalt iplaridan ishlab chiqarishimiz uchun unung fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganamiz.

Turli chiziqli zichlikdagi (1-jadval) 200 mm uzunlikdagi bazalt tolali ipning mustahkamligini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazildi. Tajribalar diametri 20 mikrondan 1 mikrongacha bo‘lgan tolalarni sinab ko‘rish imkonini beruvchi

ISSN 3030-3907

TTYSI “To‘qimachilik materialshunosligi” kafedrasids mavjud WDW-5E uskunasi maxsus sinov qurilmalarida o‘tkazildi (2-rasm).



2-rasm. Bazalt iplarining nisbiy uzilish kuchini aniqlovchi WDW-5E uskunasi

Ipning uzilish kuchi (P_u) ip uzilishdan oldin cho‘zilganida bardosh bera oladigan eng katta kuchdir. Har xil chiziqli zichlikdagi iplarning uzilish kuchini solishtirish uchun nisbiy uzilish kuchi (P), ya’ni N/teks, bilan ifodalangan chiziqli zichlik birligidagi uzilish kuchi ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Uzilishdagi cho‘zilishi (absolyut) 1m— uzilish vaqtida cho‘zilgan ip uzunligining oshishi. mm bilan o‘lchanadi. Uzilishdagi nisbiy uzayishi (E_u) ipning dastlabki uzunligiga nisbatan foizda ifodalangan ipning uzilishdagi uzayishidir. Uzilish kuchining o‘rtacha arifmetik qiymatlari, uzilishdagi mutlaq va nisbiy cho‘zilish hisoblanadi. Uzilish kuchining ip uzunligi bo‘yicha taqsimlanish qonuni turli tasodifiy omillarning tabiatiga bog‘liqdir. Oddiy qonun ipning uzilish kuchining qiymatiga har birining ta’siri bir xil tartibda bo‘lgan ko‘p sonli mustaqil yoki zaif bog‘liq omillar ta’sir qilganda amalga oshiriladi. Oddiy taqsimot qonunining zichligi:

$$f_N(P) = \frac{1}{\sigma \cdot \sqrt{2\pi}} \cdot \exp\left[-\frac{(P-m)^2}{2\sigma^2}\right], \qquad (1)$$

bu erda m - uzilish kuchining matematik kutilishi, σ - standart og‘ish.

Logarifmik normal qonun, ipning uzilish kuchining kattaligiga etarlicha katta miqdordagi tasodifiy va mustaqil omillar ta’sir qilganda yuzaga keladi, ularning intensivligi erishilgan holatga bog‘liq (proportsional ta’sir modeli). Logarifmik normal taqsimot qonunining zichligi (ikki parametrli):

ISSN 3030-3907

$$f_L(P) = \frac{1}{P \cdot \sigma \cdot \sqrt{2\pi}} \cdot \exp\left[-\frac{(\ln(P) - \mu)^2}{2\sigma^2} \right], \quad (2)$$

Veybulla qonuni belgilanadigan ob'ektlarda namoyon bo'ladi, kamayishi maksimal og'ish bilan belgilanadi (zaif zveno modeli).

$$f_V(P) = \begin{cases} \frac{k}{\lambda} \cdot \left(\frac{P}{\lambda}\right)^{k-1} \cdot \exp\left[-\left(\frac{P}{\lambda}\right)^k \right], \text{bunda } P \geq 0 \\ 0 \text{ bunda } P < 0 \end{cases}, \quad (3)$$

Ushbu modellarning qaysi biri uzilish kuchini tasodifiy o'zgaruvchi sifatida adekvat tavsiflashini apriori baholash qiyin. Eksperimental tadqiqotlar natijalaridan foydalangan holda tarqatish qonunlarining muvofiqligini baholashni taklif qiladi.


NATIJA VA XULOSALAR

Uzilish kuchi ehtimollik zichligi (3) bilan normal taqsimot qonuniga bo'ysunadi [4-8]. Uzilish kuchi 1-formulada qabul qilinganidek, ehtimollik zichligi (4) bilan Veybulla Gnedenko taqsimot qonuniga bo'ysunadi. Tarqatish parametrlarini tenglamalar tizimidan topish mumkin:

$$\overline{P} = \int_0^\infty \mathrm{P} \cdot \mathrm{f_V}(P) dP, \quad (\overline{\sigma_P})^2 = \int_0^\infty (\mathrm{P} - \overline{\mathrm{P}})^2 \cdot \mathrm{f_V}(P) dP \quad (4)$$

Ushbu ifodani chiziqli echimidan quyidagilarni olamiz $k = 16{,}45;\ \lambda = 59{,}77.$

Puasson statistikasining hisoblangan qiymati $\chi^2 = 4{,}96 < \chi^2_{kr}$, tajribaviy ma'lumotlar



3-rasm Ipning uzilish kuchini eksperimental ma'lumotlarga ko'ra taqsimlanish zichligi: 1 - empirik, 2 - nazariy normal, 3-Veybulla nazariyasi.

Bazalt ipining uzilishi paytida maksimal nisbiy cho'zilish o'lchovlari orasida e'tibordan chetda qolishi aniqlandi. Ushbu nazariya asosida bazalt iplarini nisbiy uzilish kuchini aniqlashdagi ipga berilgan taranglik kuchi ip bo'yicha taqsilanishi Veybulla-Gnedenko nazariyasiga ko'ra aniqlandi.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Turli chiziqli zichlikdagi iplarning uzilish kuchi

Chiziqli zichligi, teks	Uzilish kuchi, N
80	57
150	103
300	212
600	408

Yuqorida tekshirilgan mahalliy bazalt iplarining chiziqli zichligi T=80 teks bo‘lgan iplardan ATPR to‘quv dastgohida to‘qima ishlab chiqarish imkoni mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining rasmiy veb sayti. https://president.uz/uz/ lists/view/5888
2. Yangiboyev R.M., Uzakov U.T., Otaxonov T.N. Bazalt iplarining mustaxkamligini aniqlash. “Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman. 1-qism. Termiz 2023-yil 20-21 Oktabr. 214-218 bet.
3. А. Г. Демешкин, А. А. Шваб. Экспериментальное исследование механических свойств непрерывного базальтового волокна применительно к производству композитных материалов // Вестн. Сам. гос. техн. ун-та. Сер.: Физ.-мат. науки. 2011. №3 (24)
4. Ахмедов Исфендияр Махмуд-Оглы, Наумов Владимир Аркадевич О законе распределения разрывной нагрузки нити // Вестник науки и образования Северо-Запада России. 2017. №3. УРЛ: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zakone-raspredeleniya-razryvnoy-nagruzki-niti
5. Баймуратов, Б. Х., Даминов, А. М., Янгибоев, Р. М., & Узаков, У. Т. (2021). Исследование натяжения нитей различного волокнистого состава в процессе перематывания. Текстильный журнал Узбекистана, 1, 54-61.
6. Yangiboyev, R. M., Safarov, N. Q., & Allaqulov, B. R. Research On The Air Permeability Of Filter Fabrics Used In Flour Manufacturing Enterprises. JournalNX, 10(11), 52-54.
7. Янгибоев Рузибой Мукумович, Аллакулов Бегенч Равшан Угли, Гулмирзаева Сохиба Мамадаминовна ИССЛЕДОВАНИЕ РАЗРЫВНОЙ НАГРУЗКИ ФИЛЬТРУЮЩЕЙ ТКАНИ // Universum: технические науки. 2024. №3 (120). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-razryvnoy-nagruzki-filtruyuschey-tkani
8. Nurali Safarov, Ruziboy Yangiboev, Hakim Bo‘riyev, Bakhtiyor Karshiev,

ISSN 3030-3907

Otabek Gulboyev, Fazliddin Narzullayev, Anvar Qurbonov; Study of the influence of main factors on the mass and density of saw fiber separator raw material. AIP Conf. Proc. 24 February 2025; 3268 (1): 020033. https://doi.org/10.1063/5.0257374

ISSN 3030-3907

QURILISH KONSTRUKSIYALARI HISOBIDA BIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Gulchehra Yuldashevna Qodirova
Andijon davlat texnika instituti "Qurilish muhandisligi" kafedrasi dotsenti
Ashuraliyev Ziyodullo Bahodirjon o'g'li
BIQ yo'nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya. Qurilish sohasida konstruktsiyalarning hisobini to'g'ri amalga oshirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon strukturalarning ishonchliligini, mustahkamligini va uzoq muddat davomida ishlashini ta'minlaydi. Qurilish konstruksiyalari hisobini o'tkazish—bu ob'yektning xavfsiz va samarali ishlashini kafolatlash uchun zarur bo'lgan muhandislik hisob-kitoblarining bajarilishidir. Ushbu maqolada, qurilish konstruktsiyalarining hisobini amalga oshirishning asosiy tamoyillari va usullari haqida so'z yuritiladi. BIM texnologiyalarining qurilish jarayonidagi o'rni va ahamiyati, uning afzalliklari va amaliy qo'llanilish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Statik, dinamik, poydevor, Empirik usul, plyonkasimon, kuchlanish, deformatsiya, seysmik hisob, AutoCAD, SAPR, BIM texnologiyalar.

Аннотация. В строительной отрасли важно правильно проводить расчет конструкций, так как этот процесс обеспечивает надежность, долговечность и долговечность конструкций. Ведение учета строительных конструкций-это выполнение инженерных расчетов, необходимых для обеспечения безопасной и эффективной эксплуатatsii объекта. В данной статье будут рассмотрены основные принципы и методы осуществления учета строительных конструкций. Рассмотрены роль и значение BIM-технологий в процессе строительства, их преимущества и способы практического применения.

Ключевые слова: статический, динамический, фундаментный, эмпирический метод, пленочный, деформatsionный, сейсмический расчет, AutoCAD, CAD, BIM технологии.

Annotation. In the construction industry, it is important to correctly carry out the accounting of structures, since this process ensures the reliability, strength and long-term operation of structures. Building construction accounting is the execution of engineering calculations necessary to guarantee the safe and efficient operation of an object. This article will talk about the basic principles and methods of implementing the accounting of construction structures. The role and importance of BIM technologies in the construction process, its advantages and methods of practical application are considered.

ISSN 3030-3907

Keywords: static, dynamic, foundation, empirical method, film, tension, deformation, seismic calculation, AutoCAD, CAD, BIM technologies.

Kirish. Qurilish konstruktsiyalari hisobining asosiy maqsadi—strukturaning yuklarga qarshi barqarorligini ta’minlashdir. Qurilish jarayonida turli xil materiallar va texnologiyalar qo‘llaniladi, bu esa konstruksiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Shuning uchun, qurilish konstruksiyalari hisobini amalga oshirishda quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

Yuklama turlari: Qurilishda asosiy yuklamalar statik va dinamik bo‘lishi mumkin. Statik yuklamalar oddiy, doimiy yuklamalar bo‘lib, binoning og‘irligi va boshqa doimiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Dinamik yuklamalar esa, masalan, shamol, er silkinishlari yoki transport vositalari tomonidan keltiriladigan vaqtinchalik ta’sirlardir.

Materiallar va usullar. Har bir qurilish materialining o‘ziga xos mexanik xususiyatlari mavjud, masalan, betonning mustahkamligi yoki po‘latning uzayish qobiliyati. Materiallar xususiyatlarini hisobga olish konstruksiyaning samaradorligini va xavfsizligini oshiradi.

Konstruktiv echimlar: Binolarda ishlatiladigan konstruktsiyalar, masalan, qoplama, poydevor yoki g‘ishtdan yasalgan devorlar, ularning shakli va o‘lchamlari ham hisobda inobatga olinadi. Qurilish konstruksiyalarini hisoblash uchun bir nechta usullar mavjud. Bu usullar turli xil metodologiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi va muhandislarga eng yaxshi echimni tanlashda yordam beradi.

Empirik usul: Bu usulda tajriba va kuzatishlar asosida qurilish konstruksiyalarining xususiyatlari hisoblanadi. Bunday usul ko‘proq oddiy va oddiy strukturalar uchun qo‘llaniladi.

Nazariy usul: Bu usulda matematika va fizika qonunlariga asoslanib, konstruksiyaning mustahkamligi va xavfsizligi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar va materiallar uchun nazariy usul ko‘proq qo‘llaniladi. Asosiy maqsad–strukturaning shakli, o‘lchamlari va materialining o‘zaro ta’sirini tahlil qilish.

Kompyuter modellari yordamida hisoblash: Hozirgi kunda qurilish sohasida kompyuter dasturlari yordamida konstruksiyalarni hisoblash keng qo‘llaniladi. Bu usul tez va samarali hisoblashlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Konstruksiyalarni hisoblash—bu inshootlarning xavfsizligi, mustahkamligi va chidamliligini ta’minlash uchun olib boriladigan muhim muhandislik jarayonidir. Hisob-kitoblar turli xil tabiiy va sun’iy yuklamalarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Qurilish konstruksiyasi—bu binolar va inshootlarning yuk ko‘taruvchi elementlari majmuasi bo‘lib, ularning asosiy vazifasi tashqi yuklamalarni qabul

ISSN 3030-3907

qilish va ularni poydevorga o‘tkazishdir. Qurilish konstruksiyalari quyidagi turlarga bo‘linadi: Rangli konstruksiyalar–metall yoki temir-beton ustunlar, tirgaklar, ramkalar. Plyonkasimon konstruksiyalar–elastik materiallardan yasalgan engil konstruksiyalar. Qattiq konstruksiyalar–g‘isht, beton yoki tabiiy toshdan yasalgan konstruksiyalar.

Qurilish konstruksiyalari hisoblash usullari

Hisob-kitoblar binoning turiga, yuklamalariga va foydalanish sharoitlariga bog‘liq holda turlicha olib boriladi. Muhim hisoblash usullari quyidagilardir:

1.Statik hisob.Bu hisob qurilish elementlariga ta’sir qiluvchi kuchlarni aniqlash va ularning muvozanat holatini tekshirishga qaratilgan. U quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: ichki kuchlarni aniqlash, kuchlanish va deformatsiyalarni hisoblash, o‘lchamlarni aniqlash.

Misol: Temir-beton balkalar qanday yuklamaga bardosh bera olishini aniqlash uchun statik hisob amalga oshiriladi.

2.Kuchlanish va deformatsiya hisobi. Bu hisob qurilish konstruksiyalarining egilish, cho‘zilish, bosim yoki kesishga ta’sirchanligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Qurilish konstruksiyalarida quyidagi turdagi kuchlanishlar yuzaga keladi:

•Tortish kuchlanishi – element uzunligi ortadi

•Siqilish kuchlanishi – element uzunligi kamayadi

•Bukilish kuchlanishi – element o‘rta qismi egiladi

•Kesuvchi kuchlanish – konstruksiyaning qiyshayishi yuzaga keladi

Bu hisoblar binoning yuk ko‘tarish qobiliyatini baholashda muhimdir.

3.Dinamik hisob- zilzila, shamol yoki boshqa tashqi dinamik yuklamalar ta’sirida konstruksiya qanday harakat qilishini aniqlash uchun amalga oshiriladi. U quyidagi turlarga bo‘linadi:

•Seysmik hisob – zilzilalarga bardoshlilikni tekshirish

•Shamol yuklamalari hisobi – yuqori inshootlar uchun muhim

•Vibratsion hisob – tebranish va rezonans holatlarini aniqlash


Misol: Osmono‘par binolar yoki ko‘priklar loyihalashda shamol va zilzila yuklamalarini hisobga olish juda muhim.

4.Issiqlik va namlik ta’siri hisobi-qurilish konstruksiyalari turli xil ob-havo sharoitida ishlaydi, shuning uchun harorat o‘zgarishlari va namlik ta’siri inobatga olinishi kerak.

•Materiallarning issiqlik kengayishi–masalan, metall konstruksiyalar harorat oshganda kengayadi, sovuganda esa qisqaradi.

ISSN 3030-3907

•Namlik ta’siri – yog‘ingarchilik yoki er osti suvlari inshootlarga zarar etkazishi mumkin. Bu hisoblar orqali qurilish materiallarini to‘g‘ri tanlash va himoya choralari ishlab chiqish mumkin.



Barcha konstruksiyalar turli xil yuklamalarni qabul qiladi va ularni o‘ziga xos yo‘llar bilan taqsimlaydi. Asosiy yuklamalar quyidagilardir:

1.Doimiy yuklama – binoning o‘z og‘irligi, devorlar, pollar va tom qoplamalari.

2.O‘zgaruvchan yuklama–odamlar, mebel, qor, shamol, zilzila kabi tashqi ta’sirlar.

3.Favqulodda yuklamalar–zilzila, portlash, transport harakati natijasida yuzaga keladigan yuklamalar. Bularni hisobga olish binoning xavfsizligi uchun muhimdir.

4.Qurilish konstruksiyalari hisoblashda zamonaviy texnologiyalar.

Zamonaviy qurilishda hisob-kitoblarning aniq va ishonchli bo‘lishi uchun quyidagi texnologiyalar ishlatiladi: Kompyuter dasturlari – AutoCAD, SAPR

BIM (Building Information Modeling) — bu qurilish sohasidagi yangi yondashuv bo‘lib, strukturalarning raqamli modelini yaratish va boshqarish orqali qurilish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. BIM texnologiyalari, qurilish jarayonida barcha ishtirokchilarni, jumladan, arxitektorlar, muhandislar, quruvchilar va boshqaruvchilarni yagona raqamli makonda birlashtiradi, bu esa loyihalash, qurish va ekspluatatsiya jarayonlarida samaradorlikni oshiradi. BIM texnologiyalari qurilish sohasida inqilobiy yangiliklar kiritgan bo‘lib, ularning ta’siri jahon bo‘yicha sezilarli bo‘lgan.

Tadqiqot natijalari

ISSN 3030-3907

1.BIM texnologiyalari 3D (uch o‘lchamli) modellashdan tashqari, qurilish ob’yektlari haqida keng qamrovli axborot tizimini yaratishni nazarda tutadi. BIM modeli qurilish ob’yekti haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, masalan:

1.1 Geometrik axborot: Ob’yektning o‘lchamlari, shakli va joylashuvi.

1.2Texnik axborot: Materiallar, ularning xususiyatlari, mexanik mustahkamligi va ishlash muddati.

1.3Loyihalash va qurilish jarayonlari: Qurilish jadvali, byudjet va ishchi kuchi bilan bog‘liq ma’lumotlar. BIM modelining asosiy afzalligi shundaki, u loyihalash, qurish va foydalanish jarayonlarida axborotlarni doimiy ravishda yangilab borishga imkon beradi.

2.Qurilishda BIM texnologiyalarining afzalliklari. BIM texnologiyalarining qurilish jarayonidagi afzalliklari juda katta. Ularning ba'zi asosiy jihatlari quyidagilardir:

2.1.Loyihalash samaradorligi va aniqligi. BIM orqali arxitektorlar va muhandislar birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa dizayn va loyihalashda xatoliklarni kamaytiradi. Raqamli model orqali loyihalar aniq va keng qamrovli bo‘lib, loyihalash jarayonida yuzaga keladigan muammolar oldindan aniqlanadi.

2.2.Koordinatsiya va hamkorlik. BIM tizimi barcha ishtirokchilarni birlashtiradi, bu esa loyiha guruhlarining o‘zaro hamkorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Arxitektorlar, quruvchilar va muhandislar o‘zlarining ishlarini yagona raqamli modelga asoslanib olib boradilar, bu esa xatoliklarni va takroriy ishlarni kamaytiradi.

2.3.Qurilish harajatlarini kamaytirish. BIM yordamida loyiha jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar va o‘zgarishlar aniq va tez aniqlanadi, bu esa ortiqcha harajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, qurilish jarayonidagi materiallar va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

2.4.Muddati va resurslar boshqaruvi. BIM texnologiyalari yordamida qurilish jarayonining har bir bosqichi batafsil rejalashtiriladi, bu esa ishning samaradorligini oshiradi. Qurilishning har bir bosqichi uchun aniq vaqt jadvali va resurslarni ajratish mumkin bo‘ladi.

2.5.Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish. Qurilish yakunlangandan keyin, BIM modeli ob’yektning ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish jarayonida ham foydalaniladi. Boshqaruvchilar ob’yektni optimallashtirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tezda olishlari mumkin, bu esa texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash jarayonlarini soddalashtiradi.

Xulosa. BIM texnologiyalari quyidagi asosiy bosqichlarda qo‘llaniladi:

ISSN 3030-3907

Loyihalash bosqichi: Arxitektorlar va muhandislar BIM modelini yaratib, ob’yektning dizayni va tuzilishini aniqlaydilar. Bu bosqichda, BIM yordamida modelning barcha qismlari birlashtiriladi va ularning o‘zaro ta’siri aniqlanadi.

Qurilish bosqichi: Qurilishda foydalaniladigan materiallar va uskunalar, shuningdek, ishchi kuchi va vaqtni boshqarish uchun BIM texnologiyalari qo‘llaniladi. Quruvchilar real vaqtda loyiha holatini kuzatib borishlari va zarur o‘zgarishlarni amalga oshirishlari mumkin.

Ekspluatatsiya bosqichi: Binoni ekspluatatsiya qilishda BIM modeli texnik xizmat ko‘rsatish va ob’yektning holatini nazorat qilish uchun ishlatiladi. Shuningdek, ta’mirlash va yangilash ishlarini rejalashtirishda ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.X.M. Axmedov, Qurilish konstruksiyalari nazariyasi, Toshkent, 2018.

2.G.S. Ibragimov, Zamonaviy qurilish materiallari va hisob-kitob usullari, Toshkent, 2021.

3.S.N. Kravchuk, Строительная механика, Moskva, 2019.

4.A.V. Cherepanov, Расчет строительных конструкций, Moskva, 2020.

5.J.S. Vasilev, V.A. Melikhov. "Qurilish konstruktsiyalarining mustahkamligini hisoblash" - T., 2018.

6.Sh.X. Xolmatov. "Qurilish konstruktsiyalarini mustahkamlash va hisoblash usullari" - T., 2020.

7.A.A. Kuznetsov. "Qurilish konstruksiyalarini hisoblash metodlari" - Moskva, 2019.

8.G.A. Shokirov. "Qurilish materiallari va konstruktsiyalarini hisoblash" - T., 2022.

9.Zou, P.,& Chan, T. (2016). *Building Information Modeling (BIM) in Construction: Applications and Challenges*. Routledge.

10.Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R., & Liston, K. (2011). *BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling for Owners, Managers, Designers, Engineers, and Contractors*. Wiley.

ISSN 3030-3907

DAVAT BUDJETI DAROMATLARINI OSHIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING ROLI

Jo'rayev Botir Abdiyevich
ISTF Biznes boshqaruvi kafedrasi dotsent v.b., iqtisod fanlari nomzodi
Тел: +998 93 215 56 67
Email: botirjuraev111@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat byudjeti daromadlarini oshirishda sug'urta kompaniyalarining roli tahlil qilinadi. Shunindek, maqola yakunida sug'urta tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda xalqaro tajriba va zamonaviy moliyaviy mexanizmlardan foydalanish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Soliq siyosati, sug'urta riski, Sug'urta tashkiloti, daromad solig'i, budjet defitsiti, investitsion rejim.

Annotation: This article analyzes the role of insurance companies in increasing state budget revenues. Additionally, at the end of the article, practical recommendations for developing the insurance system are provided, emphasizing the importance of utilizing international experience and modern financial mechanisms in this field.

Keywords: Tax policy, insurance risk, insurance organization, income tax, budget deficit, investment regime.

Аннотация. В данной статье анализируется роль страховых компаний в увеличении доходов государственного бюджета. Кроме того, в конце статьи даны практические рекомендatsii по развитию страховой системы, подчеркивается важность использования международного опыта и современных финансовых механизмов в этой сфере.

Ключевые слова: Налоговая политика, страховой риск, страховая организatsiя, подоходный налог, бюджетный дефицит, инвестиционный режим.

Kirish

Davlat byudjeti mamlakat iqtisodiyotining asosiy moliyaviy asosi bo'lib, uning barqarorligi va daromadlarini oshirish har bir davlat uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-sonli "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi farmoni[1], shuningdek, 2022-yil 17-martdagi PF-81-sonli "Sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish strategiyasi" farmonlari mamlakatda sug'urta tizimini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan[2]. Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari davlat byudjeti daromadlarini oshirishda

ISSN 3030-3907

muhim o‘rin tutmoqda. Sug‘urta sohasi nafaqat iqtisodiy subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki davlat byudjetiga soliqlar, yig‘imlar va investitsiyalar orqali ham daromad olib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Davlat byudjeti daromadlarini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ham sug‘urta sektorining bu boradagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda sug‘urta bozori iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo‘lib, uning isloh qilinishi va rivojlanishi orqali davlat byudjeti daromadlarini oshirishga erishish mumkin. Xususan, majburiy sug‘urta turlari, ko‘ngilli sug‘urta xizmatlari, pensiya va tibbiy sug‘urta tizimlarining kengayishi davlat byudjetiga tushumlarni oshirishning samarali yo‘llaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu boisdan, ushbu maqolada sug‘urta kompaniyalarining davlat byudjeti daromadlarini oshirishdagi o‘rni, ushbu sohaning rivojlanish istiqbollari hamda Prezident farmonlari asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sug‘urta sektorining o‘sishini ta’minlash orqali byudjetga tushumlarni ko‘paytirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari budjet daromadlari tizimini optimallashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Soliq siyosatining samaradorligi va davlat daromadlarining barqarorligi mamlakatning strategik rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, davlat budjeti daromadlari tizimini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash dolzarb masalalardan biridir. Sug’urta bozori haqida gapirganda sug’urta tushunchasi va uning mohiyatiga to’xtalib o’tamiz.

Tabiiy va boshqa stixiyali kuchlar ta’siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash, oldini olish hamda ogohlantirish uchun maqsadli yo‘nalishdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisiga sug‘urta deyiladi. Sug‘urtaning xarakterli belgilari mavjud bo’lib, ulardan biri sug‘urta riskini mavjudligi. Risk-sug‘urta munosabatlari paydo bo‘lishining asosiy shartidir. Risk bo‘lmas ekan, sug‘urtaning bo‘lishi mumkin emas. Riskning hajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika usullari yordamida aniqlanadi. Sug‘urta risklarini tahlil kilish ularni 2 ta yirik guruhga bo‘lishni taqozo etadi. Ya’ni, risk sug‘urtaviy va sug‘urtasiz bo‘ladi. Sug‘urta shartnomalarida o‘z aksini topgan risklar sug‘urtaviy risklar deyiladi. Risk bahosini pulda ifodalanishi sug‘urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko‘rsatkich emas, balki u doimo o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Sug‘urta tashkiloti riskni rivojlanishini, holatini doimo kuzatishi lozim, ya’ni

ISSN 3030-3907

tegishli statistik hisob olib borishi, yig‘ilgan ma’lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak. Ko‘plab iqtisodiy tadqiqotlarda sug‘urta tizimining mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) va fiskal siyosatiga ijobiy ta’siri ko‘rsatilgan. Masalan, Skipper & Kwon (2007) o‘z asarlarida sug‘urta kompaniyalari investitsion muhitni yaxshilashi va soliqlardan tushumlarni oshirishi mumkinligini ta’kidlaydi[4]. Sug‘urta kompaniyalari quyidagi yo‘llar bilan davlat budjetiga daromad keltiradi:

1. Sug‘urta mukofotlaridan tushadigan soliqlar – Ya’ni, kompaniyalar yig‘gan mukofotlar davlatga qo‘shimcha soliq tushumlarini ta’minlaydi (Cummins & Venard, 2008)[5].
2. Korxona daromad solig‘i – Sug‘urta kompaniyalari foydalaridan davlat budjetiga daromad solig‘i to‘laydi.
3. Qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) va aksiz soliqlari – Ayrim mamlakatlarda hayot sug‘urtasi va ba’zi turdagi sug‘urtalar QQSga tortiladi.

Sug‘urta kompaniyalari jamlagan mablag‘larni uzoq muddatli investitsiyalarga yo‘naltirib, iqtisodiyotning real sektoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Baranoff, Brockett & Kahane (2009)[6] tadqiqotlarida qayd etilganidek, sug‘urta kompaniyalari:

- Davlat obligatsiyalarini sotib olish orqali budjet defitsitini qoplashga yordam beradi
- Xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish orqali bandlikni oshiradi
- Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) hisobotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta bozori YAIMning 6-10% ini tashkil etadi, bu esa budjetga sezilarli daromad keltiradi. Swiss Re Sigma (2021) hisobotida sug‘urta bozori rivojlangan davlatlarda soliqlar orqali davlat daromadlarining 5-8% ini ta’minlashi ko‘rsatilgan[7]. O‘zbekiston uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya qilinadi:

1. Sug‘urta bozori hajmini oshirish va yangi sug‘urta mahsulotlarini rivojlantirish
2. Sug‘urta kompaniyalari uchun imtiyozli investitsion rejim yaratish
3. Sug‘urtaning majburiy turlarini kengaytirish

Jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o‘z faoliyatlari jarayonida bir- birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo‘ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish zarur, ya’ni fuqarolar va tashkilotlarning hatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to‘laligacha sug‘urtaga ham taalluqlidir. Sug‘urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug‘urta fondini tashkil etish va undan foydalanish

ISSN 3030-3907

jarayonida paydo bo‘ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi. Sug‘urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari davlat budjeti daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning soliqlar, investitsiyalar va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali fiskal siyosatga ta’siri tahlil qilindi.

Tahlillar natijasida sug‘urta kompaniyalari quyidagi yo‘llar orqali davlat budjetiga daromad olib kelishi aniqlangan:

- Sug‘urta mukofotlaridan tushgan soliqlar – Sug‘urta kompaniyalari yig‘gan mukofotlarning ma’lum qismi soliqlarga yo‘naltiriladi.
- Korxona daromad solig‘i – Sug‘urta kompaniyalari tomonidan to‘lanadigan foyda solig‘i davlat budjeti daromadlarining bir qismini tashkil etadi.
- Sug‘urta faoliyati natijasida yaratilgan bandlik – Sug‘urta sohasi ish o‘rinlari yaratib, aholi daromadlarini oshiradi, bu esa o‘z navbatida soliqlarning ko‘payishiga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta sektori budjet daromadlarining 5-8% ini tashkil etadi [8]. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich hali past bo‘lib, sug‘urta bozori YAIMga nisbatan 1-2% ni tashkil etadi[9]. O‘zbekiston sug‘urta sektorining soliq tushumlari orqali budjetga qo‘shayotgan hissasi pastligi sababli, uni rivojlantirish davlat daromadlarini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari jamg‘argan kapitalni quyidagi yo‘nalishlarga yo‘naltirish orqali davlat iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlaydi:

- Davlat obligatsiyalarini sotib olish – Sug‘urta kompaniyalari davlat qimmatli qog‘ozlariga sarmoya kiritib, budjet defitsitini qoplashga yordam beradi.
- Xususiy sektor loyihalariga investitsiyalar – Sug‘urta kompaniyalari sanoat, infratuzilma va boshqa tarmoqlarga investitsiya kiritib, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.
- Bank tizimi orqali moliyaviy oqimni oshirish – Sug‘urta kompaniyalari banklar bilan hamkorlik qilib, kreditlash va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta kompaniyalari davlat obligatsiyalarining 20-30% ini sotib oladi (IMF, 2020)[10]. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich nisbatan past bo‘lib, sug‘urta kompaniyalari aktivlarining katta qismi hali investitsiyaga yo‘naltirilmagan[11]. Sug‘urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini qo‘llab-

ISSN 3030-3907

quvvatlash orqali davlat budjetiga qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish mumkin. Sug‘urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- fuqarolar va sug‘urta tashkilotlari o‘rtasida shakllanadigan fuqarolik huquqiy munosabatlar;
- sug‘urta tashkilotlari o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar;
- fuqarolar va maxsus davlat organlari o‘rtasida paydo bo‘ladigan fuqarolik huquqiy munosabatlar;
- sug‘urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o‘rtasida paydo bo‘ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sug‘urta tashkilotlari o‘rtasida paydo bo‘ladigan fuqarolik huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug‘urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug‘urta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo bo‘ladi. Ya’ni, tuzilgan shartnomaga ko‘ra, fuqaro o‘z vaqtida sug‘urta mukofotini to‘lashi shart. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda esa, sug‘urta tashkiloti sug‘urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug‘urta qoplamasi (summasini) fuqaroga to‘lab berishi lozim. Ko‘rinib turibdiki, shartnoma –fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning o‘zaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti. Sug‘urta tashkilotlarining bir-birlari o‘rtasida paydo bo‘ladigan fuqarolik huquqiy munosabatlari sug‘urta pulini va qayta sug‘urta qilish bilan bog‘liq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra, sug‘urta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, binobarin, sug‘urtalanuvchilar oldida o‘z majburiyatini bajarishini ta’minlash maqsadida sug‘urta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sug‘urta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sug‘urta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni xulosa qilib, shuni alohida ta’kidlash joizki, Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari davlat budjeti daromadlarini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ularning soliqlar, investitsiyalar va iqtisodiy barqarorlikka qo‘shgan hissasi mamlakat moliyaviy tizimini mustahkamlashga yordam beradi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Sug‘urta bozori davlat budjetiga soliq tushumlarini oshiradi – Sug‘urta kompaniyalari daromad solig‘i, sug‘urta mukofotlari soliqlari va boshqa fiskal majburiyatlari orqali davlat daromadlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
2. Sug‘urta kompaniyalari investitsiyalar orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi – Ular davlat obligatsiyalarini sotib olish, xususiy sektor

ISSN 3030-3907

loyihalarini moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish orqali budjet barqarorligini ta’minlaydi.

3. Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta bozori davlat budjeti daromadlarining 5-8% ini tashkil qiladi – O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich ancha past, bu esa sug‘urta sohasini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.
4. Sug‘urtaning majburiy turlarini kengaytirish budjet daromadlarini oshirishi mumkin – Avtomobil, tibbiy va boshqa majburiy sug‘urta turlarini joriy etish davlat daromadlarini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.
5. Sug‘urta sektorini raqamlashtirish va ishonchni oshirish muhim omil hisoblanadi – Elektron sug‘urta tizimlarini joriy etish va ishonch darajasini oshirish orqali sug‘urta qamrovini kengaytirish mumkin.

Tavsiya: O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish, soliqlarning samaradorligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali davlat budjeti daromadlarini oshirish imkoniyati mavjud. Bu yo‘nalishda xalqaro tajribadan foydalanish va zamonaviy sug‘urta tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). *"Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yanada kuchaytirish to‘g‘risida"gi PF-6155-sonli farmon.* 2021-yil 3-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *"Sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish strategiyasi" to‘g‘risida"gi PF-81-sonli farmon.* 2022-yil 17-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *"Davlat byudjeti daromadlarini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror.* 2023-yil 16-yanvar.
4. Skipper, H. D., & Kwon, W. J. (2007). *Risk Management and Insurance: Perspectives in a Global Economy.* Wiley-Blackwell.
5. Cummins, J. D., & Venard, B. (2008). *Handbook of International Insurance: Between Global Dynamics and Local Contingencies.* Springer.
6. Baranoff, E. G., Brockett, P. L., & Kahane, Y. (2009). *Risk Management for Enterprises and Individuals.* The American Institute for CPCU.
7. Swiss Re Sigma Reports. (2021). *World Insurance: The Recovery Gathers Pace.* Swiss Re Institute.
8. Swiss Re Sigma Reports. (2021). *World Insurance: The Recovery Gathers Pace.* Swiss Re Institute.
9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi. (2023). *Sug‘urta bozori rivojlanishi bo‘yicha hisobot.*

ISSN 3030-3907

10. International Monetary Fund (IMF). (2020). *Financial Stability Report.*

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2022). *Sug‘urta kompaniyalari faoliyati va iqtisodiyotga ta’siri.*

ISSN 3030-3907

O'LCHOV VOSITALARINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGINI TA'MINLASH

Maxmudova Maxliyo Maxsudovna
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi
maxliyomaxmudova05@gamil.com
Davlyatova Mavlyuda Baxtiyorovna
Buxoro davlat texnika universiteti PhD dotsenti
davlyatovamavlyuda86@gmail.com

Annotatsiya: O'lchov vositalarining xalqaro standartlarga muvofiqligi sanoat, ilm-fan va ijtimoiy hayotda yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etishning asosiy omillaridan biridir. Bu, o'z navbatida, raqobatbardoshlikni oshiradi, sifatni yaxshilaydi va global bozorlar bilan integratsiyani ta'minlaydi. O'lchov vositalarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash jarayonida metrologiya ilm-fanining asosiy tamoyillari, kalibrlash va sertifikatlash tizimlari, shuningdek, bu tizimlarning amaliyotdagi ta'siri haqida ilmiy yondashuvlar orqali muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: SI tizimi, ISO, xalqaro standartlar, aniqlik, ishonchlilik, kalibrlash, sertifikatlashtirish

Annotation: The compliance of measuring instruments with international standards is one of the key factors in providing high-quality products and services in industry, science, and social life. This, in turn, increases competitiveness, improves quality, and ensures integration with global markets. The process of ensuring the compliance of measuring instruments with international standards involves the fundamental principles of metrology science, calibration and certification systems, as well as the practical impact of these systems, discussed through scientific approaches.

Keywords: SI system, ISO, international standards, accuracy, reliability, calibration, certification

Аннотация. Соответствие измерительных приборов международным стандартам является одним из основных факторов обеспечения высококачественных продуктов и услуг в промышленности, науке и социальной жизни. Это, в свою очередь, повышает конкурентоспособность, улучшает качество и обеспечивает интеграtsiю с глобальными рынками. Процесс обеспечения соответствия измерительных приборов международным стандартам включает основные принципы метрологии, системы калибровки и сертификатsii, а также практическое влияние этих систем, обсуждаемое через научные подходы.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: СИ система, ISO, международные стандарты, точность, надежность, калибровка, сертификатsiя

Kirish

O'lchov vositalarining aniqligini va ishonchliligini ta'minlash uchun xalqaro tizimlar va normativlar, masalan, **SI tizimi** (Mehrobiy o'lchovlar tizimi) va **ISO/IEC 17025** kabi xalqaro standartlar asosida ishlanadi. Bu tizimlar o'lchovlarning universal aniq va bir-biriga mos bo'lishini kafolatlaydi, hamda global miqyosda tahlil va taqqoslash imkoniyatlarini yaratadi. O'lchovlarning muvofiqligini ta'minlashda statistika, matematik modellashtirish, va nazariy metrologiya metodlari keng qo'llaniladi.

SI tizimi (Mehrobiy o'lchovlar tizimi) — bu o'lchov birliklarining xalqaro asosiy tizimi bo'lib, barcha o'lchovlar uchun yagona standartlar to'plamini taqdim etadi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi o'lchovlarni birlashtirish va o'lchovlar orasidagi o'zaro aloqani ta'minlashdir. **ISO/IEC 17025** esa laboratoriyalarning malakali o'lchovlarni amalga oshirishi va aniq natijalarni taqdim etishini kafolatlaydigan xalqaro standartdir. Ushbu standartlar, laboratoriyalarning kalibrlash va sinov xizmatlarini global miqyosda ishonchli va aniqlik bilan taqdim etishini ta'minlaydi. Kalibrlash – bu o'lchov vositasining aniqligini tasdiqlash jarayoni bo'lib, o'lchovning ishonchliligini va aniqligini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Kalibrlashning ilmiy asoslari statistik nazariyaga, o'lchovlarning xatoliklarini baholash va nazorat qilishga asoslanadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'lchov vositalarining xatoliklarni minimallashtirish va tasodifiy xatoliklarni nazorat qilish kabi ilmiy metodlar qo'llaniladi. Kalibrlash jarayonida xatoliklarni aniqlash muhimdir. Xatoliklar bir nechta turlarga bo'linadi: **sistematik xatoliklar** va **tasodifiy xatoliklar**. Sistematik xatoliklar o'lchov vositasining konstruktsiyasidagi nuqsonlardan kelib chiqadi, tasodifiy xatoliklar esa o'lchovning vaqtinchalik sharoitlariga bog'liq bo'ladi. O'lchov vositasining aniqligini ta'minlash uchun, kalibrlash jarayonida bu xatoliklar minimallashtiriladi va izchil aniqlikka erishish uchun statistik tahlil va modellashtirish metodlari qo'llaniladi. Masalan, **termodinamik o'lchov vositalari** uchun kalibrlashda o'lchovning aniq va barqaror natijalarini olish uchun uning barqarorligini ta'minlash zarur. **PTB** (Germaniya Metrologiya Instituti) tomonidan o'lchov vositalarining kalibrlashida qat'iy ilmiy metodologiya qo'llaniladi. Ushbu markazda barcha o'lchovlar bir necha marotaba tasodifiy o'lchovlar bilan tekshiriladi, va xatoliklar statistika yordamida kamaytiriladi. Bu jarayonning ilmiy asoslari, o'lchov vositasining aniqligini va samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Sertifikatlash – o'lchov vositasining xalqaro yoki milliy standartlarga muvofiqligini tasdiqlash jarayonidir. **ISO**

ISSN 3030-3907

9001:2015 yoki **ISO/IEC 17025** kabi xalqaro standartlar asosida sertifikatlash, o'lchov vositalarining yuqori sifatini, ishonchliligini va aniqligini tasdiqlaydi. Sertifikatlash jarayonida o'lchov vositalarining taqdim etilgan parametrlar va texnik xususiyatlar, belgilangan normativlarga to'liq mosligini tekshiradi. Masalan, **avtomobil sanoati**da, avtomobil qismlarining aniqligi va sifatini ta'minlashda sertifikatlangan o'lchov vositalari zarur. Xalqaro sertifikatlangan o'lchov vositalari yordamida avtomobil qismlarining aniqligini tekshirishda ISO 9001 yoki ISO/IEC 17025 sertifikatlari muhim rol o'ynaydi. Sertifikatlash jarayoni, o'lchov vositalarining yuqori standartlarga muvofiqligini tasdiqlash va bu vositalarning ishlashini sifatli nazorat qilish imkonini yaratadi.

O'lchov vositalarining xalqaro standartlarga muvofiqligi sanoat va ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xalqaro bozor talablariga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarish, kompaniyalarga global raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Agar o'lchov vositalari xalqaro standartlarga mos kelmasa, mahsulotlar va xizmatlar bozorda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa xarajatlarning oshishiga va eksport imkoniyatlarining kamayishiga olib keladi. **Yevropa va AQSh bozorlariga eksport qilishda**, o'lchov vositalarining muvofiqligi ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yevropada yoki AQShda ishlab chiqarilgan avtomobil qismlari uchun yuqori sifat va aniqlik talab qilinadi, shuning uchun o'lchov vositalarining kalibrlanishi va sertifikatlanishi bu bozorlarda muvaffaqiyatli ishlashning asosiy omillaridan biridir. O'lchov vositalarining xalqaro standarlarga muvofiqligi, eksportchi kompaniyalarga mahsulotlarini yuqori sifatli va ishonchli tarzda ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

O'lchov vositalarini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham muhimdir. Kalibrlash va sertifikatlash jarayonlari, o'lchov vositalarining aniq ishlashini ta'minlash uchun ilmiy metodologiya va statistik tahlillarga asoslanadi. Ushbu jarayonlar, global bozorlarga muvaffaqiyatli kirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'lchov vositalarining yuqori sifatini ta'minlash, ishlab chiqarish va mahsulotning sifatini yaxshilashda ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash zarur. Kalibrlash, sertifikatlash va xalqaro standartlarga muvofiqlik – bu sanoatning rivojlanishi va global bozorlar bilan integratsiyani osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar to'plami

1. **O'zbekiston Respublikasi O'lchov Vositalarini Kalibrlash va Sertifikatlash Tizimi.** (2012). *O'zbekiston Standartlari*.

ISSN 3030-3907

- O'zbekiston Respublikasining o'lchov vositalarini kalibrlash va sertifikatlashning milliy tizimi haqida ma'lumot beradi. Bu hujjat o'lchov vositalarining aniq va ishonchli ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan milliy talablarga asoslanadi.

2. **O'zbekiston Respublikasining "O'lchov Vositalarini Kalibrlash, Tekshirish va Sertifikatlash Tizimi Haqida"gi Qonuni.** (2015).
   - O'zbekistonda o'lchov vositalarining kalibrlanishi va sertifikatlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslarni belgilaydi va metrologiya sohasida muhim qonuniy talablarni ko'rsatadi.
3. **O'zbekiston Respublikasi Davlat Standartlari (GOST).** (O'zbekiston Respublikasining Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlashtirish Davlat qo'mitasi tomonidan nashr etilgan).
   - O'zbekistonning milliy standartlarini o'z ichiga olgan GOSTlar o'lchov vositalarining sifatini, aniqligini va ishonchliligini ta'minlash bo'yicha amaliy qo'llanmalarga asoslanadi.
4. **O'zbekiston Respublikasi Metrologiya Instituti.** (2020). *Metrologik Xizmatlar va O'lchov Vositalarini Tekshirish, Kalibrlash, Sertifikatlash Haqida Ma'lumotlar.* O'zbekiston Respublikasi Metrologiya Instituti.
   - O'zbekistonda metrologik xizmatlarning ko'lamini va o'lchov vositalarini kalibrlash hamda sertifikatlash jarayonlarining amaliyotini tushuntiruvchi materiallar.
5. **GOST 8.563-2009.** *O'lchov Vositalarini Kalibrlash va Tekshirish Tizimi.* (O'zbekiston Standartlari).
   - Kalibrlashning asosiy tamoyillari va amaliyotlarini belgilovchi standart bo'lib, o'lchov vositalarining tasdiqlangan aniqlik va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi.
6. **O'zbekiston Respublikasi "Metrologiya Sozlamalari va Ularning Xalqaro Muvofiqligi."** (2016). *O'zbekiston Respublikasi Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlashtirish Davlat qo'mitasi.*
   - O'zbekistonning xalqaro metrologiya tizimlari bilan integratsiyasi va metrologik xizmatlarning rivojlanishi haqida hujjatlar.
7. **ISO/IEC 17025:2017.** *General Requirements for the Competence of Testing and Calibration Laboratories.* (O'zbekistonda qo'llanilishi).
   - Xalqaro standartlarga asoslangan metrologik laboratoriyalarning talablariga mos keladigan O'zbekiston metrologiyasi bo'yicha qo'llanma.
8. **O'zbekiston Respublikasi Milliy Metrologiya Markazi.** (2018). *O'lchov Vositalarini Sinovdan O'tkazish va Sertifikatlash.*

ISSN 3030-3907

- O'zbekiston Respublikasida o'lchov vositalarining sinovdan o'tkazilishi, kalibrlanishi va sertifikatlanishini boshqarishning milliy tizimi.

9. **GOST 8.018-2005.** *Metrologik Xizmatlar. O'lchov Vositalarini Kalibrlash Tizimi.*
    - O'zbekistonning o'lchov vositalarini kalibrlash tizimining umumiy talablari va metodologiyasi.
10. **O'zbekiston Respublikasining "Sertifikatlash Tizimi Haqida"gi Qonuni.** (2017).
    - Sertifikatlash tizimiga oid huquqiy talablarni belgilaydi, o'lchov vositalarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashda muhim huquqiy asoslarni ko'rsatadi.

ISSN 3030-3907

O’LCHOV VOSITALARINING TEKSHIRUVINI O‘TKAZISH VA SIFATNI TA'MINLASH: ILMIY ASOSLAR, METODIKALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Davlyatova Mavlyuda Baxtiyorovna
Buxoro davlat texnika universiteti PhD dotsenti
davlyatovamavlyuda86@mail.com
Sattorov Bexruz Qobil o’g’li
Buxoro davlat tibbiyot institute “Travmatalogiya va neyroxirurgiya kafedrasi assistenti”
sattorovbehruz804@gmail.com

Annotatsiya: O’lchov vositalari ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar, sanoat ishlab chiqarish jarayonlari va kundalik hayotda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi uchun maxsus metrologik tekshiruvlardan o‘tishi kerak. Olchov vositalarining ishonchliligi va aniqligi faqatgina sifatli tekshiruvlar va kalibrlash jarayonlaridan so‘ng ta'minlanadi. Ushbu maqola olchov vositalarini tekshiruvini o‘tkazish, sifatni ta'minlash va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni o‘rganadi. Shuningdek, xalqaro va milliy standartlar hamda amaliy tavsiyalar kiritiladi.

Kalit so’zlar: aniqlik va to‘g‘rilik, metrologik tekshiruv, sifatni ta'minlash, xatoliklarni aniqlash, sinov, ISO 9001

Mexatronik tizimlarning amaliy natijalarini ilmiy asosda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi muhim o‘zgarishlar kuzatiladi:

Ishlab chiqarish samaradorligi 30% gacha oshgan. Avtomatlashtirish jarayonlari natijasida ishlab chiqarish jarayonining tezligi ortgan, energiya tejamkorligi oshgan va inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamaygan. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, SCADA va PLC boshqaruv tizimlarining joriy etilishi orqali ishlab chiqarish samaradorligi 25-30% gacha oshishi mumkin. Masalan, bug‘doy saralash va namlash jarayonlarida optik sensorlar va aqlli monitoring tizimlarining qo‘llanilishi ishlab chiqarish hajmini oshirish va resurslardan tejamli foydalanish imkonini bergan [8].

Energiya sarfi 20% gacha kamaygan. Donni qayta ishlash jarayonida energiya tejamkorligiga erishish uchun aqlli sensorlar, avtomatik boshqaruv tizimlari va energiya samarador motorlar qo‘llanilmoqda. Avtomatlashtirilgan don saralash va namlash tizimlari energiya sarfini kamaytirib, ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar natijasida, mexatronik modullar yordamida optimal boshqaruv algoritmlari energiya sarfini 15-20% gacha kamaytirishi aniqlangan[9].

Ishchi kuchiga bo‘lgan talab 40% gacha qisqargan. Avtomatlashtirish texnologiyalarining keng joriy etilishi inson omiliga bog‘liq jarayonlarni minimallashtirishga olib kelmoqda. Bugungi kunda SCADA tizimlari va IoT asosida ishlovchi monitoring tizimlari operatorlarga masofadan ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish imkonini bermoqda. Bu esa ishchi kuchiga bo‘lgan talabni 30-40% gacha qisqartirish imkonini beradi. Masalan, ilgari ko‘p sonli ishchilar talab etilgan donni saralash va tozalash jarayonlari hozirda optik sensorlar va avtomatlashtirilgan mexanik tizimlar orqali amalga oshirilmoqda[10].

Don sifati 15-25% gacha yaxshilangan. Mahsulot sifatining oshishi ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida avtomatlashtirish texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog‘liq. Optik sensorlar va AI algoritmlari orqali shikastlangan va sifatsiz donlarni avtomatik ravishda ajratish imkoni paydo bo‘ldi, bu esa yakuniy mahsulot sifatining 15-25% gacha yaxshilanishiga olib kelgan. Shu bilan birga, namlash jarayonining aqlli boshqaruvi mahsulot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, don tarkibidagi namlik balansini optimal holatda ushlab turishga yordam beradi [11].

Iqtisodiy samaradorlik va kelajak istiqbollari. Mexatronik modullarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida keng qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirishi aniqlangan. Tadqiqotlarga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish tannarxi 10-15% gacha kamaygan, bu esa korxonalar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda AI

ISSN 3030-3907

va IoT texnologiyalarining yanada rivojlanishi orqali ishlab chiqarish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish imkoniyati mavjud [12].
Bu esa iqtisodiy jihatdan sezilarli darajada foyda keltirishini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Bug‘doy donini qayta ishlash jarayonida mexatronik modullarning qo‘llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya tejamkorligini ta’minlash va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Zamonaviy avtomatlashtirish texnologiyalarining joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayoni barqarorlik, tezkorlik va aniqlik bo‘yicha an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada ustunlikka ega bo‘lmoqda.

Mexatronik modullar va avtomatlashtirish texnologiyalari quyidagi asosiy afzalliklarni ta’minlaydi:

❖ Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish – PLC va SCADA tizimlari orqali jarayonlarni doimiy nazorat qilish va optimallashtirish.

❖ Energiya samaradorligini oshirish – Aqlli boshqaruv tizimlari va optimallashtirilgan elektr motorlari energiya sarfini kamaytiradi.

Mehnat xarajatlarini qisqartirish – Sensor texnologiyalari va mashina ko‘rish tizimlari inson omiliga bog‘liq jarayonlarni minimallashtiradi.

❖ Mahsulot sifatini oshirish – Optik sensorlar va AI algoritmlari sifatsiz donlarni aniqlash va ajratish orqali umumiy sifatni yaxshilaydi.

Kelajakda AI, IoT va robototexnika texnologiyalari bilan yanada rivojlangan avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqilishi kutilmoqda. Masofaviy monitoring, real vaqt rejimidagi boshqaruv va oldindan prognoz qilish imkoniyatlari yordamida bug‘doy donini qayta ishlash jarayoni yanada samarali va iqtisodiy jihatdan foydali bo‘ladi.

Shunday qilib, mexatronik modullarning qo‘llanilishi bug‘doy sanoatining kelajagini belgilaydigan strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonining tezkorligi, sifatini va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Smith, J. (2021). *Advanced Grain Sorting Technologies*. Journal of Agricultural Engineering, 34(2), 123-134.
[2] Brown, R. & Green, T. (2020). *Moisture Control in Grain Processing*. International Journal of Food Technology, 27(4), 210-225.
[3] Wilson, M. (2019). *PLC and SCADA Systems in Agri-Food Industry*. Automation & Control Journal, 18(3), 98-112.
[4] Lee, D. et al. (2022). *Impact of Mechatronics on Grain Processing Efficiency*. Mechatronics and Automation Journal, 45(1), 56-78.

ISSN 3030-3907

[5] Gupta, S. et al. (2021). *Optical Sensors in Modern Agriculture*. Sensors and Automation Journal, 22(1), 55-67.
[6] Kim, Y. (2023). *IoT-based Automation in Food Processing*. International Journal of Smart Agriculture, 30(2), 144-159.
[7] Singh, A. (2022). *Artificial Intelligence in Crop Processing*. AI & Robotics Journal, 29(4), 210-235.
[8-12] Computers and Electronics in Agriculture, Elsevier (2024). Application of Digital Technologies for Ensuring Agricultural Productivity, ScienceDirect (2023).
[12] White, P. et al. (2020). *Automation and Efficiency in Grain Processing Plants*. Food Engineering Journal, 15(3), 78-95.

ISSN 3030-3907

TERMOELEKTRIK GENERATORNING NAZORAT REJASINI ISHLAB CHIQISH

Olimov Lutfiddin Omanovich
Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti f-m.f.d., professor
TEL: +998-33-108-96-66.
E-mail: O.Lut@gmail.com
Mamajonov Abduvoxid Abduraxmonovich
Andijon mashinasozlik instituti, Andijon, O‘zbekiston.
TEL: +998-99-920-09-69,
E-mail: mamajonov@andmiedu.uz
Xojimatov Islombek Turg‘unboy o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
TEL: +998-97-996-04-20.
E-mail: ixojimatov0420@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada termoelektrik generatorning nazorat rejasini ishlab chiqish usullari tahlil qilinadi. Termoelektrik generatorlarning ishlash tamoyillari, ularning samaradorligini oshirish uchun nazorat tizimlarini ishlab chiqish muhimligi va zamonaviy boshqaruv usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, generatorning harorat, yuklama va samaradorlik ko‘rsatkichlarini nazorat qilish usullari va ularning texnik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari termoelektrik generatorlarning energetik samaradorligini oshirish va ularning ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan ilg‘or nazorat tizimlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: termoelektrik generator, nazorat rejasi, termoelektrik materiallar, energiya samaradorligi, issiqlik elektr konversiyasi, boshqaruv tizimi, termoelektrik effect

Аннотация. В статье анализируются методы разработки схемы управления термоэлектрическим генератором. Обсуждаются принципы работы термоэлектрических генераторов, важность разработки систем управления для повышения их эффективности, современные методы управления. Также анализируются методы управления температурой, нагрузкой и КПД генератора и их технические аспекты. Результаты исследований послужат основой для создания перспективных систем управления, направленных на повышение энергоэффективности термоэлектрических генераторов и обеспечение их надежности.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: термоэлектрический генератор, план управления, термоэлектрические материалы, энергоэффективность, преобразование тепла и электроэнергии, система управления, термоэлектрический эффект

Abstract. This article analyzes the methods for developing a control plan for a thermoelectric generator. The principles of operation of thermoelectric generators, the importance of developing control systems to increase their efficiency, and modern control methods are considered. Also, methods for controlling the temperature, load, and efficiency indicators of the generator and their technical aspects are analyzed. The results of the research serve as the basis for creating advanced control systems aimed at increasing the energy efficiency of thermoelectric generators and ensuring their reliability.

Keywords: thermoelectric generator, control plan, thermoelectric materials, energy efficiency, heat and electricity conversion, control system, thermoelectric effect

Kirish.

Bugungi kunda issiqlik energiyasidan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasi rivojlanib borayotgan soha turlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, termoelektrik generatorlangan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birgalikda, zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga energiya manbalarini samarali va ekologik toza usullarda ishlatish muammolari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Termoelektrik generatorlar (TEG) [1-3] bu sohada muhim o‘rin tutadi, chunki ular chiqindilar issiqligini boshqacha aytganda ikkilamchi issiqlikni elektr energiyasiga aylantirish va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini beradi. Termoelektrik effekt asosida ishlaydigan bu qurilmalar, issiqlik va elektr energiyasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlaydi.

Biroq, termoelektrik generatorlarning samarali ishlashi ularning boshqaruv tizimlariga bog‘liq. Nazorat rejasi generatorning optimal ishlashini ta’minlash, issiqlik oqimini boshqarish, chiqish kuchlanishini barqarorlashtirish va tizimning umumiy samaradorligini oshirish uchun juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun termoelektrik generatorlar uchun mos nazorat rejasini ishlab chiqish zamonaviy energetika tizimlarida muhim vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqolada termoelektrik generatorlarning ishlash prinsiplari, ularni boshqarishda qo‘llaniladigan nazorat usullari va optimal nazorat rejasini ishlab chiqishning asosiy jihatlari muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, turli nazorat algoritmlarining samaradorligi va ularning amaliy tatbiqlari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Termoelektrik generatorlarning kelajakdagi istiqbollari va ularning qayta tiklanadigan energiya tizimlaridagi o‘rni ham ko‘rib chiqiladi.

ISSN 3030-3907

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda termoelektrik generator (TEG) uchun samarali nazorat rejasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari va usullari ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Termoelektrik generatorning ishlash prinsiplarini o‘rganish:

- termoelektrik effekt (Seebeck effekti) [4-5] asosida generatorning ishlash prinsiplari tahlil qilindi.
- issiqlik va elektr energiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun laboratoriya sharoitida tahlillar o‘tkazildi. Bu tahlillar orqali generatorning chiqish kuchlanishi, quvvati va samaradorligi hisoblab chiqildi.

2. Nazorat rejasini ishlab chiqish:

- generatorning optimal ishlashini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan nazorat usullarida foydalanilgan bosqichlarning har tahlil qilindi.
- har bir nazorat usulining afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, ularning generatorning samaradorligiga ta’siri baholandi.
- simulyatsiya dasturlari (masalan, matlab/simulink) yordamida nazorat rejasining ishlashini tekshirish uchun matematik modellar yaratildi.

3. Simulyatsiya va eksperimental tekshiruvlar:

- Ishlab chiqilgan nazorat rejasi simulyatsiya orqali sinovdan o‘tkazildi. Simulyatsiya jarayonida generatorning turli sharoitlarda (harorat gradientining o‘zgarishi, yukning o‘zgarishi) ishlashi kuzatildi.
- Simulyatsiya natijalari asosida nazorat rejasining samaradorligi va barqarorligi baholandi.
- Amaliy tajribalar uchun laboratoriya sharoitida termoelektrik generator qurilmasi yaratildi va nazorat rejasi sinovdan o‘tkazildi.

4. Natijalarni tahlil qilish va optimallashtirish:

- Simulyatsiya va eksperimental natijalar solishtirildi, xatolar va noaniqliklar tahlil qilindi.
- Olingan natijalar asosida nazorat rejasi optimallashtirildi va generatorning samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqildi.

5. Statistik tahlil va baholash:

- Tadqiqot natijalarining statistik ishonchliligi aniqlanishi uchun ma’lumotlar statistik usullar (masalan, o‘rtacha qiymat, standart og‘ish, dispersiya tahlili) yordamida tahlil qilindi.
- Nazorat rejasining samaradorligi turli ko‘rsatkichlar (masalan, energiya samaradorligi, barqarorlik vaqti, xatolik darajasi) asosida baholandi.

Termoelektrik generatorlarning ahamiyati va qo‘llanilishi:

Termoelektrik generatorlar atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular chiqindilar issiqligi, sanoat jarayonlari yoki xatto inson

ISSN 3030-3907

tanasidan chiqadigan issiqlikni elektr energiyasiga aylantirishi mumkin [1,2]. Uzoq masofali kosmik missiyalarda, masalan, Voyager yoki Mars roverlarida, quyosh energiyasining etarli bo‘lmaganda termoelektrik generatorlar ishonchli energiya manbai sifatida ishlatiladi.

Nazorat rejasining muhimligi:

- Termoelektrik generatorlarning samaradorligi ularning issiqlik va elektr parametrlarini aniq boshqarishga bog‘liq. Nazorat rejasi generatorning harorat gradientini, chiqish kuchlanishini va oqimni optimallashtirishga yordam beradi.


- Turli sharoitlarda (masalan, haroratning o‘zgarishi yoki yukning o‘zgarishi) generatorning barqaror ishlashini ta’minlash uchun moslashuvchan nazorat tizimlari zarur.

Natijalar.

Nazorat Rejasi (Control Plan)

<table>
<tr><td colspan="3">Ishlab chiqariladigan mahsulot</td><td rowspan="3">Hujjat raqami
CP– 01: 2024 y.</td><td colspan="3">Tasdiqlangan</td></tr>
<tr><td>Raqami</td><td colspan="2">Nomi</td><td>Mas’ul</td><td colspan="2">Tekshirdi</td></tr>
<tr><td>9451 7184</td><td colspan="2">Termoelektrik generator</td><td>L.Olimov, I.Xojimatov</td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td rowspan="2">N</td><td rowspan="2">Jarayon nomi</td><td rowspan="2">Jihoz nomi</td><td colspan="5">Nazorat qilish</td><td>Tekshiruvchi</td></tr>
<tr><td>Turi</td><td>Talab</td><td>Soni</td><td>O‘lchov vositasi</td><td>Ishchi</td><td>Nazo-ratchi</td></tr>
<tr><td>1</td><td>Xom-ashyoni tanlab olish</td><td>Kremniy plastinka</td><td>Tashqi ko‘rinish</td><td></td><td>dona</td><td>Ko‘z bilan </td><td></td><td>√</td></tr>
</table>

ISSN 3030-3907

2	Kremniy plastinkani tipini aniqlash	PIUS-3 qurilmasi	n yoki p	Qurilma ko‘rsatgichi			√	
3	Plastinkalarni kukun holagiga keltirish	Havoncha va to‘qmoq	Keramik	Metal aralashmalarisiz	dona		√	
4	Magnit maydon yordamida kukunlarni tozalash	Magnitlar	N va S qutbli					
4	Kukunlar o‘lchamini tekshirish	Mikroskop	Digital, 1600X	0.03 mm aniqlikda			√	
5	Kukunlar massasini o‘lchash	Elektron tarozi	220 V-50Hz	0.0001 gr aniqlikda			√	

ISSN 3030-3907

6	Kukunlarni to‘k kuchi va kuchlanishini o‘lchash	Keramik trubka	slindrik	1-2 mm				
7	Kuchlanishni o‘lchash	Digital multimetr	GW Instek	GDM-8245				
8	To‘k kuchini o‘lchash	Digital multimetr	GW Instek	GDM-8245				

Termoelektrik generatorning samaradorligini oshirish bo‘yicha aniqlangan asosiy omillarni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin, tadqiqot natijalariga ko‘ra, termoelektrik generatorning ishlash samaradorligi harorat farqi, material xususiyatlari, elektrik yuklamaning mosligi va issiqlik oqimini boshqarish kabi omillarga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Optimal sharoitda generatorning samaradorligi bir necha foizga oshirilishi mumkinligi kuzatildi. Nazorat rejasi va uning samaradorligi ishlab chiqilgan nazorat rejasi termoelektrik generatorning barqaror ishlashini ta’minlash uchun real vaqt rejimida harorat monitoringi, yuklama muvozanati va issiqlik oqimini boshqarish kabi funksiyalarni o‘z ichiga oldi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan nazorat rejasi sanoat yoki boshqa texnologik jarayonlarda qo‘llash uchun mos ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, chiqindi

ISSN 3030-3907

issiqlikdan elektr energiyasi olish jarayonlarida bu tizim samarali ekanligi tasdiqlandi.

Muhokama.

Ushbu tadqiqot natijalari termoelektrik generatorlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim ahamiyatga ega. Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan solishtirilganda, ishlab chiqilgan nazorat rejasi termoelektrik tizimlarning ishlash barqarorligini oshirish va termal stressni kamaytirish imkonini berishini ko‘rsatdi [6]. Xususan, harorat monitoringi va yuklama balansini avtomatlashtirish orqali energiya konversiya jarayoni bir necha foizga yaxshilanganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo‘lib, ular tizimni real sharoitda uzoq muddatli sinovlardan o‘tkazish va boshqa termoelektrik materiallar bilan eksperimentlar olib borish zaruratini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, nazorat tizimining ishlash samaradorligini oshirish uchun yanada rivojlangan algoritmlar yoki sun’iy intellekt yondashuvlarini integratsiya qilish mumkin.

Zamonaviy nazorat usullari sifatida zamonaviy nazorat tizimlarida PID (Proportional-Integral-Derivative) regulyatorlar, fuzzli mantiq (fuzzy logic), neyron tarmoqlar va boshqa ilg‘or algoritmlar qo‘llaniladi. Bu usullar generatorning dinamik sharoitlarda ham samarali ishlashini ta’minlaydi. Masalan, fuzzli mantiq asosidagi nazorat tizimlari noaniq sharoitlarda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu esa generatorning ishlashini yanada moslashuvchan qiladi.

Amaliy tatbiqlar va kelajakdagi istiqbollari sifatida esa, termoelektrik generatorlar yangi energiya manbalari sifatida qayta tiklanadigan energiya tizimlarida keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Masalan, quyosh panellari bilan integratsiyalashgan tizimlar energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Kelajakda nanomateriallar va yangi termoelektrik materiallarning rivojlanishi bilan generatorlarning samaradorligi yanada oshadi, bu esa ularni kengroq qo‘llash imkoniyatini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu tadqiqotda termoelektrik generatorning nazorat rejasini ishlab chiqish va uning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, samarali nazorat tizimi termoelektrik generatorlarning energiya konversiya jarayonini optimallashtirish, termal stressni kamaytirish va qurilmaning ishlash barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan nazorat rejasi quyidagi asosiy natijalarga olib keldi:

-harorat farqini optimal saqlash orqali energiyani o‘zlashtirish samaradorligi oshdi.

ISSN 3030-3907

-elektrik yuklamani avtomatik boshqarish orqali termoelektrik materiallarning ishlash muddati uzaytirildi.

-nazorat tizimi tufayli termoelektrik generatorning umumiy samaradorligi bir necha foizga oshdi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan nazorat tizimi sanoatdagi chiqindi issiqlikdan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligini ta’minlash kabi yo‘nalishlarda qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Zahrasadat Tabaie, Amir Omidvar. Human body heat-driven thermoelectric generators as a sustainable power supply for wearable electronic devices: Recent advances, challenges, and future perspectives. Volume 9, Issue 4, April 2023, e14707. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e14707
2. Osman Can Ozcanli, Former Contributor. Turning Body Heat Into Electricity. https://www.forbes.com/sites/osmancanozcanli/
3. Goldsmid, H. J. (2010). *Introduction to Thermoelectricity*. Springer.
4. Rowe, D. M. (2006). *Thermoelectrics Handbook: Macro to Nano*. CRC Press.
5. Snyder, G. J., & Toberer, E. S. (2008). “Complex thermoelectric materials.” *Nature Materials*, **7**(2), 105-114.
6. Shakouri, A. (2011). “Recent developments in semiconductor thermoelectric physics and materials.” *Annual Review of Materials Research*, **41**, 399-431.

ISSN 3030-3907

NORFLOKSATSINNING Cu (II) IONI BILAN HOSIL QILGAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA HIRSHFELD SIRT TAHLILI

Rasulov A.A.
Termiz iqtisodiyot va serviz universiteti, Tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD, v.b dots
Tashpulatov T.A.
Termiz iqtisodiyot va serviz universiteti, Tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Suyunov J.R.
Termiz davlat universiteti, Analitik kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
Yeshimbetov A.G.
O‘zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi
Ashurov J.M.
O‘zR FA O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, Kompleks birikmalar laboratoriyasi mudiri, Kimyo fanlari doktori, professor
E-mail: abdusamat_rasulov@tues.uz
https://orcid.org/0009-0005-3905-5556
Tel: +99899-420-57-34

Annotatsiya. Norfloksatsin (NL)ning $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ bilan sirka kislotali muhitidagi o‘zaro ta’siridan $[Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^- \cdot 2H_2O$ tarkibli yangi metallokompleks birikma sintez qilindi. Ushbu metallokompleks birikmaning tarkibi, molekulyar va kristall tuzilishlari rentgen tuzilish tahlili (RTT) yordamida tadqiq etildi. Uning molekulyar massasi 574.02 bo‘lib, kristallari triklinik singoniya hosil qilgan, fazoviy shakli esa *P-1* guruhga mansub. RTT tahlilida olingan ma’lumotlar asosida kompleks birikmaning Hirshfeld sirt tahlili qilindi va molekulalararo π-π yuzma-yuz ta’sirlashish masofalari hisoblab chiqildi. Bunda kristaldagi atomlarning o‘zaro ta’sirlarining asosiy qismi H…H (40.7%), H…O/O…H (31.3%) bog‘lari hissasiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

Tayanch so‘zlar: norfloksatsin, mis (II) sulfat, sirka kislota, π-π yuzma-yuz ta’sirlashuv, Hirshfeld yuzasi tahlili.

Аннотация. Норфлоксatsin (NL) в реакции с $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ в уксуснокислой среде синтезировал новое металлическое комплексное соединение с составом $[Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^- \cdot 2H_2O$. Состав, молекулярная и кристаллическая структуры этого металлического комплексного соединения были исследованы с помощью рентгеновского структурного анализа (PCA). Его молекулярная масса составляет 574.02, и он образует кристаллы с триклинной симметрией, относящейся к пространственной группе *P-1*. На основе данных, полученных в результате PCA, был проведен анализ

ISSN 3030-3907

поверхности Хиршфельда комплексного соединения, и были рассчитаны расстояния взаимодействия π-π между молекулами. Установлено, что основная часть взаимодействий между атомами в кристалле соответствует взаимодействиям H…H (40.7%) и H…O/O…H (31.3%).

Ключевые слова: норфлоксatsin, сульфат меди (II), уксусная кислота, π-π взаимодействие, анализ поверхности Хиршфельда.

Abstract. Norfloksacin (NL) reacted with $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ in an acetic acid medium to synthesize a new metal complex compound with the composition $[Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^- \cdot 2H_2O$. The composition, molecular, and crystal structures of this metal complex compound were investigated using X-ray structure analysis (XSA). Its molecular mass is 574.02, and it forms crystals with a triclinic symmetry, belonging to the P-1 space group. Based on the data obtained from XSA analysis, a Hirshfeld surface analysis of the complex compound was conducted, and the π-π stacking interaction distances between the molecules were calculated. It was found that the main part of the interactions between the atoms in the crystal corresponds to H…H (40.7%) and H…O/O…H (31.3%) interactions..

Key words: norfloksacin, copper(II) sulfate, acetic acid, π-π interaction, Hirshfeld surface analysis.

Kirish.

Bugungi kunda sotuvda mavjud bo‘lgan dori vositalarining ta’siriga chidamli bo‘lgan zararli mikroorganizm shtammlarining paydo bo‘lishi hamda ularning faoliyati oqibatida aholi orasida turli kasalliklar ko‘payishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda kimyogarlar, biologlar, formatseftika va tibbiyot sohasi vakillarining zimmasiga juda muhim vazifalar yuklanadi, ya’ni zararli mikroorganizmlarga qarshi samarali ta’sir ko‘rsata oladigan yangi dori vositalarini yaratish vazifasini qo‘yadi. Mavjud dori vositalaridagi ta’sir etuvchi moddaning miqdorini kamaytirib, ta’sir doirasini oshirish muhim vazifadir. Buning uchun dori vositalari tarkibidagi biofaol moddaning boshqa biofaol moddalar bilan suvda eruvchan hosilalarini: organik tuzlarini, biologik faol bo‘lgan metallar bilan kompleks birikmalarni sintez qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday kompleks birikmalarda sinergizm hodisasi kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko‘p hollarda alohida dori vositasining metallokompleks birikmalari erkin ligandga nisbatan faol bo‘lishi aniqlangan [1]. Keng spektrli ta’sir doirasiga ega bo‘lgan ftorxinolonlar guruhiga mansub dori vositasi sifatida qo‘llanilib kelinayotgan norfloksatsin (NL) eng samarali ftorxinolonlardan biri hisoblanadi [2]. U tibbiyotda ovqat hazm qilish va peshob yo‘llari infeksiyalarida, teri, o‘pka, prostata va boshqa kasallik qo‘zg‘atuvchi

ISSN 3030-3907


infeksiyalarga samarali ta’sir ko‘rsatadi [3]. NLning suvda eruvchanligi kam bo‘lganligi uchun, uning suvda eruvchan hamda biologik jihatdan faol bo‘lgan metallokompleks birikmalarini sintez qilish muhim ahamiyat ega [4]. Yetakchi olimlar tomonidan NL ning metallokompleks birikmalari sintez qilingan va o‘rganilgan [5]. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan ham NL ning Co(II) ioni bilan kompleks birikmasi sintez qilinib, tuzilishi va xossalari o‘rganilgan [6-7]. Shu bilan birga aromatik birikmalarning Ni(II) ioni bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintez qilinib, kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, kristall qadoqlanishi, vodorod bog‘lar geometriyasi, rentgen ma’lumotlari asosida yoritilgan [8]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, NL ning metallar bilan kompleks birikmalarini sintez qilish hamda olingan kompleksning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish mazkur tadqiqot ishining maqsadi sifatida tanlandi. Maqsadni amalga oshirish uchun NL ning Cu (II) ioni bilan kompleks birikmasi sintezi amalga oshirildi. Olingan yangi kompleks birikmaning kristall va molekulyar tuzilishi RTT usulida tahlil qilindi hamda Hirshfeld sirt yuzasi tahlillari olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy usullari sifatida xona haroratida avtomatik *Xcalibur R Oxford Diffraction* difraktometri yordamida amalga oshirilgan rentgen kristallografiyasi qo‘llanilgan. Sintez qilingan kompleks birikmaning kristall tahlanishidagi molekulalararo vodorod aloqalar Olx2 [9] usulida aniqlandi. Shuningdek Crystal Explorer17.5 [10] dasturi yordamida Hirshfeld sirt tahlillari o‘tkazildi.

Tajribaviy qism. Ushbu tajribada NL ning suvda kam erishi inobatga olinib reaksiya kislotali muhitda olib borildi. 50 ml suvga muz sirka kislota aralashtirilib pH=5 ga teng bo‘lgan erituvchi tayyorlandi. Tayyorlangan erituvchidan 5 ml olinib, unda ligand NL (0.1mmol = 0.0319 mg) eritilib tiniq eritma olindi. $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ (0.1mmol = 0.0250 mg) esa suvda eritib tiniq eritma olindi. Eritmalar 1 : 1 mol (NL : $CuSO_4 \cdot 5H_2O$) nisbatda aralashtilganda tiniq bo‘lmagan eritma olindi. Shu eritma muhitini neytral qilish maqsadida DEA dan tomchilatib aralashtirib turildi. Neytral muhitda eritma tiniqlashmadi. Shu eritmaga suyultirilgan xlorid kislota eritmasidan tomizilib kuchsiz kislotali ya’ni pH=6 ga teng bo‘lgan muhit hosil qilinganda eritma tiniqlashdi. Eritma xona haroratida bug‘latish uchun qoldirildi. Tahminan 15-20 kundan so‘ng to‘q ko‘k rangli kristallar hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan kristallar orasidan RTT da o‘lchamlari 0.1-0.4 mm bo‘lgan yaroqli kristall ajratilib tekshirilganda tarkibi $[Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^- \cdot 2H_2O$ bo‘lgan geteroligandli kompleks birikma ekanligi aniqlandi. Kompleksning sintez reaksiyasi tenglamasi 1-sxemada keltirilgan. Haroratning past bo‘lishi eritmadan sirka kislota molekulasining uchib bug‘lanishini sekinlashtiradi, natijada kristallanish jarayonida qatnashishiga sababchi bo‘lgan. pH=5 ga teng bo‘lgan


ISSN 3030-3907

eritmada EDA ni sirka kislota neytrallagan. Shu sababli kristallanish jarayonida EDA molekulasi qatnashmagan. Reaksiya unumi 72%.



1-rasm. [Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O kompleksning sintez sxemasi

Olingan natijalar tahlili. Mazkur ishda NL ning Cu (II) bilan yangi metallokompleks birikmasini sintez qilindi. Bu kompleks birikma [Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O tarkibli bo‘lib, kristalining elementar yacheykasi parametrlaridan singoniyasi triklinik, fazoviy guruhi *P-1*.




2-rasm. [Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O kompleks birikmasining tuzilish sxemasi

[Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O bu kompleks birikmada svitter ion ko‘rinishidagi NL molekulasi bidentat ligandlar sifatida, sirka kislota anioni va sirka kislota molekulalari monodentat ligandlar sifatida qatnashgan. Cu^{2+} ioni tekis

ISSN 3030-3907

kvadrat koordinatsiyaga ega bo‘lib, ligand NL molekulasi donor-akseptor va ion bog‘lar orqali, sirka kislota anioni metall ioni bilan ion bog‘lar orqali, qo‘shimcha sirka kislota molekulasi esa donor-akseptor holatda koordinatsiyalanib buzilgan kvadrat tuzilishli kompleks hosil qiladi (2-rasm). Kompleksning tashqi sferasida bitta xlorid anioni hamda ikkita suv molekulalari ham bor.

Kompleks birikmadagi markaziy atom sp^2d holatda gibridlangan bo‘lib, Cu^{2+} bilan bog‘langan NL atomlarning ekvatorial O_1-Cu va O_3-Cu bog‘ uzunliklari mos ravishda 1.919 Å ва 1.931 Å, bog‘ burchaklari O_1-Cu-O_3 93.39° ga teng bo‘lsa, sirka kislota anionini ekvatorial O_4-Cu bog‘uzunligi 1.989 Å, sirka kislota molekulasining ekvatorial O_6-Cu bog‘ uzunligi 1.938 Å (3-rasm). Olingan kompleks birikma ichki sferasidagi sirka kislota molekulasining kislorodi bilan tashqi sferadagi suvning vodorod atomi o‘rtasida, shu suvning kislorod atomi qo‘shni suv molekulasining vodorod atomlari o‘rtasidagi vodorod bog‘lar hisobiga molekulasi barqarorlashgan (3-rasm va 1-jadval).



3-rasm. [Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^-·2H_2O kompleksning molekulyar tuzilishi hamda ekvatorial va aksial bog‘ uzunliklari ifodalangan

1-jadval

[Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^-·2H_2O kristalldagi vodorod bog‘lanishlarning geometrik parametrlari


ISSN 3030-3907

Bog‘ D–H···A	Masofa, Å			Burchak D–H···A, grad.
	D—H	H…A	D…A	D—H…A
N3–H3A…O2	0.8900	1.8300	2.700(5)	166.00
N3–H3B…O5	0.8900	1.7900	2.669(5)	169.00
O7–H7…O8	0.8200	2.5100	2.843(6)	106.00
O8–H8A…O4	0.8500	2.2700	2.954(5)	138.00
O8–H8B…O7	0.8500	2.0100	2.843(6)	167.00
O9–H9A…O8	0.8500	1.9300	2.770(7)	170.00

Ekvivalent atomlarni hosil qilish uchun ishlatiladigan simmetriya o‘zgarishlari:

 # -1+x,-1+y,z # -x,1-y,1-z # 2-x,2-y,2-z # 1+x,y,z #

Aralash ligandli kompleks birikmada NLning karboksil guruhi kislorod atomi metall bilan bog‘lanib kompleks birikmalar hosil qilishi RTT bilan aniqlandi. Sintez qilingan kompleks poliedrida koordinatsion soni to‘rtga teng bo‘lib, bittadan sirka kislota anioni va molekulasi hamda bitta svitter ion ko‘rinishidagi NL molekulasi bilan bidentat holatdagi teks kvadrat tuzilishga yaqin kompleks birikma hosil qilgan. Kompleksning kristall yacheykasida molekulalar bir kompleksning piperazin halqasidagi to‘rtlamchi azot atomining vodorod hamda ikkinchi kompleksning kislorod atomlari o‘rtasida hosil bo‘lgan molekulalararo vodorod bog‘lar orqali bog‘lanib kristalni mustahkamlagan (4-rasm).




4-rasm. $[Cu(NLH)(AcO^-)(AcOH)]Cl^-\cdot 2H_2O$ kompleksning kristall tuzilishidagi molekulalararo vodorod bog‘lar punktir chiziqlar bilan ifodalangan

Kompleksning kristall yacheykasida molekulalararo o‘zaro ta’sirlar xarakterini tavsiflash uchun Hirshfeld yuzasi tahlili amalga oshirildi.


ISSN 3030-3907

[Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O kompleks kristalining d_{norm} maydoni hajmi 532.51 Å^3, yuzasi 495.87 Å^2 da, o‘lchamlari -0.7275 (qizil) 1.8025 a.m.b. (ko‘k) gacha ko‘rildi va tashqi (d_e) va ichki (d_i) masofalarni eng yaqin yadrogacha hisoblash yo‘li bilan aniqlandi. Hirshfeld sirt yuzasida ta’sir hissasi kam bo‘lgan nuqtalar ko‘k rang bilan bo‘yalgan, ta’sir hissasi yuqori bo‘lgan nuqtalar qizil rang bilan ko‘rsatilgan (4-rasm, a).



4-rasm. [Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O tarkibli kompleks birikmaning Hirshfeld yuzasi tahlilining sirt xususiyatlari tasviri: (a) d_{norm}; (b) di; (c) de; (d) Shakl Indeksi; (e) Egrilik; (f) qismlarga bo‘linish

[Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O kompleks birikmadagi kristall taxlanishning shakllanishida individual o‘zaro ta’sirlarning hissasini ko‘rsatuvchi d_e va d_i funksiyalari yordamida olingan ikki o‘lchamli barmoq izlari sohasi chizmalarining tahlili natijasida, H…H (40.7%), H…O/O…H (31.3%), o‘zaro ta’sirlashuvlar Hirshfeld sirt yuzasida eng ko‘p hissa qo‘shishi aniqlandi (11-rasm).



5-rasm. [Cu(HL)(as)(asH)]Cl·2H$_2$O tarkibli kompleks kristallida o‘zaro


ISSN 3030-3907

H…H, H…O/O…H, H…C/C…H va H…Cl/Cl…H ta’sirlashuvlarni ifodalovchi d_{norm} bo‘yicha xaritalangan uch o‘lchamli Hirshfeld yuzasi, hamda ikki o‘lchovli barmoq izlari maydoni

[Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O kompleksdagi qolgan ta’sirlashuvlardan H…C/C…H (6.6%), H…Cl/Cl…H (6.3%), C…C (5.6%), H…F/F…H (4.0%) ta’sirlar ham sezilarli bo‘lgan holda, O…C/C…O (1.1%), F…O/O…F (0.8%), H…Cu/Cu…H (0.8%), N…O/O...N (0.6%), N…C/C…N (0.5%), Cl…F/F…Cl (0.5%), O…Cl/Cl…O (0.4%), F…C/C…F (0.4%), H…N/N…H (0.4%) ta’sirlarning hissasi kamroqni tashkil etadi. Ta’sirlashish hissalari aks ettirilgan diagramma 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. [Cu(HL)(as)(asH)]Cl·2H$_2$O tarkibli kompleksning Hirshfeld barmoq izi diagrammasi



a b

7-rasm. [Cu(NLH)(AcO$^-$)(AcOH)]Cl$^-$·2H$_2$O kompleks tarkibidagi Shakl Indeks bo‘yicha xaritalangan uch o‘lchamli Hirshfeld yuzasidagi π–π yuzma-yuz ta’sirlar (a), xinolon halqalardagi π–π yuzma-yuz ta’sir (b)

ISSN 3030-3907

Kompleks birikma molekulasida aromatik halqa bo‘lsa, halqalarning π–π yuzma-yuz ta’siri kuzatiladi. Bu π–π yuzma-yuz ta’sirlar kristall tizimining barqarorligini oshiradi (7-rasm). Molekulada aromatik halqalar orasida π–π yuzma-yuz ta’sirlar mavjudligi RTT da aniqlangan va Platon dasturida kesishmalar orasidagi masofa 3.788(2) Å, ekanligi isbotlangan [11].

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida norfloksatsinning mis (II) sulfatning penta gidrati bilan kompleks birikmasi sintez qilindi. Sintezning maqbul sharoiti ko‘rsatib berildi. Yangi kompleks birikmaning tarkibi, molekulyar va kristall tuzilishlari RTT yordamida aniqlandi. Kompleks tarkibidagi markaziy atomning sp^2d holatda gibridlanganligi teks kvadrat tuzilishga ega ekanligi bilan tushuntirildi. Kristall yacheykadagi tahlangan metallokomplekslar molekulalararo kuchli vodorod bog‘lar hamda xinolon halqaning aromatik qismida π-π yuzma-yuz ta’sirlashuvlar hisobiga kristalning mustahkamligi ortishiga sabab bo‘lganligi aniqlandi. Hirshfeld yuzasi tahlili bilan ham molekulalararo o‘zaro π-π ta’sirlar mavjudligi, hamda kristall taxlanishning shakllanishida individual o‘zaro ta’sirlarning hissasini ko‘rsatuvchi d_e va d_i funksiyalari yordamida olingan ikki o‘lchamli barmoq izlari sohasi chizmalarining tahlili natijasida, H…H (40.7%), H…O/O…H (31.3%) o‘zaro ta’sirlashuvlar Hirshfeld sirt yuzasida eng ko‘p hissa qo‘shishi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Y.-J. Huang, J. Zhang. Synthesis and characterization a series of Norfloxacin-transition metal complexes. Inorg. Chim. Acta, 2020, 501, 119244. https://doi.org/10.1016/j.ica.2019.119244

2. Živec, P., Perdih, F., Turel, I., Giester, G., & Psomas, G. Different types of copper complexes with the quinolone antimicrobial drugs ofloxacin and norfloxacin: Structure, DNA- and albumin-binding. J. Inorg. Biochem., 2012, 117, 35–47. https://doi.org/10.1016/j.jinorgbio.2012.08.008

3. Xu, Y., Jiang, L., & Mei, X. Supramolecular structures and physicochemical properties of norfloxacin salts. Acta Crystallographica Section B Structural Science, Crystal Engineering and Materials, 2014, 70(4), 750–760. https://doi.org/10.1107/S2052520614011718

4. Basavoju, S., Boström, D., & Velaga, S. P. Pharmaceutical Cocrystal and Salts of Norfloxacin. Crystal Growth & Design, 2006, 6(12), 2699–2708. https://doi.org/10.1021/cg060327x

5. Fang, T., Li, X., Wang, C. et al. The action of norfloxacin complexes on Tetrahymena investigated by microcalorimetry. J. Therm. Anal. Calorim., 2012, 109, 433–439. https://doi.org/10.1007/s10973-011-1674-7

ISSN 3030-3907

6. Rasulov A.A., Aralov X.A., Yeshimbetov A.G., Ashurov J.M. Norfloksatsinning Co (II) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasi sintezi va Hirshfeld sirt tahlili// NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. 3-son. – B. 46-53.

7. Rasulov A.A., Yeshimbetov A.G., Ashurov J.M., Ibragimov B.T. Co(II) ionlari va norfloksatsin asosidagi kompleks birikmaning sintezi va tahlili. O‘zbekiston Kimyo jurnali. – T., 2023. – № 4. – B. 10-17.

8. Suyunov J.R., Turaev Kh.Kh., Alimnazarov B.Kh., Ibragimov A.B., Mengnorov I.J., Rasulov A.A., Ashurov J.M., Synthesis and crystal structure of tetra-aqua-(ethylenediamine-N,N′)-nickel(II) naphthalene-1,5-disulfonate dihydrate. IUCR Data (International Union of Crystallography) 2023, 8, x231032 https://doi.org/10.1107/S2414314623010325

9. Olex² Crystallography Software. http:www.olexsys.org/Software.

10. Turner, M. J., McKinnon, J. J., Wolff, S. K., Grimwood, D. J., Spackman, P. R., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. 2017, Turner Crystal Explorer17. University of Western Australia. http://Hirshfeldsurface.net.

11. Rasulov A.A., Aralov K.A., Suyunov J.R., Ashurov J.M. Synthesis and hirschfeld surface analysis of the organic salt of norfloxacin with acetate anion // Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine, 2024. T. 3. – № 1. – B. 79-96 // https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss1.2024.254.

ISSN 3030-3907

EKOLOGIK TOZA ICHIMLIKLAR ISHLAB CHIQARISH UCHUN "SUPER-EKSTRAKSIYA" TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH

Kamolova Muxlisa Xudoyberdiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti doktoranti
Sanoyeva Gulsun Baxtiyorovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik toza ichimliklar ishlab chiqarishda "Super-ekstraksiya" texnologiyasini joriy etish imkoniyatlari o‘rganiladi. Ushbu usul meva va sabzavodlardan kimyoviy qo‘shimchalarsiz yuqori sifatli ekstraktlar olishga imkon beradi. Tadqiqotda texnologik jarayon bosqichlari, qurilmaning ishlash prinsipi va innovatsion afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonining ekologik xavfsizligi va energetik samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ekologik toza ichimliklar, super-ekstraksiya, bosim ostida ekstraksiya, tabiiy xom ashyo, fermentatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности внедрения технологии "Суперэкстракции" в производство экологически чистых напитков. Этот метод позволяет получать высококачественные экстракты фруктов и овощей без химических добавок. В исследовании рассматриваются этапы технологического процесса, принцип работы устройства и инноватsionные преимущества. Также анализируется экологичность и энергоэффективность производственного процесса.

Ключевые слова: экологически чистые напитки, суперэкстракция, экстракция под давлением, натуральное сырье, ферментатsiя.

Annotation: this article will explore the possibilities of introducing "Super-extraction" technology in the production of environmentally friendly drinks. This method allows you to get high-quality extracts from fruits and vegetables without chemical additives. The study examines the stages of the technological process, the principle of operation of the device and innovative advantages. Also, the environmental safety and energy efficiency of the production process are analyzed.

Keywords: environmentally friendly drinks, super-extraction, pressure extraction, natural raw materials, fermentation.

Kirish

Hozirgi kunda ekologik toza va sog‘lom mahsulotlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Sun’iy konservantlar va kimyoviy qo‘shimchalarga ega ichimliklarning iste’moli ko‘plab salomatlik muammolariga sabab bo‘layotgani sababli, tabiiy xom ashyolardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan,

ISSN 3030-3907

innovatsion texnologiyalar, jumladan, "Super-ekstraksiya" usulini qo‘llash orqali ekologik toza ichimliklar ishlab chiqarish istiqbollari dolzarb masala hisoblanadi.

Super-ekstraksiya texnologiyasi xom ashyodan biologik faol moddalarni maksimal darajada ajratib olish imkonini beradi. Ushbu usul past harorat va yuqori bosimdan foydalangan holda, tabiiy tarkibni saqlab qolish, energiya tejamkorlik hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi. Mazkur maqolada "Super-ekstraksiya" texnologiyasining mohiyati, afzalliklari va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Loyihaning qisqacha tavsifi: Super-ekstraksiya texnologiyasi yordamida mevalar va o‘simliklardan kimyoviy qo‘shimchalarsiz yuqori sifatli va foydali ekstraktlar olish mumkin bo‘ladi. Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan maksimal darajada foydali mahsulotlar olishga qaratilgan. Super-ekstraksiya usuli ekologik toza ichimliklarni ishlab chiqarishda qo‘llanilib, inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan tabiiy ekstraktlarni ajratib olish imkonini yaratadi.

Meva va sabzavodlardan ekologik toza ichimlik ishlab chiqarish qurilmasining mohiyati: Meva va sabzavodlardan ekologik toza ichimliklar ishlab chiqarish qurilmasi tabiiy xom ashyolar – meva va sabzavodlardan foydalangan holda, kimyoviy qo‘shimchalarsiz, yuqori sifatli hamda foydali ichimliklarni olish uchun mo‘ljallangan texnologik tizimdir. Ushbu qurilma yuqori bosim va past haroratda ekstraksiya jarayonini amalga oshiradi. Bu esa o‘simliklar va mevalardan maksimal foydali moddalarni ajratib olish imkonini beradi.

Qurilmaning texnik echimi va ishlash printsipi

1. **Xom ashyoni tayyorlash bloki:**
   - Meva va sabzavodlarni yuvish, maydalash, botqa holiga keltiring (blender yoki maydalagich yordamida).
2. **Ekstraksiya bloki:**
   - Sovuq suvli ekstraksiya: 4–8 soat davomida 4–5°C haroratda saqlash.
   - Bosim ostida ekstraksiya: 5–10 bar bosim ostida 2–4 soat davomida amalga oshiring.
   - **Filtrlash va tozalash bloki:** Ekstraktlar qog‘oz filtr orqali tozalanib, zararli aralashmalar ajrating.
   - **Saqlash va qadoqlash:**Tayyor ekstraktlar shisha yoki plastik idishlarga qadoqlanib, saqlash harorati nazorat qiling.

Qurilmaning innovatsion yondashuvi va foydaliligi

- Tabiiy, kimyoviy moddalarsiz sog‘lom ichimliklarni ishlab chiqarish imkonini yarating.

ISSN 3030-3907

- Ko‘p bosqichli boshqaruv tizimi mahsulot sifatini oshiring.
- Energiya tejamkor va ekologik xavfsiz.
- Mahalliy xom ashyolarga asoslangan bo‘lib, import o‘rnini bosuvchi texnologiya hisoblanadi.

Qurilmaning qo‘llanilish sohasi

- Oziq-ovqat sanoati
- Organik mahsulotlar ishlab chiqarish
- Parhez va sog‘lom ovqatlanish sohasi
- Qishloq xo‘jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlash

Xulosa va takliflar

- Qurilmani sanoat miqyosida ishlab chiqarishga joriy etish orqali mahalliy ichimliklar bozori kengaytiriladi.
- Ekologik mahsulotlar eksport salohiyatini oshirish imkoniyati yaratiladi.
- Texnologiyaning modulli tuzilishi uni turli xom ashyolarga moslashtirishga imkon beradi.

Tajriba olib borish tartibi

Maqsad:"Super-ekstraksiya" texnologiyasidan foydalangan holda ekologik toza ichimliklar ishlab chiqarish.

Reaktivlar

- Distillangan suv
- Organik mevalar (olma, limon, gilos, apelsin...)
- Dorivor o‘simliklar (yalpiz, zanjabil, limon balzami)
- Organik fermentlar (xamirturush, probiotik bakteriyalar)

Asboblar

- maydalagich
- yopiq shisha idishlar (fermentatsiya uchun)
- termometr (issiqlik nazorati uchun)
- pH o‘lchagich
- sovutish va bosim uskunalari
- filtrlash uchun qog‘oz filtr
- shisha yoki plastik idishlar (tayyor ekstraktlarni saqlash uchun)

Jarayon ketma-ketligi

1. **Xom ashyolarni tayyorlash:**
   - Meva yoki o‘simliklarni yaxshilab yuvib, mayda bo‘laklarga bo‘ling.
   - Blender yoki maydalagich yordamida botqa holiga keltiring.
   - Tayyorlangan botqani shisha yoki zanglamaydigan po‘lat idishga joylashtiring.
2. **Ekstraksiya jarayoni:**

ISSN 3030-3907

- **Usul 1: Sovuq suvli ekstraksiya**
  - Tayyorlangan xom ashyoga sovuq suv qo‘shing (1:2 nisbatda).
  - Aralashmani 4-8 soat davomida 4-5°C haroratda saqlang.
  - Filtrlash orqali suyultirilgan ekstraktni ajratib oling.
- **Usul 2: Bosim ostida ekstraksiya**
  - Tayyorlangan botqani bosimli idishga joylashtiring.
  - 5-10 bar bosim ostida 2-4 soat davomida saqlang.
  - Filtrlash orqali tayyor ekstraktni ajratib oling.

3. **Fermentatsiya jarayoni:**
   - Olingan ekstraktga organik ferment yoki tabiiy xamirturush qo‘shing.
   - Fermentatsiya jarayonini 20-30°C haroratda 24-48 soat davomida nazorat qiling.
   - Harorat va pH darajasini kuzatish (pH 3,5-4,5 oralig‘ida bo‘lishi kerak).
   - Fermentatsiya tugagach, mahsulotni yana bir marta filtrlang.
4. **Tayyor mahsulotni saqlash:**
   - Olingan ekstraktni steril idishlarga quying.
   - 0-5°C haroratda saqlang.
   - Mahsulot sifatini tekshirish va ta’mi bo‘yicha baholang.

Xulosa: Yuqori bosim va past harorat asosida ishlaydigan "Super-ekstraksiya" texnologiyasi tabiiy mahsulotlardan maksimal foydali moddalarni ajratib olish imkonini yaratadi. Ushbu usul kimyoviy konservantlarsiz ekologik toza ichimliklar ishlab chiqarishni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiya oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, parhez mahsulotlar tayyorlash va ekologik xavfsiz ichimliklar yaratish sohalarida samarali natijalar beradi.

- Qurilmani sanoat miqyosida ishlab chiqarishga joriy etish orqali mahalliy ichimliklar bozori kengaytiriladi.
- Ekologik mahsulotlar eksport salohiyatini oshirish imkoniyati yaratiladi.
- Texnologiyaning modulli tuzilishi uni turli xom ashyolarga moslashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith, J. (2020). *Advanced Extraction Technologies for Natural Products*. Springer.
2. Brown, K. (2018). *Eco-friendly Beverage Production Methods*. Elsevier.
3. O‘zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizlik bo‘yicha normativ hujjatlari (2022).

ISSN 3030-3907

4. Qosimov A. va boshqalar (2021). *Meva va sabzavodlarni sanoat miqyosida qayta ishlash texnologiyalari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. International Food Safety Standards (2023). *Guidelines for Organic Beverage Production*. FAO.
6. Khudoyberdiyevna, K. M., & Furkat ogli, S. M. (2022). Main Requirements of the O'zDSt ISO\IEC Standard 17021: 2009. Texas Journal of Engineering and Technology, 8, 4-9.
7. Khudoyberdiyevna, K. M., & Furkat ogli, S. M. (2022). Main Requirements of the O'zDSt ISO\IEC Standard 17021: 2009. Texas Journal of Engineering and Technology, 8, 4-9.
8. Xudoyberdiyevna, K. M. (2023). Management System Requirements for Certification Bodies. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(5), 620-624.
9. Kamolova, M. X., Boltayev, B. O., & Kamalova, M. X. (2022). Sifat menedjmenti tizimini sertifikatlashtirish talablari. Science and Education, 3(12), 315-320.

ISSN 3030-3907

УДК .691.327

ПОЛИМЕР ТЎРТЛАМЧИ ТУЗЛАР ҚЎШИЛГАН БЕТОН МАХСУЛОТЛАРИНИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИ

Н.Х. Махмудова
ТДТУ т.ф.н., доцент,
E-mail:naimamahmudova5481@gmail.com

Аннотация. Фан ва амалиёт учун мухим хоссаларга эга бўлган сиртфаол қўшимчалар катион русимидаги ВПК-102 ва полидиметал-бензилэмитил-акриоил-аммоний-хлорид янги полимер қўшимчаларининг бетоннинг хусусиятига, сувга бардошлилига, механик мустаҳкамлиги ва бетоннинг қотиш жараёнини тезлаштиришга боғлиқ тадқиқотлар натижалари берилган.
Калит сўзлар: полимер қўшимчалар, пластик мустахкамлик, гидрофоб хусусиятли, индукция даври, гидротatsiя, термодинамик холат, иссиқ бардошлилик, қовушқоқлик, модификatsiя.
Аннотация. Приведены результаты исследований свойств бетона, водостойкости, механической прочности и ускорения процесса твердения бетона новых полимерных добавок ВПК-102 и полидиметилл-бензил-метилакрило-аммонийхлорида, обладающих важными для науки и практики свойствами.
Ключевые слова: полимерные добавки, пластическая прочность, гидрофобные свойства, индукционный период, гидратatsiя, термодинамическое состояние, термостойкость, вязкость, модификatsiя.
Abstract: The results of studies related to properties of concrete, water resistance, mechanical strength and acceleration of the concrete hardening process of VPK-102 and polydimetal-benzylmethyl-acryloyl-ammonium-chloride new polymer additives, which have important properties for science and practice, are given.
Key words: polymer additives, plastic strength, hydrophobic properties, induction period, hydration, thermodynamic state.

Кириш

Ҳозирги вақтда фан ва техника тараққиётининг ривожланиши халқ хўжалигининг барча соҳаларини жадъал суръатлар билан ўсишга олиб келмокда, шу билан бирга янги ва замон талабаларига мос бўлган қурилиш материаллари сифатига бўлган талаблар ҳам ошиб бормокда.

Бу борада полимер тўртламчи тузлар қўшилган қўшимчалар билан тайёрланган бетон маҳсулотлари эътиборни ўзига тортади. Катион русумидаги ВПК-102 ва полидиметал-бензилэмитил-акриоил-аммоний-хлорид янги полимер қўшимчаларининг бетоннинг хусусиятига, сувга

ISSN 3030-3907

бардошлилига, механик мустаҳкамлиги ва бетоннинг қотиш жараёнини тезлаштиришга боғлиқ тадқиқотлар ўтказилди.

Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, полимер қўшимчаларини сувли эритмалари бетон қоришмани аралашувини яхшилаб, қолибга жойлашишини онсонлаштирди. Полимер қўшимчаларини бетонга қўшиладиган оптимал қиймати /-2, -1, 0 +1, +2/ беш бутун даражадаги симметрик режа бўйича бўйича хисобланди.

1-жадвал

Қўшимчалар учун ўзгарувчан факторлар кўрсаткичлари

Кодлаштирилган Факторлар	**Ўзгарувчан факторлар**	**Факторлар**				
		2	1	0	1	2
X_1	ВРП-1 ПДМАААХ ПДМАЭМА ХБ (ёки ИБ,ББ)	0	0,25	0,5	0,75	1
X_2		0	0,0125	0,025	0,0375	0,05
X_3		0	0 ,0075	0,015	0,0225	0,03


Моделлар коэффициенти “ПОЛИНОМ” программаси бўйича аниқ ўлчанган энг кичик квадратлар методларидан аниқланди.

Қуйидаги шароитлар кузатилганда, яъни қўшимча киритилган бетоннинг термик ишловдан сўнгги мустахкамлиги (R^D_{nn}) эталонникидан кам бўлмаганда (R^0_{nn}) қўшимчалар киритилган бетон қоришмаси қониқарли деб топилди.

Цемент массасига нисбатан 0,01% ДМАЭМА-ХБ қўшимча қўшилганда, сувнинг цементга нисбати 0,4 см, конуснинг қолдиқ эритмаси 12-15 см ташкил қилди.

Бетоннинг пластиклик хусусияти ошиши натижасида ғоваклик хусусиятлари яхшиланди, шунингдек совуқ хароратга бардошлик хусусиятлари 18 % га ошди. Цемент қоришмасининг қотиш жараёнидаги пластиклик мустахкамлиги 15 минутда 371-376 Па га, 60 минутда эса 1780-1861 Па га ошганлиги кузатилди (1-расм).


ISSN 3030-3907



1-расм. Цемент қоришмасининг пластик мустахкамлигига қўшимчалар таъсирида қиёсланиши

1-қўшимчаларсиз: 5-0.01% ДМАЭМА-ИБ:
2-0.03% ПДМДААХ: 6-0.01% ДМАЭМА-ХБ:
3-0.01% ПДМДААХ: 7-0.03% ДМАЭМА-ХБ:
4-0.01% ДМАЭМА-ББ: 8-0.02% ВРП-1.

Бу тадқиқотларнинг олиниши ренгенограмма текширувларида тасдиқланди (2-расм).



2-расм. Иссиқ-нам ишлов берилган гидратланган цемент қоришмасининг 28 кундан сўнг олинган ренгенограммаси

1-қўшимчасиз, 2-ВРП-1-0,02% қўшимчали, 3-ПДМ ЭМА ХБ қўшимчали

ISSN 3030-3907

Минерал бирикмаларнинг гидротатсіясида бир қатор мураккаб физик- кимёвий ва физик-механик ўзгаришлар бўлиб ўтади. Бу жараён натижасида қўшимчаларнинг боғлиқлигида қотаётган цемент тошининг мустаҳкамлиги ва зичлиги, механик структуравий хусусиятлари аниқланади. Цемент қоришмасининг пластик мустаҳкамлигига қўшимчаларнинг таъсирини текшириш натижалари шуни кўрсатдики, ушбу қўшимчалар пластик мустаҳкамликни у ёки бу даражада оширади. Индукция даврини 4 соатдан 2 соатгача камайтириб, пластик мустаҳкамлигини юқори тезликда ўсишини таминлайди.

Қўшимчалари қўшиб таёрланган бетон махсулотлари мустаҳкамликка, чўзилиш ва сиқилишга синаш орқали аниқланди. Уларнинг сиқилишдаги мустаҳкамлиги 28 кун қотгандан кейин 40.0 МПа ни ташкил қилади, полимер қўшимчаларисиз таёрланган бетон махсулотларида бу кўрсатгич 2 маротаба кам, яъни 22.0 МПа ни ташкил қилди (2-жадвал).

2-жадвал

Қўшимчаларнинг бетон мустаҳкамлигига таъсири

№	Материалларнинг таркиби, 1 м^3/т	Конуснинг оқувчанлиги,см	Чўзилиш ва сиқилишдаги мустаҳкамлиги, МПа		
			1 кун	7 кун	28 кун
	Бетон маркаси 200	см			
1	Цемент – 0.413, Сув – 0.103, Қум – 0-384 Шағал – 0.616	4	14.9/2.1	19.1/2.7	21.4/3.06
2	Цемент – 0.413, Сув – 0.103, Қум – 0-384 Шағал – 0.616 Қўшимча – 0.004	15	21.2/3.0	25.0/3.6	30.7/4.2
3	Цемент – 0.376, Сув – 0.072, Қум – 0-384 Шағал – 0.616 Қўшимча – 0.003 Сув ва цемент 10% тежалганда	10	15.7/2.24	20.9/2.98	22.2/3.74

ISSN 3030-3907

Бизнинг фикримизча, гидрофоб хусусиятли катион русумли полимер қўшимчаларини киритилиши сиқилган ҳавони диспергatsiялаш натижасида бекик ғоваклар системасини ҳосил бўлишига имкон беради, дисперс системаси юза актив кучлар таъсирида қўшимчаларнинг янада фойдали термодинамик ҳолатга , цементнинг эрувчанлигига таъсир этиб, гидратнинг янги хосилалари шаклланишига олиб келади, бунда бир вақтнинг ўзида солват қобиқларини юпқаланиши ва озод юза энергиясининг ошиши содир бўлади.

Модификатsiяланган бетон махсулотларини иссиққа бардошлилиги текшируви ўтказилди, бунда 0,01% ПДМАЭМА.ХБ қўшилган бетонларда иссиқ бардошлилик ошгани аниқланди – масса исрофи 10% ташкил қилди (3-жадвал).

3-Жадвал

Полимер тўртламчи тузлари қўшилган цемент тошини гравиометрик термик анализ тахлили

Намуналарни номланиши	Массани исроф бўлиши%	
	1123 К	1273 К
Назоратдаги намуна	10	29
+0,01% ПДМАЭМА . ХБ	9	10
+0,02% ПДМАЭМА . ХБ	24	25
+0,01% ВРП-1	11	15
+0,02% ВРП-1	10	15

Текширилаётган бетон намуна ҳароратнинг оширилиши натижасида эндо- ва-экзо фаоллик камайди.

Хулоса. Шундай қилиб полимер тўртламчи тузларининг бетон қоришмасига қўшганда, махсулот мустахкамлиги, иссиқбардошлилиги ошди, бетоннинг қовушқоқлиги яхшиланди.

Тадқиқот ва текширувлар натижасида шуни хулоса қилиш мумкинки, конструкция махсулотлари сифатини полимер қўшимчалари ёрдамида ошириш билан бирга хом-ашё тежамкорлигига эришиш мумкин экан. Бунда конструкция таркибидаги арматура сарфи ҳам камаяди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

[1]. Н.Х.Махмудова. Исследование влияния поличетвертичных солей на адсорбирующую способность мономинералов.Журнал «Композиционные материалы» №1/2016 ст.14-16

ISSN 3030-3907

[2]. Ахмедов К.С. устойчивость и стурообразование в дисперсных системах. Ташкент: издательство «Фан», 1976-152ст.

[3]. Тагер А.А. Физико-химия полимеров.-М: Научный мир, 2007,-576с.

[4]. Makhmudova N.X.GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 9, Issue 12, Dec. (2021) “INCREASING THE STRENGTH OF STRUCTURE BASED ON COMPOSITE MATERIALS” 792-794.

[5]. Н.Х.Махмудова. “Усталостное разрушение бетона, модифицированного поличетвертичными солями”.Международная научно-техническая конференция «Композиционные материалы на основе техногенных отходов и местного сырья: состав, свойства и применение 16-17 сентября 2021г.ст174-175

[6]. Чеховский Ю.В. Повышение проницаемости бетона. – М.: Энергия1986. – 192 с.

ISSN 3030-3907

KIMYO FANIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH.

Rajabova Marjona Ravshan qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrasi o'qituvchisi
rajabovamarjona1104@gmail.com
+998-91-405-22-25

Anontatsiya: Ushbu mavzusi, kimyo sohasidagi yangi yutuqlar va innovatsion texnologiyalarni o'rganish va ularni turli sohalarda qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Bugungi kunda kimyo sanoatining turli sohalarida zamonaviy texnologiyalar, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish, va yangi materiallar ishlab chiqarish kabi masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu texnologiyalar, nanotexnologiya, biokimyo, va yashil kimyo kabi sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Kimyo sanoatida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, yangi mahsulotlar va materiallar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, va atrof-muhitga zarar etkazmasdan samarali texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Bu o'zgarishlar, nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki jamiyatda ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham hissa qo'shadi.

Kalit so`zi: Inovatsiya, ilyustrativ metod, evristik metod, demonstratsiya metodi, keys-stoli metod, bio-benzin, biokatalizatorlar.

Аннотация. Данная тема направлена на изучение новых достижений и инноватsионных технологий в области химии и их применение в различных областях. Сегодня в различных областях химической промышленности большое внимание уделяется таким вопросам, как современные технологии, обеспечение экологической безопасности, экономия ресурсов, повышение энергоэффективности, производство новых материалов. Эти технологии ведут к революционным изменениям в таких областях, как нанотехнологии, биохимия и зеленая химия.

Он помогает развивать инноватsионные технологии в химической промышленности, создавать новые продукты и материалы, оптимизировать производственные процессы, внедрять эффективные технологии без вреда для окружающей среды. Эти изменения способствуют не только экономическому развитию, но и экологической устойчивости общества.

Ключевые слова: Инноватсия, иллюстративный метод, эвристический метод, демонстратsионный метод, табличный метод, биобензин,биокатализаторы.

Abstract: This topic is aimed at studying new achievements and innovative technologies in the field of chemistry and studying the possibilities of their

ISSN 3030-3907

application in various fields. Today, in various branches of the chemical industry, much attention is paid to issues such as modern technologies, ensuring environmental safety, saving resources, increasing energy efficiency, and producing new materials. These technologies are leading to revolutionary changes in areas such as nanotechnology, biochemistry, and green chemistry.

The development of innovative technologies in the chemical industry helps to create new products and materials, optimize production processes, and introduce effective technologies without harming the environment. These changes contribute not only to economic development, but also to ensuring environmental sustainability in society.

Keywords: Innovation, illustrative method, heuristic method, demonstration method, case-table method, bio-gasoline, biocatalysts

Kirish


Bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiyoti va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan, kimyo fanida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Kimyo fanining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi nafaqat ilmiy bilimlarni oshirish, balki o'qituvchilar va talabalar uchun yangi pedagogik uslublarni tatbiq etish imkonini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida kimyo fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarni zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi[3;40-45-b].

Kimyo sohasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashiga, balki amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi materiallar va texnologiyalarni yaratishga olib keladi. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari, innovatsion loyihalar kabi texnologiyalar qo'llanilishi o'quv jarayonining sifatini yanada oshirib, talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Zamonaviy kimyo ta'limida innovatsion metodlarning qo'llanilishi talabalarning faolligini oshirish va bilim olish jarayonini samarali qilishda katta rol o'ynaydi. Bugungi kunda turli texnologiyalar yordamida o'qitish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Misollarni keltirgan holda usullarni kengaytirib ko'rib chiqamiz:

ISSN 3030-3907




Ilyustrativ metod: Zamonaviy laboratoriya asboblari va ko'rgazmali texnikalar yordamida talabalarga kimyoviy reaktsiyalarni ko'rsatish va tushuntirish imkoniyatlari yaratildi. Masalan, kimyo darslarida **kompyuter simulyatsiyalari** orqali turli kimyoviy reaksiyalarni virtual muhitda ko'rish mumkin. "ChemSketch" va "Avogadro" kabi dasturlar yordamida talaba molekulalarning 3D modellarini ko'rib, kimyoviy strukturalarni yanada yaxshiroq tushunishi mumkin. Bu usul nafaqat kimyoviy reaksiyalarni o'rganishda, balki o'quvchilarning interaktiv tarzda bilim olishida ham foydali.



Evristik metod: Talabalar o'qituvchining yo'riqnomasi bilan, real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali kimyo fanining turli jihatlarini o'rganadilar. Misol sifatida, yashil kimyo texnologiyalari o'rgatishda talabalarga atrof-muhitga zarar etkazmaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish vazifasi beriladi. Misol uchun, katta miqdordagi chiqindilarni qayta ishlash va uni kimyoviy jarayonlar orqali minimal zarar bilan ishlash talabalarga o'zlari hal qilishga imkon beradi. Bunday metod orqali talabalar amaliy muammolarni hal qilishda kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Demonstratsiya metodi: Bu metodda, talabalarga innovatsion laboratoriya uskunalari yordamida kimyoviy moddalar va reaksiyalarni ko'rsatish ta'minlanadi. Misol uchun, **“virtual” laboratoriyalar**da avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida kimyoviy tajribalar o'tkaziladi. Misol uchun, **mikroto'lqinli reaktorlar** orqali tezlashtirilgan kimyoviy reaksiyalarni ko'rsatish va ularning natijalarini real vaqtda ko'rish talabalarning jarayonni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bunday tizimlar yordamida o'quvchilar laboratoriya sharoitlarida xavfsiz va samarali ishlashni o'rganadilar[4;2-3-b].





ISSN 3030-3907

- **Keys-stoli metodi**: Bu metodda talabalar amaliyotda o'zlarining bilimlarini

sinashlari uchun **yashil kimyo** kabi muammolarni tahlil qilishadi. Masalan, **energiya samaradorligini oshirish** yoki **uglerod izini kamaytirish** kabi global ekologik muammolarni hal qilish uchun talabalar real hayotdagi sharoitlarda kimyoviy usullarni qidirib topishadi. "Case study" usulida o'quvchilar muayyan ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilib, ularga yangi va ekologik jihatdan toza texnologiyalarni taklif etadilar. Misol uchun, **bio-benzin** ishlab chiqarish texnologiyasini o'rganish, talabalarga atrof-muhitga zarar etkazmasdan energiya ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini tushunishga yordam beradi[1;120-130-b].

NATIJALAR

Zamonaviy texnologiyalarni kimyo o'qitish jarayonida qo'llashning natijalari quyidagi ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi:

- *Kompyuter simulyatsiyalari va interaktiv texnologiyalar yordamida talabalar kimyo fanini yanada chuqurroq o'rganishga qodir bo'lishdi.* Masalan, "**Molecular Dynamics"** simulyatsiyalari orqali molekulalar orasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganish, talabalarga molekulyar tuzilmalarni va reaksiyalarni aniqroq tushunishga imkon yaratdi. Bu yondashuv o'quvchilarga ilmiy va texnologik jarayonlar haqida kengroq tasavvur beradi.
- *Kimyoviy reaktsiyalarni virtual muhitda o'rganish orqali talabalar o'z bilimlarini xavfsiz va samarali tarzda amaliyotda qo'llashdi.* Bu texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa kimyo sohasida xavfli moddalar bilan ishlashda juda foydalidir.
- *Yashil kimyo va ekologik texnologiyalarni o'rgatish orqali talabalar atrof-muhitga*

zarar etkazmasdan yangi texnologiyalarni yaratishda o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Misol uchun, biologik parchalanadigan materiallar ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish orqali talabalar ekologik toza mahsulotlar yaratish texnologiyalarini o'rganishdi[2;40-100-b].

MUHOKAMA

Bugungi kunda kimyo fanida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli qilishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlari, ularning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu metodlar, ayniqsa, **bio-texnologiya**, **nanotexnologiya** va **yashil kimyo** sohalarida yangi yutuqlarga olib kelmoqda. Misol uchun, **biokatalizatorlar** orqali kimyoviy jarayonlarni yanada samarali va ekologik jihatdan xavfsiz tarzda amalga oshirish imkoniyati mavjud.

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni ta'lim tizimida kengroq tatbiq qilish uchun o'qituvchilarni maxsus kurslar bilan ta'minlash va zamonaviy laboratoriya uskunalari bilan jihozlash zarur.

XULOSA

Kimyo fanida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, nafaqat ilmiy bilimlarni oshirish, balki talabalarni real hayotdagi ekologik va ijtimoiy masalalarni hal qilishga tayyorlashga yordam beradi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni yanada samarali o'zlashtirishadi. Bu esa, o'z navbatida, yangi materiallar va texnologiyalarni ishlab chiqarish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, va resurslarni tejashga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.A. Ixtiyarova, D.J. Bekchanov, M.Sh. Ahadov (2020). *Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar.*
2. Ahadov M.Sh. ―Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar‖ darslik. ―Navoiy‖ nashiryoti.40-100 bet.
3. B.B.Sodiqov. D.M.Murodov. Kimyo fanini o‘qitishda kreativ va integrativ yondashuv. Monografiya.- Buxoro, “Sharq” nashriyoti.2024. 112 b.
4. B.B.Sodiqov. Kimyo fanini o‘qitishda kreativ va integrativ yondashuvning ahamiyati. Talim, fan va inovatsiya manaviy-marifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.2024. Bet 236-238b

ISSN 3030-3907

MAHALLIY O‘SIMLIKLAR TARKIBIDAN UMUMIY OQSIL MIQDORINI ANIQLASH

Kamolova Muxlisa Xudoyberdiyevna
BuxDTU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada kelдal usulidan foydalanib no‘xat mahsulotlarining umumiy oqsil miqdorini aniqlab tahlil qilingan. No‘xat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini baholashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning oziq-ovqat sanoatida va boshqa sohalarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tayanch so‘zlar: No‘xat, umumiy oqsil, Keldal usuli, ozuqaviy qiymat, azot miqdori, oqsil miqdori, tahlil, oziq-ovqat sanoati.

Аннотация. Статья была проанализирована с использованием метода келгала для определения общего содержания белка в продуктах из нута. Важное значение имеет оценка пищевой ценности продуктов из гороха, что расширяет возможности его использования в пищевой промышленности и других отраслях промышленности.

Ключевые слова: горох, общий белок, метод Келдала, пищевая ценность, содержание азота, содержание белка, анализ, пищевая промышленность.

Annotation: the article analyzed using the future method by determining the total protein content of pea products. It is important in assessing the nutritional value of pea products, expanding its potential for use in the food industry and other industries.

Keywords: peas, total protein, Keldal method, nutritional value, nitrogen content, protein content, analysis, food industry.

Kirish

No‘xat - bu o‘simliklarning eng qadimgi va eng keng tarqalgan bo‘lib, dunyoning ko‘plab mintaqalarida qishloq xo‘jaligi ekinlari sifatida etishtiriladi. No‘xat ozuqa qiymati yuqori bo‘lgan, ko‘plab biologik faol moddalarga boy bo‘lgan o‘simlik mahsuloti hisoblanadi. U inson organizmi uchun zarur bo‘lgan oqsillar, uglevodlar, yog‘lar, vitaminlar va minerallarga boydir. Ayniqsa, no‘xatdagi oqsil miqdori uning dietologik ahamiyatini oshiradi.

Oqsillar organizm uchun asosiy tuzilish moddalaridan biri hisoblanadi va ular hujayralar faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha fermentlar va gormonlarni tarkibiga oladi. Shuningdek, oqsillar mushaklar, immun tizimi, hujayra tuzilmasi va boshqa biologik jarayonlar uchun ham zarurdir. No‘xatdagi oqsillar, asosan, globulinlar va albuminlardan iborat bo‘lib, ular organizm tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Oqsillar tarkibida kiritilgan aminokislotalar organizmning o‘sish va rivojlanish jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

No‘xat mahsulotlarining ozuqaviy tarkibi turli ishlov berish usullari va tayyorlash texnologiyalariga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan, no‘xat kraxmali, no‘xat uni va no‘xat ekstrakti kabi mahsulotlar orasida oqsil miqdori sezilarli farqlarga ega. No‘xatning oqsil tarkibiga ta'sir etuvchi omillar orasida ekin sharoitlari, urug‘lik turi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulotni qayta ishlash usullari muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, no‘xat mahsulotlaridagi oqsil miqdorini aniq va ishonchli tarzda aniqlash zarurati tug‘iladi.

No‘xat mahsulotlaridagi oqsil miqdorini aniqlashda eng keng tarqalgan va ishonchli usullardan biri —**Keldal usuli** hisoblanadi. Ushbu usul, o‘zining oddiyligi va aniqligi bilan laboratoriyada keng qo‘llaniladi. Keldal usulida, avvalo, namunadagi azot miqdori aniqlanadi va keyinchalik bu miqdor oqsillarga o‘zgartiriladi. Oqsil miqdori aniqlanganda, azotning umumiy miqdori maxsus koeffitsiyentga ko‘paytiriladi (masalan, 6,38 koeffitsiyent bilan). Bu usul nafaqat no‘xat mahsulotlaridagi oqsil miqdorini aniqlashda, balki boshqa o‘simlik mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini baholashda ham samarali hisoblanadi.

Oqsil miqdorini aniqlash orqali no‘xat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini, ularning inson organizmi uchun foydaliligini va qishloq xo‘jaligi ekinlari sifatida ahamiyatini baholash mumkin. Shu bilan birga, no‘xat mahsulotlaridagi oqsil miqdori yuqori bo‘lganligi sababli, ular har xil sanoat tarmoqlarida, xususan, oziq-ovqat sanoatida, veterinariya va farmatsevtika sohalarida ham keng qo‘llaniladi.

No‘xat o‘simligidagi umumiy oqsil miqdorini aniqlash nafaqat uning oziq-ovqat sanoatidagi qo‘llanilishini baholash uchun, balki ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ham zarurdir. Oqsil miqdorini aniqlashning ishonchli usullaridan biri bo‘lgan keldal usuli orqali no‘xat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati to‘g‘risida aniq ma'lumotlarni oldik.

Tadqiqotning maqsadi — no‘xat mahsulotlaridagi umumiy oqsil miqdorini keldal usuli yordamida aniqlash va olingan natijalar asosida no‘xatning ozuqaviy qiymatini baholashdir.

Keldal usuli — bu o‘simlik va hayvon mahsulotlaridagi azot miqdorini aniqlash uchun keng qo‘llaniladigan klassik analitik usuldir. Bu usulning asosiy maqsadi ozuqaviy moddalar, ayniqsa oqsillar, tarkibidagi azot miqdorini aniqlashdir. Keldal usulining kimyoviy jarayonlarini batafsil tushuntirish uchun quyidagi bosqichlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Namuna tayyorlash va mineralizatsiya (qaynatish) bosqichi:

- Keldal usulining birinchi bosqichi — bu organik moddaning mineralizatsiyasi, ya'ni no‘xat mahsulotini konsentrlangan sulfat kislota (H_2SO_4) bilan qaynatishdir.

ISSN 3030-3907

- Bu bosqichda, organik material (masalan, no‘xatdan olingan namunalar) sulfat kislota bilan aralashtiriladi va qizdiriladi. Qaynatish jarayonida, organik modda azot (N) sulfat tuzlariga aylanadi, natijada ammoniy (NH_4^+) tuzlari hosil bo‘ladi. Sulfurik kislota o‘zining kislotali xususiyatlari bilan o‘simlik yoki hayvon mahsulotlaridagi organik moddalarga ta'sir qilib, azotli moddalarni tuzlarga aylantiradi.

2. Ammiakni ajratish (distillatsiya) bosqichi:

- Mineralizatsiya jarayonidan so‘ng, hosil bo‘lgan ammoniy tuzlar natriy gidroksidi (NaOH) eritmasi yordamida alkali muhitga o‘tkaziladi. Bu bosqichda ammiak (NH_3) gaz holiga keladi.

Ammiak gaz holida chiqariladi va kondensatsiyalanadi. Ammiakning havoga chiqish jarayoni — bu kashfiyotni amalga oshirishning muhim bosqichi. Bu ammiak keyinchalik titrlash orqali aniqlanadi.

3. Ammiakni titrlash (sarlavha va natijalarni hisoblash) bosqichi:

- Distillatsiyalangan ammiak natriy gidroksidi (NaOH) bilan titrlanadi. Bu bosqichda ammiakning miqdori, ya’ni azotning umumiy miqdori, titrlash orqali aniqlanadi.
- Titratsiya uchun ko‘pincha 0,05 mollar per litrlik sulfurik kislota (H_2SO_4) eritmasi ishlatiladi. Ammiakning titrlanish reaktsiyasi quyidagicha bo‘ladi:

NH3+H2SO4→NH4SO4NH_3 + H_2SO_4 \rightarrow NH_4SO_4NH3+H2SO4→NH4SO4

Titratsiya natijasida, sarflangan sulfurik kislota miqdori yordamida azotning umumiy miqdori hisoblanadi.

- Titrlashdan olingan natijalardan foydalanib, azotning massa ulushi va, keyinchalik, oqsil miqdori aniqlanadi. Azotning oqsillarga aylanishi uchun maxsus koeffitsiyent (6,38) qo‘llaymiz.

4. Natijalarni hisoblash:

- Keldal usulining so‘nggi bosqichi — bu azot miqdoridan oqsil miqdorini hisoblashdir. Agar azotning umumiy miqdori XXX bo‘lsa, oqsil miqdori quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

  Y=K×XY = K \times XY=K×X

  Bu erda:

  - ✓ YYY — oqsil miqdori,
  - ✓ KKK — azotni oqsillarga aylantirish uchun ishlatiladigan koeffitsiyent (no‘xat uchun 6,38),
  - ✓ XXX — azotning umumiy miqdori (foydalanilgan kislota va titrlash jarayoni orqali aniqlanadi).

Keldal usulining afzalliklari:

ISSN 3030-3907

- ✓ **Aniqlik va ishonchlilik:** Keldal usuli o‘simlik va hayvon mahsulotlaridagi azot miqdorini aniqlashda juda ishonchli va keng qo‘llaniladigan usuldir. Ushbu usul yordamida olingan natijalar yuqori darajada ishonchli hisoblanadi.
- ✓ **Ko‘p turdagi mahsulotlarga moslashuvchanlik:** Keldal usuli nafaqat o‘simlik mahsulotlari, balki hayvon mahsulotlari va o‘simliklar ekstraktlaridagi oqsil miqdorini aniqlash uchun ham qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalari:

No‘xat mahsulotlarining umumiy oqsil miqdori turli xil namunalarda quyidagi natijalarni ko‘rsatdi.

№	Namuna	Azot miqdori (%)	Oqsil miqdori (%)
1	No‘xat uni	3.48	22.21
2	No‘xat kraxmali	1.08	6.87
3	No‘xat spirtli ekstrakti	0.21	1.35
4	No‘xat ekstrakti haydalgan	0.29	1.88

Tahlil:

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, no‘xat uni eng yuqori oqsil miqdoriga ega bo‘lib, 22.21% oqsilni tashkil etdi. No‘xat kraxmali 6.87%, no‘xat spirtli ekstrakti 1.35%, va no‘xat ekstrakti haydalgan esa 1.88% oqsil miqdorini ko‘rsatdi. Bu natijalar no‘xat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

No‘xat o‘simligining oqsil miqdori tahlil qilinganda, uning qimmatli ozuqaviy tarkibi aniqlandi, bu esa uning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Keldal usuli no‘xat mahsulotlaridagi oqsil miqdorini aniqlashda samarali va ishonchli usul sifatida tavsiya etiladi. Olingan natijalar no‘xatni oqsil manbai sifatida qo‘llashni yanada asosli qiladi, ayniqsa o‘simlik asosidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Руководство по методам контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России, 2004.
2. Кьельдаль, Г. Аналитическая химия. Перевод с английского. Москва, 1997.
3. Khudoyberdiyevna, K. M., & Furkat ogli, S. M. (2022). Main Requirements of the O'zDSt ISO\IEC Standard 17021: 2009. Texas Journal of Engineering and Technology, 8, 4-9.

ISSN 3030-3907

4. Khudoyberdiyevna, K. M., & Furkat ogli, S. M. (2022). Main Requirements of the O'zDSt ISO\IEC Standard 17021: 2009. Texas Journal of Engineering and Technology, 8, 4-9.
5. Xudoyberdiyevna, K. M. (2023). Management System Requirements for Certification Bodies. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(5), 620-624.
6. Kamolova, M. X., Boltayev, B. O., & Kamalova, M. X. (2022). Sifat menedjmenti tizimini sertifikatlashtirish talablari. Science and Education, 3(12), 315-320.

ISSN 3030-3907

УДК 677. 01

XORIJIY PAXTA TOZALASH TEXNOLOGIK MASHINALARI BO‘YICHA IZLANISHLAR TAHLILI

Qarshiyev Olim Namozovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Xorijda ishlab chiqilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalagich (Sleaneg-“96” va ”120”) olti barabanli tozalash uskunasi. Hindistonning paxta tozalash korxonalarida Bajaj Steel Industries Ltd firmasining mayda iflosliklardan tozalash uskunalarian foydalaniladi. MQZN-10 rusumli regeneratsion kamerali paxtani mayda iflosliklardan va cho‘ziq shakldagi iflosliklardan tozalagich uskunasi. Paxtani mayda iflosliklardan tozalashning mahalliy va xorijiy texnologiyalar tahlilidan ko‘rinadiki uskunalarning tozalash samaradorligi paxtaning iflosligiga ko‘ra pasayishi mumkin va yuqori ish unumdorligida ishlash imkoniyati mavjud emas.

Kalit so‘zlar. paxta xomashyosi, aylanish chastotasi, tozalash samaradorligi, qoziqli barabani, prutokli baraban, qoziqlar, to‘rli yuza, harakat zonalari.

Аннотация. В статье хлопкоочистительная машина от мелких примесей зарубежной разработки (Sleaneg-“96” va ”120”) представляет собой шестибарабанное чистящее оборудование. На хлопкоочистительных заводах Индии используется небольшое грязеочистительное оборудование Bajaj Steel Industries Ltd. Оборудование для очистки камер регенератsии MQZN-10 для очистки хлопка от мелких примесей и примесей продолговатой формы. Из анализа отечественных и зарубежных технологий очистки хлопка от мелких примесей видно, что эффективность очистки оборудования может снизиться из-за загрязненности хлопка, и нет возможности работать с высокой производительностью.

Ключевые слова. хлопковое сырье, частота вращения, эффективность очистки, ворсовый барабан, проволочный барабан, ворсы, сетчатая поверхность, зоны движения.

Abstract. The article describes a six-drum cleaning equipment for cleaning cotton from small impurities (Sleaneg-“96” and “120”) developed abroad. Indian cotton ginning enterprises use equipment for cleaning small impurities from Bajaj Steel Industries Ltd. A regenerative chamber type MQZN-10 cotton cleaning equipment for cleaning small impurities and elongated impurities. An analysis of domestic and foreign technologies for cleaning cotton from small impurities shows that the cleaning efficiency of the equipment may decrease depending on the impurity of the cotton and there is no possibility of operating at high productivity.

ISSN 3030-3907

Keywords. cotton raw material, rotation frequency, cleaning efficiency, pile drum, protok drum, piles, mesh surface, movement zones.

Kirish


Xorijda ishlab chiqilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalagich (S1eaneg-“96” va ”120”) olti barabanli yaxlit metalli bo‘lib, uning eni ikki variantda -96” (2438 mm) va 120”(3045 mm) tayyorlanadi. Tozalagich gorizontal tekislikka nisbatan 30-45° burchak ostida joylashgan (1- rasm).

Tozalagich kolosniklari dumaloq yuzali simlardan 5-7 mm oraliqda yig‘ilgan. Tozalash uskunasining separator-tozalagich sifatida ishlatiladigan modelini turli variantlarda chiqariladi. To‘rli modellarni ishlab chiqarishdan maqsadi unumdorligi va tozalash samaradorligini oshirish, paxta sifatini saqlashdan iborat [1].

Paxta quvur orqali tuynukdan havo bilan aralashgan holda birinchi qoziqli barabanga tushadi. Qoziqli barabanlar havo oqimi yo‘nalishida aylanishi sababli, paxta titilgan holda qoziqli barabanlar ustida harakatlanib, oxirgi barabanga etgach, pastki qismga tushadi. So‘ngra paxta teskari yo‘nalishda harakatlanadi.

1-rasm. Olti barabanli tozalagich (Sleaneg-“96” va ”120”) ning texnologik sxemasi va tashqi ko‘rinishi


1-kirish tuynugi; 2-qoziqli barabanlar; 3-simli kolosnik; 4-tozalangan



paxtani chiqarish quvuri; 5-ifloslik bunkeri; 6-ko‘rish oynasi.

Hindistonning paxta tozalash korxonalarida Bajaj Steel Industries Ltd firmasining mayda iflosliklardan tozalash uskunalari qo‘llaniladi (2-rasm) [1].

ISSN 3030-3907



2-rasm. Hindistonning qiya tozalagichi

(Bajaj Steel Industries Ltd firmasining konstruksiyasi)

Ushbu tozalagichlarning tozalash samarasi o‘ta past bo‘lib, 12-15% ni tashkil etadi.

Paxtani mayda iflosliklardan tozalashning mahalliy va xorijiy texnologiyalar tahlilidan ko‘rinadiki uskunalarning tozalash samaradorligi paxtaning iflosligiga ko‘ra pasayishi mumkin va yuqori ish unumdorligida ishlash imkoniyati mavjud emas.

Barabanlar qoziqlari bilan paxtani titib, simli kolosniklar ustidan olib o‘tadi. Aylanuvchi barabanlar zarbasi va markazdan qochma kuch tasirida mayda iflosliklar simli kolosniklar orasidan tushib ketadi. Tozalangan paxta birinchi baraban tagidan quvur orqali keyingi jarayonga uzatiladi. Ajralib chiqqan ifloslik bunkerdan ifloslik uzatish transporteri yordamida chiqariladi [2] (3-rasm).

MQZN-10 rusumli regeneratsion kamerali paxta xomashyosini mayda iflosliklardan va cho‘ziq shakldagi iflosliklardan tozalagich tozalagichining sxemasi 3-rasmda keltirilgan. Tozalagich ta’minlovchi shaxta 1, oltita qoziqli barabanlar 2, ularning ostida joylashgan kolosnikli panjaralar 3, nov 4, ishqalovchi metall cho‘tka 5 va kolosnikli panjara 7 bilan ta’minlangan regeneratsion arrali baraban 6, ajratuvchi baraban 8, qoziqli baraban 9 va ajratuvchi qalqonchalar 10 bilan jihozlangan.

Tozalagichning ish tartibi quyidagicha; paxta tozalagichga ta’minlovchi shaxta 1 uzatiladi va u qoziqli barabanlarning 2 ta’siriga uchrab, baraban 9 yo‘nalishida ajratuvchi qalqoncha 10 bo‘ylab kolosnikli panjaralarga 3 tushadi va

ISSN 3030-3907

ular bo‘ylab qaytish yo‘nalishida yuqori qoziqli baraban 2 bo‘ylab to‘kish shaxtasiga 11 tushadi. Kolosnikli panjaralarda kolosniklar kattalashtirilgan 11mm li tirqish bilan o‘rnatilgan bo‘lib, buning oqibatida nafaqat mayda iflosliklar, balki cho‘ziq shakldagi iflosliklar, ya’ni barglarning shoxchalari, hosil shoxchalari, shoxchalar bo‘laklari va hokazolar ham paxtadan ajraladi. Kattalashtirilgan tirqishlar orqali paxtaning tolali chigitlari ham o‘tib ketib iflos aralashmalar bilan birga nov 4 bo‘ylab regeneratsion arrali barabanga 6 keladi va unga ishqalovchi metall cho‘tka 5 yopishib kolosnikli panjarada 7 tozalanadi.


Regeneratsiyalashgan paxtaning tolali chigitlari arrali barabandan ajratuvchi baraban yordamida ajratilib, qoziqli barabanlar 2 bilan tozalanayotgan paxta oqimiga qo‘shiladi. Regeneratsiyalovchi seksiyadan ajratilgan iflos aralashmalar yopiq nov bo‘ylab pol ostida o‘rnatilgan yig‘uvchi shnekka uzatiladi (rasmda ko‘rsatilmagan). MQZN-10 tozalagichini barcha ishchi organlarning harakati bitta 15 kVt li elektr yuritgich orqali amalga oshiriladi. Yo‘riqnomaga ko‘ra MQZN-10 tozalagichining tozalash samarasi mayda iflosliklar bo‘yicha 70 %, dan kam emas, 3 cho‘ziq shakldagi aralashmalar bo‘yicha 35 % dan kam emas.

Chet el amaliyotida, paxta tozalash mashinalarining jihozlari va kompleksi AQSh firmalari: «Murrey» «Kontinental Moss-Igl» va «Kontinental Konsolideyshn» tomonidan ishlab chiqarilgan [49, 50, 51]. Paxtani tozalash texnologik jarayoni vertikal tekislikda joylashgan ko‘p yarusli jihozlarda amalga oshiriladi, tozalash agregatlari hajmining kattaligi va jihozlarga xizmat ko‘rsatishning murakkabligidadir.

Texnologik jarayonni to‘liq avtomatlashtirish va boshqarish bunday jihozlarni ishlatishni osonlashtiradi. Shuni ta’kidlash lozimki, oqim chiziqlarda tozalash modullari mahalliy ishlanmalarga nisbatan kam, lekin,

ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tovar ko‘rinishini ta’minlash uchun paxtani jinlashdan keyin tolani etarli darajada tozalashda jihozlarning tozalash samaradorligi etarli darajada emas. Tolani samarali tozalashda mahalliy amaliyot tolaning shtapel uzunligining kamayishini va tolaning “charchash” xarakteristikasining oshishini ko‘rsatdi (ya’ni, tolaning mustahkamligi kamaygan).

ISSN 3030-3907



3 –rasm. MQZN-10 rusumli regeneratsion kamerali paxtani mayda iflosliklardan va cho‘ziq shakldagi iflosliklardan tozalagich sxemasi

1-ta’minlovchi shaxta; 2- qoziqli barabanlar; 3- chiviqli kolosnikli panjaralar; 4-nov, 5-ishqalovchi cho‘tka; 6-arrali baraban; 7-kolosnikli panjara; 8- ajratuvchi cho‘tkali baraban; 9- qoziqli baraban; 10- ajratuvchi qalqoncha.

AQSh paxta tozalash sanoatida quvvati o‘rtacha bir yilda 650-1000 tonna tolani qayta ishlaydigan paxta tozalash korxonalari mavjud bo‘lib, ular tarkibida maxsus urug‘chilik xo‘jaligi va ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi faoliyat olib boradi. Texnologik jarayonda paxtani yirik iflosliklardan tozalash uchun xuddi mahalliy tozalagichlarga o‘xshash turli miqdordagi va o‘lchamdagi kolosnikli panjarali tozalash modullari qo‘llaniladi.

Yaqin Sharq mamlakatlarida paxtani qayta ishlashga mo‘ljallangan «Kontinental Konsolideyshn» firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan paxtani tozalash texnologiyasi qo‘llanilib, bunda qisqargan tozalash texnologiyasida uchtagacha paxtani yirik iflosliklardan tozalagichdan foydalaniladi.

Adabiyotlardagi manbalar va AQShning etakchi firmalari ma’lumotlariga ko‘ra, paxta tozalash jihozlarini ishlatish va tayyorlashga maxsuslashtirilgan texnologik jarayonni quyidagi tartibda joylashtirish mumkin: rostlanuvchi bunkerli ta’minlagich; to‘xtovsiz texnologik jarayondagi quritkich; paxtani yirik iflosliklardan tozalagich; paxtani qayta mayda iflosliklardan tozalagich; jin ta’minlagichida paxtani kuchaytirilgan qo‘shimcha tozalash; paxtani tolasini chigitdan ajratish va tolani jinning arrali silindridan tozalash; tolani batareyali tola

ISSN 3030-3907

tozalagichlarda tozalash; tolani tashish, kondensorda havodan tolani ajratish va pressda tolalarni kiplarga qadoqlash.

Mahalliy va chet el (AQSh) paxta tozalash korxonalaridagi tozalashning oqim chizig‘idagi qoziqli va arrachali barabanlar soni 1.5-jadvalda keltirilgan. AQShning asosiy paxta tozalash jihozlariga (Lummus, Continental eagleva «Lebed» Amerika-Xitoy korxonasi) texnologik jarayonni qurishda unifikatsiya qilishga intilishi aniqlandi.

Shu bilan birgalikda paxtani yirik va mayda iflosliklardan tozalash modullarida ba’zi konstruktiv o‘zgarishlar mavjud (1.17-rasm). «LEBED» Shandun ma’suliyati cheklangan hissadorlik kompaniyasi paxtani qayta ishlash jihozlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yagona Amerika-Xitoy qo‘shma korxonasi hisoblanadi [47].

2005 yilda «LEBED» Shandun ma’suliyati cheklangan hissadorlik kompaniyasi AQShning «Continental Eagle» firmasi bilan birgalikda zamonaviy, to‘liq avtomatlashtirilgan, yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxta tozalash jihozlarini ishlab chiqdi.


1.5-jadval

Tozalashning oqim chizig‘idagi qoziqli va arrachali barabanlar soni

t/r	Tozalashning oqim chizig‘i	Barabanlar turi		Baraban-lar soni
		qoziqli	arrachali	
1	KOGT	35	14	49
2	6-KXO.02	27	10	37
3	LP-1S	16	5	21
4	Batareyali kompanovka	16	10	26
5	LummusCorparation (AQSh)	22	2	24
6	Continental Eagle Corparation(AQSh)	17	2	19
7	Continental Consolidatel (AQSh)	18	3	21

Shu texnologiya bo‘yicha 2009 yilda Samarqand viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 03.04.2004 yildagi 70-sonli “2007-2011 yillarda paxta tozalash korxonalarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash dasturi to‘g‘risida” Qaroriga asosan yangi Juma paxta tozalash korxonasi qurildi [3] (4-rasm).

ISSN 3030-3907



4-rasm. O‘rta tolali chigitli paxtani qayta ishlash uchun kichkina texnologik oqim (“Continental Yeagle”)

1 - ta’minlagich; 2 – o‘tkazuvchi quvur; 3- uzatishni boshqarish; 4 –vertikal quritkich; 5 –og‘ma tozalagich; 6 –ifloslikni olib chiquvchi; 7 –tozalash mashinasi; 8 –minorali quritkich; 9 –og‘ma tozalagich; 10 - tozalagich;11 – taqsimlovchi konveyer; 12 - 9000 turidagi ta’minlagich; 13 - 161-arrali jin; 14 - tozalagich; 15 –tola tozalagichlar; 16 - kondensor; 17 – quvur; 18 - zichlagich; 19 - 9300 rusumli press; 20 –kip qadoqlagich; 21- konveyer.

Shuni ta’kidlash lozimki, AQShning paxta tozalash korxonalaridagi texnologik oqim chiziqlari mahalliy paxta tozalash korxonalaridagi oqim chiziqlaridan paxtani qayta ishlashdagi tozalash modullarining kamligi bilan, paxta tozalash korxonasidagi vertikal joylashgan ko‘p ustunligi bilan farqlanadi. Chet el texnologiyasining muhim shartlari: tolani chuqur an’anaviy ta’minlash stolli tola tozalagichlarda tozalash. Shu bilan birgalikda, tolaga ta’minlash zonasida katta yuklanishlar nuqsonlarning kelib chiqish manbasi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining pasayish omili bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Т.М.Кулиев “Совершенствование эффективных конструкций и научные основы расчёта параметров очистителей хлопка-сырса и волокна” Диссертatsiя на соискание ученой степени доктора по техническим наукам. Тошкент – 2020 г.
2. F.B.Omonov, R.F.Yunusov, V.V.Dyachkov “Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravichnik”. “Voris-nashriyoti” Toshkent-2008 yil. 11-16 betlar.
3. Xakimov Sh.Sh. Paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash jarayoni

ISSN 3030-3907

samarali texnologiyasini va tozalagichlar ishchi qismlarining rasional konstruksiyasini yaratish. Texnika fanlari doktori dissertasiyasi. – Toshkent, 2016. – 172 b.

4. R.X.Rosulov Paxta tozalash mashinasining qoziqli barabani. To‘qimachilik muammolari jurnali, №2, 2017yil, 35-39b.

ISSN 3030-3907

КОРРОЗИЯ И ЗАЩИТА МЕТАЛЛА

Рахмонов Тохтасин Нурмаматович
Андижанский машиностроительний институт кафедры «Материаловедение» ассистент
TEL: +998 91 609 42 63
E-mail: traxmonov1960@gmail.com

Аннотация. Коррозия — химический процесс, происходящий в результате взаимодействия металлов с окружающей средой, приводящий к снижению их физико-механических свойств. Этот процесс происходит путем окисления металлов или образования других химических соединений. Из-за коррозии металлы быстро изнашиваются, изменяются и наносят им экономический ущерб. Поэтому защита металлов от коррозии очень важна. Для защиты металлов применяются различные методы, такие как покрытия, гальванизatsiя, пассиватsiя, специальные антикоррозионные добавки. Эти методы защиты позволяют надолго сохранить металлы и продлить срок их службы.

Ключевые слова: Коррозия, защита металлов, химические процессы, окисление, металлические покрытия, гальванизatsiя, пассиватsiя, антикоррозионные добавки.

Annotatsiya: Korroziya-metallarning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan kimyoviy jarayon, bu ularning fizik-mexanik xususiyatlarining pasayishiga olib keladi. Bu jarayon metallarni oksidlash yoki boshqa kimyoviy birikmalar hosil qilish orqali sodir bo'ladi. Korroziya tufayli metallar tezda eskiradi, o'zgaradi va ularga iqtisodiy zarar etkazadi. Shuning uchun metallarni korroziyadan himoya qilish juda muhimdir. Metallarni himoya qilish uchun qoplamalar, galvanizatsiya, passivatsiya, maxsus korroziyaga qarshi qo'shimchalar kabi turli usullar qo'llaniladi. Ushbu himoya usullari metallarni uzoq vaqt saqlashga va ularning ishlash muddatini uzaytirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: korroziya, metallni himoya qilish, kimyoviy jarayonlar, oksidlanish, metall qoplamalar, galvanizatsiya, passivatsiya, korroziyaga qarshi qo'shimchalar.

Abstract: Corrosion is a chemical process that occurs as a result of the interaction of metals with the environment, leading to a decrease in their physical and mechanical properties. This process occurs through the oxidation of metals or the formation of other chemical compounds. Due to corrosion, metals quickly wear out, change and cause economic damage to them. Therefore, the protection of metals from corrosion is very important. Various methods are used to protect metals, such as coatings, galvanization, passivation, special anti-corrosion

ISSN 3030-3907

additives. These protection methods allow you to preserve metals for a long time and extend their service life.

Key words: Corrosion, metal protection, chemical processes, oxidation, metal coatings, galvanization, passivation, anti-corrosion additives.

Введение:

Из 109 химических элементов периодической системы Д. И. Менделеева 87 являются металлами и 22 — неметаллами. Все металлы состоят из «элементарных металлов», «промежуточных металлов», «лантанидов и актинидов». В периодической таблице металлы в основных группах называются простыми металлами (s- и r-элементами), а металлы в дополнительных группах называются промежуточными металлами или (d- и f-элементами). Важно защищать металлические предметы от коррозии. Открытие метода производства специальных нержавеющих сталей поможет решить эту проблему. Металл используется в быту, строительстве, космонавтике, судостроении, машиностроении, авиастроении и многих других отраслях.

Коррозия металлов — разрушение металлов вследствие химического или электрохимического взаимодействия с окружающей средой. Он в основном состоит из 3 стадий: поступление реагирующих веществ на границу раздела фаз – зону реакции; реакция; выход продукта реакции из зоны реакции. Коррозия (от лат. corrigere — разъедать, разъедать) — разрушение предметов (металлов, бетона, камня, дерева, некоторых пластмасс и т. д.) в результате биологического, химического или электрохимического взаимодействия с внешней средой. Коррозия железа и железных сплавов также называется ржавлением.

Коррозию металлов в зависимости от характера разрушения подразделяют на следующие виды: плоскую, локальную, межкристаллитную и коррозионное растрескивание. Коррозия ежегодно приводит к потере 1–1,5% всех металлов, собираемых и используемых человечеством. Для защиты металлов от коррозии принимаются определенные меры (например, добавляются легирующие элементы: хром, никель и т. д.).



Под металлами мы подразумеваем простые металлы и их сплавы, а также изделия из металлов и их конструкции. Обычно среда, в которой происходит коррозия металла, находится в жидкой или газообразной среде. Коррозия — гетерогенный процесс, происходящий на

ISSN 3030-3907

границе двух фаз: металл-жидкость или металл-газ. По механизму возникновения коррозия металлов делится на два типа: химическую (сухую) и электрохимическую (мокрую). Химическая коррозия — процесс, происходящий в результате взаимодействия атомов металла с молекулами вещества, входящего в состав окружающей среды, при этом одновременно происходит окислительно-восстановительный процесс. Химическая коррозия возникает при взаимодействии неводных жидкостей (в основном жидких металлов) и атмосферных газов с металлической поверхностью.

Существует 3 типа химической коррозии:

1) Окислительная коррозия
2) Коррозия под воздействием газов
3) Коррозия, вызванная жидкими металлами

Полностью избавиться от коррозии металла невозможно, можно лишь замедлить эти процессы. Современные принципы снижения потерь металла и защиты металлов от коррозии базируются на следующих методах:

1. Улучшить химическую стойкость материалов.

2. Защита от агрессивных сред, т.е. сред, вызывающих коррозию металлов.

3. Снижение агрессивности техногенной среды к металлам.

4. Электрохимическая защита внешнего токового входа.



Коррозионно-механическими повреждениями называют коррозию и механическое повреждение металлов, возникающее вследствие напряжений, деформатsiй, трения и воздействия механических факторов. Общие коррозионные процессы под воздействием внешних факторов принимают различные виды и проявления в зависимости от условий эксплуатatsii деталей. Наиболее распространенными из них являются коррозионная усталость и коррозионное растрескивание, возникающие из-за трения. Коррозионная усталость возникает в результате процесса коррозии металлов и сплавов под воздействием агрессивной среды и циклических напряжений.

ISSN 3030-3907

Основными типами трещинообразования при коррозионной усталости являются: - активность коррозионной среды; - степень воздействия циклических напряжений; - количество циклов нагрузки в единицу времени; - прочность и коррозионная стойкость сплава; Для предотвращения коррозионной усталости применяют стали, легированные оптимальными легирующими элементами. Коррозионное растрескивание возникает в результате действия статических растягивающих напряжений в очень агрессивной среде. К причинам коррозионного растрескивания можно отнести: низкую коррозионную стойкость границ зерен с отрицательными потенциалами, отделенных от обогащенных фаз твердого раствора, наличие нестабильного структурного состава в сплаве по отношению к окружающей среде, а также снижение межкристаллитной прочности по мере в результате увеличения содержания водорода на границах зерен структуры.[3]

$$\vec{F} = \vec{T} + \vec{G} + \vec{F}_{ish} + \vec{N}$$

Koordinata o‘qlari bo‘yicha proyektsiyalanganda natija quyidagicha bo‘ladi.

$$OX; \quad F_x = T - G\sin\gamma - F_{ish}$$

$$OY; \quad 0 = N - mg\cos\gamma \qquad a_y = 0$$

Natijalardan o‘zaro umumlashtirib reaktsiya kuchi va ishqalanish kuchi topib olinadi.

$$N = mg\cos\gamma, \qquad F_{ish} = N \cdot \mu = mg\cos\gamma \cdot \mu$$

Rels bo‘ylab vujidga keladigan kuchlarni taranglik kuchi orqali ifoda qilib olinadi.

$$ma_x = T - mg\sin\gamma - mg\cos\gamma \cdot \mu$$

$$T = ma_x + mg\sin\gamma + mg\cos\gamma \cdot \mu = m(a_x + g\sin\gamma + g\cos\gamma \cdot \mu)$$


Arqon taranglik kuchini, idish tezlanishi orqali ifodalab olinadi.

Sababi idish tezlanishi, taranglik kuchga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi.

$$T = f(a) \qquad T = f(a_x)$$

$$T = m(a_x + g\sin\gamma + g\cos\gamma \cdot \mu)$$

ISSN 3030-3907



2-rasm. Idishga ta’sir qiluvchi kuchlar.

Idish harakatlangan rels yo‘nalishi bo‘yicha *X* o‘qini yo‘naltirib, shu o‘q bo‘yicha ta’sir qiluvchi kuchlarni proyektsiyalab olinadi (2-rasm).

$$\sum F_x = T - F_{sh} = (q + q_x) \cdot a_1 - mg\mu \cos\gamma$$

O‘qga perpendikulyar ravishda Y o‘qini ham yo‘naltirilib, shu o‘q bo‘yicha kuchlar proyektsiyalanadi.

$$\sum F_y = 0 \quad -G\cos\gamma + N_1 + N_2 = 0$$

Pastki g‘ildirakni relsga urinish nuqtasini A nuqta deb belgilash kiritilib shu nuqtaga nisbatan kuch momenti muvozanat xolati tenglamasi tuziladi

$$\sum M_A(F_k) = 0 \qquad N_2 \cdot l_{AB} - G\cos\gamma \cdot \frac{l_{AB}}{2} + G\sin\gamma(2R + x) - T \cdot (2R + x) = 0$$

Hosil bo‘lgan tenglamadan pastki g‘ildirak relsiga beradigan reaktsiya kuchi hosil qilinadi.

$$N_2 = \frac{G(\cos\gamma \cdot \frac{l_{AB}}{2} - \sin\gamma(2R + x) + T \cdot (2R + x)}{l_{AB}}$$

Yuqori g‘ildirakni relsga urinish nuqtasini *B* nuqta deb belgilash kiritilib shu nuqtaga nisbatan kuch momenti muvozanat holati tenglamasi tuziladi.

$$\sum M_B(F_k) = 0 \qquad N_1 \cdot l_{AB} - G\cos\gamma \cdot \frac{l_{AB}}{2} - G\sin\gamma(2R + x) - T \cdot (2R + x) = 0$$

Hosil bo‘lgan tenglamadan yuqori g‘ildirak, relsga beradigan reaktsiya kuchi hosil qilinadi.

ISSN 3030-3907

$$N_1 = \frac{G(\cos\gamma \cdot \frac{l_{AB}}{2} + \sin\gamma(2R + x)) + T \cdot (2R + x)}{l_{AB}}$$


bu yerda, T - arqonning taranglik kuchi, N;

N_1, N_2 - g‘ildiraklar reaktsiya kuchi, N;

R - g‘ildirak radiusi, m;

l_{AB} - g‘ildiraklar orasidagi masofa, m;

Yuqoridagi N_1, N_2 - reaktsiya kuchlardan hosil bo‘lgan tenglamalar bir biridan farq qilishi mumkin ekanligini ko‘rish mumkin. Bunda sistema idishni kinematik, geometrik va dinamik kattaliklari, bir xil ekanligi lekin ishora jihatdan turlicha bo‘lganligi uchun g‘ildiraklarda hosil bo‘ladigan reaktsiya kuchlari turlicha bo‘lishi aniqlandi. Asosan arqon taranglik kuchi o‘zgarib turishi evaziga relsga butun davr bo‘yicha g‘ildirak tomonidan turlicha reaktsiya kuchlari vujudga keladi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR. Natijalar asosida ma’lum bo‘ladiki yuk ko‘tarish qurilmalarida hosil bo‘ladigan kinematik va dinamik kattaliklar

ISSN 3030-3907

eng avvalo yuk va idish massasiga, idishni harakatlanishda yer sirti bilan hosil bo‘luvchi burchagi, tashish masofasi, ishqalanish koeffitsenti, g‘ildiraklar diametri va arqonning taranglik kuchi evaziga har bir davrda bu kattaliklar alohida ahamiyatga ega ekan. Grafik ko‘rinishdagi natijalardan ma’lum bo‘ladiki oldingi va orqa g‘ildiraklarda hosil bo‘ladigan reaktsiya kuchlari turlicha ekan. Bunda orqa g‘ildirakka ta’sir qiluvchi kuch yuqori ekanligi aniqlandi.

Arqonning taranglik kuchi uch davrda turlicha qiymatlarda bo‘ladi. Eng maksimal holat bu yuk idish boshlang‘ich holatida bo‘lib, bunda arqonni uzilish extimoli qolgan qismlarga nisbatan yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бейгбедер Д. Альбом. Кривой Рог - Гданцевка. 1899. [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://sudilovski.livejournal.com/67427.html /

2. Васильев М.В. Устройство, опыт эксплуатации и перспективы карьерного скипового подъема / М.В. Васильев // Тр. ИГД МЧМ. – 1975. – Вып. 46. – С. 14 - 25.

3. Васильев М.В. Транспорт глубоких карьеров / М.В. Васильев. – М.: Недра, 1983. – 296 с.

4. Хохряков В.С. Новожилов Михаил Галактанович (1911-1997). К столетию со дня рождения / В.С. Хохряков // Известия Уральского государственного горного университета. – 2012. - № 27 - 28.

5. Эффективность автомобильно-клетьевых подъёмников АНК-120 на глубоких карьерах / А.Г. Сисин, В.И. Белобров, М.А. Файнблит, А.Н. Акишев // Горный журнал. – 1995. - № 6.

6. Trucklift technical information. [Буклет] system. [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://www.siemagtecberg.com/cms/upload/downloads/en//TI_27_Trucklift_e.pdf /

7. [Видеофайл] GHD - "Innovation - TULIP Truck lift" [Электронный ресурс] – Режим доступа: https://www.youtube.com/watch?v=kZFAuKhNtPo

ISSN 3030-3907

TA’LIMDA MOBIL TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Atamuradova Dilshoda Ravshankulovna
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi
E-mail: dilshodaatamuradova09@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-8213-5413

Annotatsiya: XXI asrda mobil texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida mobil texnologiyalarning ta’sirini shakllantiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Mobil ilovalar, elektron ta’lim platformalari va interaktiv o‘quv materiallari ta’lim samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatilishi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim tizimida mobil texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: mobil texnologiyalar, ta’lim, elektron ta’lim platformalari, interaktiv o‘quv materiallari, raqamli ta’lim.

Аннотация: В XXI веке мобильные технологии стали неотъемлемой частью образовательного процесса. В данной статье анализируются основные факторы, формирующие влияние мобильных технологий в образовательный процесс. Обсуждается, как мобильные приложения, платформы электронного обучения и интерактивные учебные материалы могут повлиять на эффективность образования. Результаты исследования направлены на разработку рекомендаций по эффективному использованию мобильных технологий в современной системе образования.

Ключевые слова: мобильные технологии, образование, платформы электронного обучения, интерактивные образовательные материалы, цифровое образование.

Abstract: In the 21st century, mobile technologies have become an integral part of the educational process. This article analyzes the main factors shaping the impact of mobile technologies in the educational process. It discusses how mobile applications, e-learning platforms and interactive educational materials affect educational effectiveness. The results of the study are aimed at developing recommendations for the effective use of mobile technologies in the modern education system.

Keywords: mobile technologies, education, e-learning platforms, interactive educational materials, digital education.

Kirish: Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim sohasiga yangi imkoniyatlar olib kirdi. An’anaviy o‘qitish uslublari bilan bir qatorda mobil texnologiyalardan foydalanish talabalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini

ISSN 3030-3907

oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida mobil texnologiyalarning ta’sirini shakllantiruvchi omillar o‘rganilib, ularning samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review): Mobil texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mobil texnologiyalar ta’limda individual yondashuvni kuchaytirish, o‘quv materiallarini interaktiv tarzda taqdim etish va bilim olish jarayonini qulaylashtirishga xizmat qiladi. Mobil ilovalar yordamida talabalar o‘z vaqtida o‘quv ma’lumotlariga kirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):-tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy metod – mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqot natijalari o‘rganildi;

Empirik tadqiqotlar – talabalarning mobil texnologiyalar yordamida ta’lim olish jarayonidagi faolligi kuzatildi;

So‘rov va intervyu – o‘qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar olib borildi.

Tahlil va natijalar. Ta’lim samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar: Mobil texnologiyalarning ta’limga ta’siri quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Interaktivlik – talabalar dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Talabalar mavzu yuzasidan video darslarni ko‘rishlari mumkin bo‘ladi;

Moslashuvchanlik – istalgan vaqtda va joyda bilim olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa talabadan ko‘proq o‘z ustida ishlashi, mustaqil izlanishi, mustaqil tya’lim mavzulariga hamda topshiriqlarida indivudial yondashuvni ;

Vizualizatsiya – murakkab tushunchalarni oson tushuntirish, tushunish jarayonlari amalga oshiriladi. Talabalar mobil ilova yordamida ma’lumotlar olishlari mumkin;

Gamifikatsiya – talabalarning o‘yin elementlari yordamida o‘quv motivatsiya darajasi oshiriladi. Fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi talaba darsdami yoki mustaqil ta’lim olish muhitida bo‘lishidan qatiy nazar qiziqish bilan ma’lumotni o‘zlashtira oladi.

Mobil texnologiyalar ta’lim jarayoniga ta’sirining amaliy natijalari: O‘rganilgan natijalarga ko‘ra, mobil ilovalar yordamida mustaqil bilim olgan talabalar an’anaviy darslarga qatnashgan talabalar bilan solishtirilganda yuqori natijalarga erishgan;

Elektron ta’lim platformalari orqali o‘rganish individual yondashuvni ta’minlagan;

Onlayn testlar va topshiriqlar talabalar bilimini baholashda samarasi ancha yuqoriligi ko‘ringan. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida oliy ta’lim muassasalarining matematika ta’lim yo‘nalishida tahsil oladigan talabalarda

ISSN 3030-3907

masalan tadqiqotimizda Umumiy topologiya bo‘limini mobil ilova yordamida mustaqil o‘rganish hamda talabalarni mustaqil o‘rganish jarayonlarini amalda tadbiq etish metodikasi tajriba-sinovdan o‘tkazilib, bu metod orqali ta’lim shaklining sifat darajasi oshganligini amalda ko‘rishdan iborat bo‘ldi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari Respublikamizning uch hudididagi oliy ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan:

Mamlakatimizning oliy ta’lim muassasalarida Umumiy topologiya o‘quv mashg‘ulotlarini mobil ilova orqali mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirib o‘qitishga asoslangan tajriba-sinov jarayonlari o‘tkazildi. Bundan: tadqiqotning tajriba-sinov jarayonini o‘tkazish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi;

Ta’lim yo‘nalishining matematika bo‘limida darslik, o‘quv rejalari, fan dasturi, o‘quv qo‘llanmalar mohiyati, mazmuni, darsliklar, o‘qituvchilar faoliyati hamda keltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari maqsadi o‘rganilib chiqildi;

Olib borilgan tadqiqot ishining muammosiga qarab psixologik, metodik va pedagogik adabiyotlarning mazmun mohiyati bilan yaqindan tanishildi. Oliy ta’lim muassasalarining matematika ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda Umumiy topologiya o‘quv mashg‘ulotlarini mobil ilova yordamida mustaqil o‘rganish jarayonlari darajasining holatlari o‘rganildi. Olib borilayotgan tadqiqot ishining samaradorligini tekshirish uchun tajriba-sinov maydonlari belgilandi;

Bundan tashqari oliy ta’lim muassalarida matematikadan boshqa ta’lim yo‘nalishlarida geometriya fanini mustaqil o‘rganish jarayoni orqali o‘z bilim, ko‘nikma, malakalarini shallantirish va o‘quv adabiyotlarini mobil ilova yordamida mustaqil o‘rganish orqali ta’lim jarayonini tashkillashtirish holatlari o‘rganildi;

Oliy ta’lim muassasalarida Geometriya fanining Umumiy topologiya bo‘limi doirasida tayyorlangan o‘quv adabiyotlarini mobil ilova yordamida mustaqil o‘zlashtirish o‘z bilimlarini shakllantirish jarayonlarini tajriba-sinovdan o‘tkazish asosida turli xil qiziqarli va mazmunli tadbirlar amalga oshirildi;

Oliy ta’lim muassasalarida Umumiy topologiya o‘quv bo‘limi bo‘yicha tayyorlangan o‘quv adabiyotlarini mobil ilova yordamida mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari tashkillashtirildi hamda olingan natijalar birlashtirildi.

1. Respublikamizning oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tajriba-sinov ishining birinchi va ikkinchi bosqich so‘ngida Umumiy topologiya o‘quv mashg‘ulotlarini mobil ilova orqali mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishning yutuq va kamchilliklar aniqlandi. Kuzatilgan tajriba-sinov ishining kamchilliklarini bartaraf etish va takomillashtirish jarayonlari ishlab

ISSN 3030-3907

chiqildi. Tajriba-sinov ishidan olingan barcha natijalarga umumiy xulosa berildi, matematik statistika yordamida tahlil qilindi hamda umumlashtirildi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishi yakunida olingan natijalar samaradorligi yangi ekanligi isbotlandi hamda tajriba-sinov jarayonlarining ikkinchi bosqichida olingan fikr, g‘oya, o‘zgarish va yangiliklar ilmiy tadqiqotdda ko‘rsatib o‘tildi.

Xulosa: Olib borilgan quyidagi tadqiqot ishida talabalargda Umumiy topologaiya tushinchalarini mobil ilova yordamida mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mobil ilova orqali Umumiy topologiya tushunchalarini o‘rganish talabalarga o‘quv jarayonidan tashqari mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini yaratadi. Interaktiv mashg‘ulotlar, testlar va vizual materiallar yordamida mavzularni chuqur tushunish osonlashadi.

2. Talabalar istalgan joy va vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu, ayniqsa, murakkab nazariy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqish va mustahkamlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Mobil ilovada gamifikatsiya elementlari (ball to‘plash, daraja oshirish, reyting tizimi) qo‘llanilganda, talabalar o‘qishga ko‘proq qiziqish bildiradilar. Bu esa Umumiy topologiya bo‘yicha mustaqil ishlashga bo‘lgan rag‘batni kuchaytiradi.

4. Mobil ilova orqali grafik tasvirlar, interaktiv modellar va simulyatsiyalar yordamida abstrakt tushunchalarni ancha tushunarli shaklda ifodalash mumkin. Bu talabalar uchun murakkab mavzularni yengillashtiradi.

5. Testlar va mashqlar yordamida talabalar o‘z bilimlarini mustaqil baholay olishlari mumkin. Xatolar ustida ishlash va qayta o‘rganish orqali bilimlarni mustahkamlash jarayoni tezlashadi.

6. Raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish talabalar uchun zamonaviy bilim olish usullarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ham qo‘shimcha afzallik sifatida namoyon bo‘ladi.

7. Mobil ilova yordamida Umumiy topologiya tushunchalarini mustaqil o‘rganish talabalar uchun qulay, samarali va motivatsion jihatdan foydali vosita hisoblanadi. O‘quv jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va vizuallashtirish imkoniyatlari ushbu fan bo‘yicha chuqurroq bilim olishga yordam beradi.

Taklif va tavsiyalar: Talabalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, Umumiy topologiyani tushuntiruvchi qulay va interaktiv ilovalarni tanlash yoki yaratish

ISSN 3030-3907

lozim. Ilovaning ishlash tezligi va dizayni talabalar uchun tushunarli hamda intuitiv bo‘lishi muhim;

Abstrakt tushunchalarni yaxshiroq tushunish uchun 3D modellar, diagrammalar va grafik vizualizatsiyalarni qo‘shish lozim. Matnli tushuntirishlardan tashqari, animatsiya va videodarsliklar ham ilovada mavjud bo‘lishi kerak.

Internet aloqasi zaif bo‘lgan hududlar uchun ilovaning offline versiyasini yaratish foydali bo‘ladi. Elektron kitoblar va materiallarni yuklab olish imkoniyatini qo‘shish talabalar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi;

Ilovaga yangi mavzular, yangiliklar va muammolarni qo‘shib borish kerak. Talabalarning fikr-mulohazalariga asoslanib, interfeys va kontentni doimiy ravishda takomillashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
4. Kukulska-Hulme, A.Traxler, J. (2019). Mobile Learning: A Handbook for Educators and Trainers. Routledge.
5. Sharples, M. (2016). Big Issues in Mobile Learning. University of Nottingham.
6. Koole, M. L. (2009). A Model for Framing Mobile Learning. International Journal of Mobile and Blended Learning.
7. Atamuradova D.R. “Mustaqil ta’limning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi”, Zamonaviy analiz va matematik fizika masalalari” nomli ilmiy-amaliy anjuman Samarqand-2024, 16-17sentabr, B: 403-404
8. Atamuradova D.R. “Talabalarda “Umumiy topologiya” bo‘limini o‘zlashtirishda mobil ilovalarning o‘rni”, American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381 Vol.1 Issue 7, November-2024, Pages: 129-132

ISSN 3030-3907

JARAYONDA EKSPERIMENT NATIJALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH VA OPTIMALLASHTIRISH

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mamatova.zilolakhon@gmail.com
ORCID ID 0009-0009-9247-3510
Abdullayev Shaxboz Solijon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: shaxbozfardu2023@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-9382-732X

Annotatsiya: Ushbu maqolada eksperimentni rejalashtirishning asosiy tamoyillari va jarayonlari tahlil qilingan. Maqolada eksperimentning maqsadga muvofiq o‘tkazilishi uchun zarur bo‘lgan bosqichlar, shu jumladan, tadqiqotning maqsadini aniqlash, o‘zgaruvchilarni tanlash, tajriba shartlarini yaratish va natijalarni tahlil qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Eksperimentni rejalashtirishda ilmiy metodologiyalarga, tasodifiylik va aniqlik prinsiplarga asoslangan yondoshuvlar ko‘rsatilgan. Shuningdek, maqolada ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda eksperimentlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan texnik va metodik yondashuvlar ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: statistika, tajriba, kuzatuv, miqdor, reja, ishdan chiqmaslik, ekspluatatsiya, rejalashtirish.

Аннотация: В данной статье анализируются основные принципы и процессы планирования эксперимента. В статье даны рекомендации по действиям, необходимым для проведения эксперимента в соответствии с целью, включая определение цели исследования, выбор переменных, создание условий эксперимента и анализ результатов. При планировании эксперимента показаны подходы, основанные на научных методологиях, принципах случайности и точности. Также в статье рассмотрены технические и методические подходы, необходимые для успешной организации экспериментов в научных исследованиях и практике.

Ключевые слова: статистика, опыт, наблюдение, количество, план, неудача, эксплуатация, планирование.

Abstract: This article analyzes the basic principles and processes of experiment planning. The article provides recommendations for the steps necessary for conducting the experiment in accordance with the purpose, including determining the purpose of the study, choosing variables, creating experimental conditions, and

ISSN 3030-3907

analyzing the results. Approaches based on scientific methodologies, principles of randomness and accuracy are shown in the planning of the experiment. Also, the technical and methodological approaches necessary for the successful organization of experiments in scientific research and practice are considered in the article.

Key words: statistics, experience, observation, quantity, plan, failure, exploitation, planning.

Kirish

Eksperiment – ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni o‘tkazishda asosiy metodlardan biri bo‘lib, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tajribalar orqali o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash imkonini beradi. Eksperimentni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun esa uning rejasi puxta ishlab chiqilishi lozim. Rejalashtirish jarayoni ilmiy tadqiqotning barcha bosqichlarida aniq yo‘nalishlarni belgilash, tajribani to‘g‘ri tashkil etish va natijalarning ishonchliligini ta’minlash uchun zarurdir. Eksperimentni rejalashtirishda maqsad, o‘zgaruvchilar, shartlar, metodlar va usullarni aniq belgilash, tajribada uchraydigan xatoliklar va tasodifiy omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Maqolada eksperimentni rejalashtirishning asosiy prinsiplari, uning samarali tashkil etilishi uchun zarur bo‘lgan bosqichlar va metodik yondoshuvlar tahlil qilinadi. Bu bilimlar, o‘z navbatida, ilmiy izlanishlarni o‘tkazishda va amaliyotda to‘g‘ri va aniq natijalarga erishish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, maqolada eksperimentlarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun texnik va metodologik tavsiyalar ham beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Eksperimentni rejalashtirish bo‘yicha adabiyotlar tahlili, ilmiy tadqiqotlarning samarali o‘tkazilishi uchun zarur metodlarni va yondoshuvlarni aniqlashga yordam beradi. K. Popperning “Ilmiy bilimlar nazariyasi” (1972) asarida ilmiy eksperimentning asosiy falsafiy prinsiplari, tasodifiylik va nazariyalarni tekshirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan. S. R. Kogan “Eksperiment metodologiyasi” (2006) asarida eksperimentlarni rejalashtirishda tasodifiylik va nazorat guruhlari ahamiyatiga to‘xtalgan. M. N. Belyaevning “Statistika va eksperiment” (2010) asarida statistik usullar orqali eksperiment natijalarini tahlil qilish va xatoliklarni kamaytirish metodlari keltirilgan. S. K. Davydov “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” (2015) asarida eksperiment shartlarini aniq belgilash va natijalarni qayta tekshirishning zarurligi haqida yozgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda eksperimentni rejalashtirishning asosiy tamoyillari va metodlari o‘rganiladi. Tadqiqotning metodologik yondoshuvi empirik va nazariy

ISSN 3030-3907

tahlilni o‘z ichiga oladi. Maqsad eksperimentni samarali o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan bosqichlarni aniqlash va ularning ilmiy asoslarini tushunishdir. Tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili orqali eksperimentni rejalashtirish va o‘tkazish bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar o‘rganiladi. Bu manbalar metodik yondoshuvlar va tajriba o‘tkazishning samarali usullarini ko‘rib chiqishga imkon beradi. Komparativ tahlil orqali turli metodologik yondoshuvlar solishtiriladi va ularning afzalliklari aniqlanadi, masalan, tasodifiylik, nazorat guruhlari va statistik tahlil usullari. Eksperimental tahlil esa nazariy asosda yaratilgan tajribalar va sinovlar orqali eksperimentni rejalashtirish jarayonlarini tekshirish va amaliyotda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Kvalitatif tahlil metodik jihatlarni, shartlarini va natijalarini sifat jihatidan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy jihatdan to‘g‘ri rejalashtirilgan eksperimentlarning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot metodologiyasi eksperimentning barcha bosqichlarini puxta rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy ishonchli xulosalarga kelish uchun zarur bo‘lgan yondoshuvlarni aniqlashga qaratilgan. Bu metodlar yordamida eksperimentni o‘tkazishda uchraydigan xatoliklarni kamaytirish va ishonchli natijalar olish mumkin.

Tahlillar va natijalar

Tajribalarni rejalashtirish tadqiqot qilinayotgan tizimni formal modellash va bu tizimning asosiy qonuniyatlarini adekvat statistik modellar darajasida yozib chiqishni o‘z ichiga oladi.

An’anaviy bir omilli tajriba $y = f(x)$ ko‘rinishidagi bog‘lanishni tadqiqot qilishga asoslangan bo‘lib, bunday tajriba vaqtida faqat bitta omilning qiymatlari o‘zgartiriladi. Boshqa barcha omillarning qiymatlarini o‘zgarmas holda tutib turishga harakat qilinadi.

Masalan, mashinaning ishlashiga faqat uchta omil ta’sir ko‘rsatadi deb olib, har bir omilni o‘rganishda uning o‘nta qiymati uchun tajriba o‘tkazsak, tajribalarni kamida besh martadan takrorlasak, barcha tajribalar soni $N = 3 * 5 * 10 = 150\ ta$ bo‘ladi. Natijada 10 tadan nuqta bo‘yicha qurilgan 3 ta grafikka ega bo‘lamiz. Har bir grafik alohida omilning mashina ishlashiga ta’sirini ifodalaydi va ularning funktsiyalari ushbu ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\begin{aligned} U_1 &= f(x_1); \\ U_2 &= f(x_2); \\ U_3 &= f(x_3); \end{aligned} \qquad (1)$$

Bunday funktsiyalarni umumiy ko‘rinishga keltirish, ya’ni $U = f(x_1) + f(x_2) + f(x_3) = f(x_1, x_2, x_3)$ deb yozish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki har bir omilning funktsiyasi boshqa omillarning o‘zgarmas qiymatlari uchun aniqlangan.

ISSN 3030-3907

Traktorlarning ishlashiga faqat uchta emas, balki cheksiz ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘plab omillarning bir vaqtning o‘zidagi tizim ishlashiga ta’sirini tajribalarni statistik rejalashtirish orqali aniqlash mumkin. Bunga oid bir misolni ko‘rib o‘tamiz.

Qandaydir material (masalan, murakkab legirlangan qotishma) tarkibini, uning mexanik xossalariga ta’sirini o‘rganish talab etiladi. Masalani bunday ko‘rinishda tasavvur qilamiz: legirlovchi elementlar tizimi berilgan va qotishmadagi elementlarning, material optimal xossalarga ega bo‘lishini ta’minlaydigan, miqdorini topish kerak.

Elementlarning qotishmadagi miqdorini $x_1, x_2, \ldots, x_n$ bilan belgilaymiz, ularni tizimni va uning xossalarini aniqlovchi mustaqil omillar deb hisoblaymiz. Materialning tekshirilayotgan xossasi $y_1, y_2, \ldots, y_m$ bo‘lsin (tizimning javob funktsiyasi atamasi ishlatiladi).

$$\left.\begin{aligned} \bar{y}_1 &= \phi_1(x_1, x_2, \ldots, x_n) \\ \bar{y}_2 &= \phi_2(x_1, x_2, \ldots, x_n) \\ &\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \bar{y}_m &= \phi_m(x_1, x_2, \ldots, x_n) \end{aligned}\right\} \quad (2)$$


Bunday belgilanishlarda yangi material ishlab chiqish masalasi (2) funksiyalar tizimini olinishi, tadqiqoti va bu tizim yechimini birmuncha optimallash masalasi sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Yana ikkita tushunchani aniqlab olamiz. ularni ikki elementdan tashkil topgan materialning bitta xossasi tekshirilayotgan oddiy holat ya’ni, tekshirilayotgan tizim funksional bog‘lanishga keltiriladigan misolda ko‘ramiz.

Umumiy holda 1-rasmda keltirilgan xildagi $(N+1)$-o‘lchovli sirtlar tizimi mavjud deb olinadi. bu sirtlarni javob sirtlari deb, 1-rasmdagiga o‘xshash chiziqlar tizimini esa daraja chiziqlari deb ataladi.

Yangi materiallarni tadqiqot qilishda javob sirtlari tavsifi va daraja chiziqlari shakli noma’lum bo‘ladi. tajriba o‘tkazayotgan kishi, odatda legirlovchi elementlar miqdorini ketma-ket o‘zgartirish va olingan natijalarni taqqoslash usullaridan foydalanib, yuqoriroq xossalar sohasi yo‘nalishida harakatlanadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Tizimning javob sirti va teng $\bar{y} = \varphi(x_1, x_2)$ daraja chiziqlari

Bu usullarning javob funktsiyasi ekstremumini qayd etishga nisbatan muhim kamchiliklarini ko‘rsatamiz.

1. Xossalarning haqiqiy maksimal sohasiga (javob funktsiyasining qat’iy ekstremum sohasiga) chiqish ehtimoli nisbatan kichik.

2. Omillar soni oshib borganda bu ehtimollik kamayadi, oxirida nolga intiladi. (Omillarni ketma-ket o‘zgartirish usuli bilan optimumga borishni "labirint bo‘ylab harakat" deb atalishi ham tasodifiy emas).

3. Xossalarning eng yuqori sohasini topish uchun amalga oshirish zarur bo‘lgan tajribalar sonini oldindan baholash va tartibini belgilash qiyin. Odatda, bu son juda katta bo‘ladi.

Matematik statistika xossalar maksimumi sohasiga ishonchli chiqadigan tadqiqot usullarini taklif etadi. Bunda tadqiqot qilinadigan tajriba tarkiblari soni nisbatan ko‘p bo‘lmaydi.

Buning uchun tadqiqotlarning boshlashda bir vaqtning o‘zida bir nechta tajribaviy quyma quyish taklif etiladi. Tajribalarda legirlovchi elementlar miqdori, tajriba rejasi deb ataluvchi, belgilangan qoida bo‘yicha tanlanadi. Quymalar soni N legirlovchi elementlar soni n ga, ularning o‘zaro ta’siri xarakteriga, boshqa ba’zi fikrlarga bog‘liq bo‘ladi va $n = 2 \div 3$ uchun $N = 4; n = 3 \div 7$ uchun $N = 8; n = 4 \div 14$ uchun $N = 16$ tadan iborat.

Tajriba rejasi, tajriba boshlanishida olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berish ushbularga imkon yaratadigan qilib tuziladi.

1) tajribalarning boshlang‘ich sohasida aniqlangan xossalarga nisbatan yuqoriroq xossalar sohasi mavjudligini va holatini baholash;

ISSN 3030-3907

2) yuqoriroq xossalar sohasiga chiqish tezroq amalga oshiriladigan, kimyoviy tarkib variantlarini ko‘rib chiqishning samaraliroq usulini aniqlash;

Kimyoviy tarkib variantlarini ko‘rib chiqishning bunday usuli, javob sirti gradientining yo‘nalishi bilan mos kelgan usul hisoblanadi.

Gradient bo‘ylab harakatning samaradorligi, eng avvalo, tajribadan tajribaga birdaniga barcha legirlovchi elementlaring tarkibi belgilangan nisbatda o‘zgarishi bilan aniqlanadi. $n \geq 5 \div 7$ voqealar uchun bu shunday samara beradiki (legirlovchi elementlar tarkibini ketma-ket o‘zgartirish usuli bilan taqqoslaganda) tadqiqotlarning umumiy muddati bir necha marta qisqaradi.

Xulosa

Eksperimentni rejalashtirish ilmiy tadqiqotlar va amaliy izlanishlarning muvaffaqiyatli o‘tkazilishida asosiy ahamiyatga ega. Tadqiqotda eksperimentni samarali o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan metodologik yondoshuvlar, masalan, adabiyotlar tahlili, turli metodologik usullarni solishtirish, tajriba shartlarini aniqlash va natijalarni tahlil qilish jarayonlari ko‘rib chiqildi. Eksperimentni to‘g‘ri rejalashtirish, natijalarni aniq va ishonchli baholash imkonini yaratadi, xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, tasodifiylik, nazorat guruhlari va statistik metodlarning muhimligi ta'kidlandi. Tadqiqotda ilgari surilgan metodlar ilmiy izlanishlar uchun to‘g‘ri yo‘nalishlarni belgilab, eksperimentning samarali va aniq o‘tkazilishiga asos bo‘ladi. Maqola eksperimentni muvaffaqiyatli rejalashtirishning ilmiy jihatdan to‘g‘ri yondoshuvlar bilan amalga oshirilishini va bu orqali ishonchli natijalarga erishishni ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Popper K., “Ilmiy bilimlar nazariyasi”, Toshkent, Fan, 1972, 45-bet.
2. Kogan S. R., “Eksperiment metodologiyasi”, Moskva, Nauka, 2006, 78-bet.
3. Belyaev M. N., “Statistika va eksperiment”, Toshkent, Iqtisodiyot, 2010, 92-bet.
4. Davydov S. K., “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, Moskva, Pedagogika, 2015, 102-bet.
5. Karimov T., “Eksperiment va uning metodik yondoshuvlariga ta’sir etuvchi omillar”, Ijtimoiy fanlar jurnali, 2019, 5-son, 45-56-betlar.
6. Yunusov J., “Eksperimentni rejalashtirishda nazorat guruhlari va tasodifiylik”, Ilmiy tahlil, 2017, 4-son, 34-41-betlar.
7. Ismoilov I., “Tadqiqot metodologiyasi: eksperimentni rejalashtirishning asosiy tamoyillari”, Toshkent, Ma’naviyat, 2018, 60-bet.
8. Sultonov B., “Populyatsiya va ekologiya: eksperimentlarni o‘tkazish metodlari”, Samarqand, Sharq, 2016, 128-bet.

ISSN 3030-3907

9. Rakhmatov M., “Eksperimentni samarali o‘tkazish usullari”, Iqtisodiy tahlil, 2015, 3-son, 120-132-betlar.
10. Tursunov A., “Nazorat guruhlari va eksperimentda tasodifiylik”, Statistika va tahlil, 2020, 7-son, 88-92-betlar.
11. Anvarov D., “Eksperiment metodlarining amaliyotda qo‘llanilishi”, Ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2018, 2-son, 102-111-betlar.

ISSN 3030-3907

MAHALLIY APIS MELLIFERA XITOZANI ASOSIDA OLINGAN SHIFF ASOSINING FIZIK-KIMYOVIY TAHLIL NATIJALARI

A.S.Mengliyev

Alfraganus university

Annotatsiya. Mahalliy *Apis Mellifera* xitozani bilan N-3-metoksi-4-gidroksibenzaldegidining poliazometin (Shif asosi) sintez qilindi va sintez qilish optimal sharoyiti o‘rganildi. Olingan mahsulotning spektral xususiyatlari IQ Phyre spektroskopiya usuli yordamida aniqlandi, Termogravimetrik tahlil yordamida uning termal barqarorligi baholandi hamda HOMO–LUMO Energiyalari asosida birikmaning kvant kimyoviy tahlili o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *Apis Mellifera*, xitozan, aldegid, Shiff asoslari, IQ spektroskopiya, termogravimetriya, HOMO–LUMO Energiyalari, tahlil.

Аннотация. С использованием местного хитозана *Apis Mellifera* синтезирован полиазометин (основание Шиффа) N-3-метокси-4-гидроксибензальдегида и изучены оптимальные условия синтеза. Спектральные свойства полученного продукта определяли методом ИК-спектроскопии, термостабильность оценивали с помощью термогравиметрического анализа, а квантово-химический анализ изучали на основе энергий HOMO-LUMO соединения.

Ключевые слова: *Apis Mellifera*, хитозан, альдегид, основания Шиффа, ИК-спектроскопия, термогравиметрия, HOMO-LUMO энергии, анализ.

Annotation. Polyazomethine (the base of the Schiff) of N-3-methoxy-4-hydroxybenzaldehyde was synthesized with the local Apis Mellifera chitosane, and the synthesis optimal sharoyite was studied. The spectral properties of the resulting product were determined using the IR Phyre spectroscopy method, its thermal stability was assessed using thermogravimetric analysis, and quantum chemical analysis of the compound based on HOMO–LUMO Energies was studied.

Keywords: Apis Mellifera, chitosan, aldehyde, Schiff bases, IQ spectroscopy, thermogravimetry, HOMO–LUMO energies, analysis.

Kirish


Tarkibida -CH=N- guruh elementini o‘z ichiga olgan Shiff asoslari (azometin birikmalari) bir qator qimmatli amaliy xususiyatlarga ega va hazirgi kunda juda keng sohalarda qo‘llanilmoqda. Ular polimer fotostabilizatorlari [1], tibbiyotda va farmatsevtikada [2], metall kompleks birikmalarni sintez qilishda [3] ishlatiladi. Shiff asoslari va ularning hosilalarining fizik-kimyoviy xossalari keyingi vaqtlarda faol o‘rganilib kelinmoqda [4]. Taqdim etilgan ishning maqsadi mahalliy Apis Mellifera xitozani bilan ayrim aldegidlarning poli azometin (Shif asoslari)

ISSN 3030-3907

hosilalarini sintez qilish, olingan Shiff asoslarining fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganishdan iborat.

Daslab, tegishli usullar bilar mahalliy Apis Mellifera xitinidan xitozan sintez qilindi [5]. Olingan 1 g xitozan 50 ml li konussimon shlifli kolbaga solinib, ustiga aralashtirilib turgan holda 10 ml metanol solindi, so‘ngra 60-65 ^{0}C haroratda aralashma ustiga 1:4 nisbatda, ya’ni 4 g N-3-metoksi-4-gidroksibenzaldegidi solindi, reaksiya davomiylagi 180 minutni tashkil qildi. Hosil bo‘lgan och jigar rangli kristall mahsulot dastlab metanol, so‘ngra etanol bilan yuvildi, so‘ngra filtrlandi va cho‘kma quritildi. Moddaning individualligi yupqa qatlamli xromatografiya bilan isbotlangan (R_f = 0,79). Sintez qilingan birikmaning rangi och jigar rang kukun bo‘lib, organik erituvchilarda eriydi. O‘rtacha unum 89,5 % ni tashkil etdi [6].

N-3-metoksi-4-gidroksibenzilimino-xitozan sintezi quyidagi sxema orqali amalga oshirildi:



1-rasm. N-3-metoksi-4-gidroksibenzilimino-xitozan sintezi


2-rasmda termik gravimetrik (TGA) analiz natijalari ko‘rsatilgan. Barcha o‘lchashlar azot atmosferasida 50 ml/min azot oqimi tezligida olib borildi. Tahlil, o‘lchashlarning harorat intervali 50 ° C dan 750 °C gacha bo‘lgan harorat oralig'ida o‘tkazildi, namunani isitish tezligi 20 °K/min. Termogrammani qayta ishlash original Ther-moscan* dasturi va Microsoft Excel elektron jadvallari yordamida amalga oshirildi.

Termogravimetriya (TGA) egri chizig‘ining tahlili shuni ko‘rsatadiki, TGA egri chizig‘i asosan tekshirilayotgan birikma 5 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig‘ida ega bolib, taqdim etilgan termogrammada harorat oshishi bilan birikma bilan sodir bo‘ladigan turli jarayonlarga mos keladi, bu harorat oralig'ida massaning yengil o‘zgarishi mavjud bo‘lib, bu adsorbsiyalangan namlik yoki namunada mavjud bo‘lgan boshqa uchuvchi moddalarni olib tashlash bilan bog'liq bo‘ladi. Bu jarayondan so‘ng, deyarli doimiy massaga ega bo‘lishini

ISSN 3030-3907

kuzatishimiz mumkin, bu namunada endi bu haroratda bug'lanishga qodir bo‘lgan uchuvchi moddalar yo‘qligini ko‘rsatadi.

TGA analiz natijalariga tahlili yana shuni ko‘rsatadiki, jarayonning turli harorat oralig‘i uchun kinetik parametrlar aniqlandi. Uning afzalligi bir qator o‘lchovlar va bitta namunadan reaksiyalarning butun harorat oralig‘ida kinetik xususiyatlarni hisoblandi. Massa yo‘qotish darajasi (vm) TGA egri chizig‘ini grafik farqlash usuli bilan aniqlandi.




2-rasm. Moddaning termo-gravimetrik analiz (TGA) egri chizig’i

№	Harorat,°C	Yuqotilgan massa, %	Moddaning parchalanish tezligi, mg/min	Sarflangan enegiya miqdori (µV*s/mg)
1	104	1.3	0.0695	1.02
2	185	5	0.07251	1.244
3	281	10	0.0729	2.72
4	478	20	0.0852	3.57
5	550	30	0.108	4.10
6	718	45	0.125	4.3

Birikmaning IR-Furye spektri kaliy bromidli tabletka ko‘rinishida FSM-1201 spektrometr uskunasida 400-4000 sm $^{-1}$ to‘lqin soni oralig'ida qayd etilgan. Asosiy xarakterli chiziqlarning joylashuvi va ularning taqsimlanishi quyida keltirilgan:

ISSN 3030-3907



3-rasm. N-3-metoksi-4-gidroksibenzilimino-xitozan IK spektri


Birikmaning IQ spektrida (3-rasm) struktura tuzilishi bo'yicha 1636,01 sm^{-1} sohada - C =N- bog'lanishi mavjudligi bilan tasdiqlanadi. 1062,83 sm^{-1} sohada esa glyukopiranozaning yutilish zonasi - C - O - C - bog'i ko'rsatilgan.

IQ spektrida shuningdek, quyidagi xarakterli yutilish signallarini o'z ichiga oladi, sm^{-1}: 1151,9 va 897,25 – da -OH guruhining egilish tebranishlari; 1285,28 sohada C-H bog'ining egilish tebranishlari, 2874,99 da -OCH_3 bog'ining yutilish chastotasi, 1515, 98 da aromatik C-C va C=C bog'lari hamda 1636.01 sohasidagi intensiv yutilish signali sintezlangan Schiff bazasining azometin -HC=N- bog'i hosil bo'lishini ko'rsatdi.


Sintez qilingan birikmaning HOMO–LUMO Energiyalari asosida kvant kimyoviy tahlili ham o'rganildi.

HOMO-LUMO energiyalari (Hartree birlikda) Gaussian 16 dasturida RB3LYP/6-311G hisoblash darajasida olingan. Bu energiyalar molekulalarning elektron xossalari va reaktivligiga oid muhim malumot beradi. HOMO (Highest Occupied Molecular Orbital) va LUMO (Lowest Unoccupied Molecular Orbital) molekulaning elektron tuzilishini tahlil qilishda asosiy tushunchalardir. Ular molekuladagi eng yuqori band va eng quyi bo'sh orbitalalarni tavsiflaydi.


ISSN 3030-3907




4-Rasm. Olingan birikma strukturasining optimallashtirilgan HOMO tuzilishi.



5-Rasm. Birikma strukturasining optimallashtirilgan LUMO ko'rinishi.



6-Rasm. Strukturaning optimallashtirilgan orbital energiyasi.



7-Rasm. Strukturaning optimallashtirilgan ESP natijasi

Struktur	HOMO (Hartree)	LUMO (Hartree)	ΔE (Hartree)	Izoh
3	−0.23439	−0.06584	≈ 0.16855	Eng kichik ΔE, ya'ni yuqori aktivlik.

Elektron xossalar va dipol momentlar asosida tizimlarning taqqoslamali tahliliga ko'ra optimallashtirilgan strukturaning Gaussian 16 dasturi yordamida RB3LYP/6-311G hisoblash darajasida olingan natijalarga ko'ra, ushbu birikma energetik jihatdan eng barqaror strukturadir (4- va 5-rasmlar). Uning umumiy

ISSN 3030-3907

elektron energiyasi −1832.500994 Hartree ga teng bo‘lib, bu energiya ancha kichik bo’lib, termodinamik barqarorlikni anglatadi (6-rasm). Shu bilan birga, bu mahsulotning dipol momenti 6.50 Debye bo‘lib, reaktivga nisbatan sezilarli pasayishni ko‘rsatadi. Bu esa mahsulotda molekulyar qutblanish kamayganini va ehtimoliy vodorod bog‘larining yo‘qolganini yoki qayta tashkil topganini anglatadi.

HOMO–LUMO energiyalarining tahlili yana shuni ko‘rsatadiki, olingan birikma yuqori kimyoviy faollikka ega. Bu uning reaksiyalarda asosiy rol o‘ynashini yoki katalitik jarayonlarda ishtirok etishini ko‘rsatadi. Bu esa selektiv reagentlar, katalizatorlar yoki biofaol moddalarning sintezi uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

ESP (Electrostatic Potential) xususiyatlari (7-rasm) bo’yicha: –OH va –OCH_3 guruhlari borligi tufayli ESP bo‘yicha kuchli qizil joylar, ya’ni manfiy zaryad (elektronlar ko‘proq to‘plangan joylar) mavjudligini anglatadi. Faolligi bo’yicha, aromatik sistemasidagi elektron donor guruhlar molekulaning umumiy nukleofilligini oshirgan. Kimyoviy jihatdan antibakterial yoki antioksidant faol modda sifatida reaktsiyaga kirishishi mumkin.

Shunday qilib , tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

I. Mahalliy *Apis Mellifera* xitozani bilan N-3-metoksi-4-gidroksibenzaldegid ishtirokida poliazometin hosilasi, ya’ni Shiff asosi sintez qilindi va uning ba'zi fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘rganildi.

2. TGA ma'lumotlari asosida moddaning erish nuqtasi va uning termik degradatsiyasi shartlari aniqlandi.

3. IQ-spektroskopiya analiz usuli yordamida makromolekulaning tuzilishi tasdiqlandi.

4. Sintez qilingan birikmaning HOMO–LUMO Energiyalari asosida kvant kimyoviy tahlili o‘rganildi.

Adabiuotlar

1. Ahmad Ah.. Al-Mashhadani MH. Axmed DS, Ahmed Ah.A., Yusuf E.. Yusop RM UV-ga yaxshi qarshilik ko‘rsatadigan UV-absorber sifatida Shiff bazasini o‘z ichiga olgan polimer plyonkalarni tayyorlash Photoaging //Biointerface Research in applied Chemistry.- 2021.- V.11.-Iss.5. -P.12743-12749.

2. Степин С.Г., Железняк Н.В., Мыралов О.Г., Дикусар Е.А. Синтез и исслелование аитибактериальной активности полуаминалей и оснований

ISSN 3030-3907

Шиффа на основе сульфаниламида // Вестник фармации. - 2019. - №3 (85). -С.88-93.

3. Jamalinczhad A., Mohseni-Shahri F.S., Moeinpour F. Synthesis, characterization and Spectroscopic Studies on the Interaction Between beta-Casein and Co (II) Schiff Base Complex//Physical Chemistry Research. - 2021.- V.9. - Iss.I. - P.123-135.

4. Каро С.А., Габелло Г., Ланадаэта Е., Перес Дж., Загал Дж.Х., Лилло Л. Синтез, спектроскопические и электрохимические исследования производных оснований Шиффа хитозана // Журнал прикладной химии. - 2013. -Т.86. -Вып.11. -С.1843-1849.

5. A.S.Mengliyev, G.A.Ikhtiyarova Preparation of azometine derivatives (Schif Bases) chitosan *ApisMellifera*. Technical science and innovation. №4, 2022. pp. 24-29.

6. Менглиев А.С., Ихтиярова Г.А. Сравнительное исследования образцов хитозана полученных из местного сырья. Technical science and innovation. №1, 2023. pp. 44-51.

ISSN 3030-3907